

N.I. XASANOVA,
P.O. NORMAMATOVA

TARIX O'QITISH METODIKASI



TARIX O'QITISH METODIKASI

N.I. XASANOVA,
P.O. NORMAMATOVA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**N.I. XASANOVA
P.O. NORMAMATOVA**

TARIX O‘QITISH METODIKASI

O‘quv qo‘llanma

**5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar
bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi**

TOSHKENT – 2024

UO‘K:
KBK

N.I. Xasanova. P.O. Normamatova. Tarix o‘qitish metodikasi. o‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023. – 152 bet.

ISBN 978–9943–

Oliy o‘quv yurtlari 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan ushbu “Tarix o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi ta‘lim texnologiyalari va metodlariga nazariy va amaliy jihatdan yondashilib, tarix o‘qitish metodikasi fanining mazmun-mohiyatini o‘quvchi-yoshlarga yetkazish, fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalar bilimini oshirish, fanning sir-asrorlarini o‘quvchilar ongiga singdirish bo‘yicha o‘qitishning texnologiyalashtirish qoidalari, usul, vositalaridan foydalanishning ta‘lim texnologiyalari nazariy ma‘lumotlarni qamrab olgan. O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi”da ilgari surilgan talablarga mos ravishda tayyorlangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume’tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo‘yicha innovatsiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o‘quv adabiyotlaridan farq qiladi.

UO‘K:
KBK

Taqrizchilar:

B.S.Nazirov – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Tarix va falsafa" kafedrası v.b.dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

Sh.S.G'afforov – Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrası professori, tarix fanlari doktori

ISBN 978–9943–

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining ustuvor siyosati, ta’lim tizimi ish mazmunini demokratlashtirish, XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk, dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli, barkamol shaxslarni jahon ta’lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Barkamol shaxs hamisha o‘z Vatani kamolotini rivojlantiradi, uning ravnaqi yo‘lida umrini baxshida etishni o‘z burchi deb biladi. Barkamol avlod tushunchasi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z davrining komil insoni hisoblanadi. Demak, sog‘lom yoshlar har qachon, har yerda o‘z fikriga, sog‘lom mulohazasiga ega bo‘ladi, xalq va davlat manfaatini himoya qiladi. Uning aql-zakovati, intellekti, teran dunyoqarashi orqali o‘z maqsadiga erishish yo‘llarini qidirib topadi.

Yurtimiz kelajagi, xalqimiz, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, milliy ta’lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish, ta’lim tizimini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog‘liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan barkamol tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo‘lishi uchun avvalo ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko‘tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etyapti. Mustaqillik yillarida ta’lim tizimiga ko‘plab tushuncha va atamalar, yangicha qarashlar kirib keldi.

Bugungi kunda ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bizga ma’lumki, pedagogik texnologiyalarning asosini interfaol metodlarga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Ta’lim tizimida, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Yoshlarni yangicha ishlashga va tafakkur yuritishga o‘rgatish davr talabi ekanligi Birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan edi. So‘nggi yillarda barcha ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish masalasi dolzarb etib ko‘rsatilmoqda. Bu esa interfaol ta’lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunib yetishga va

ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga olib keladi. Ushbu metodik tavsiyanomada pedagogik texnologiyalarning ta'rifi, tarkibiy tuzilishlari, interfaol ta'limning tasnifi, uslub, metod, mashq, o'yin tushunchalari va ularning mohiyati yoritib beriladi. Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Bunday yondashuvlar tarix fanlari o'qituvchilari uchun muhimdir.

Hozirda yangicha metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida to'xtalganda interfaol usullar bilan birga texnika vositalarining qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik – bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter yordamida) yoki o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi.

Interfaollik o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi: o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishidir. U o'zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshirishni ta'min etadi. Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiyligni ta'minlaydi, yangi bilimlar olish, o'zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, o'zaro do'stona munosabatlar vujudga keladi. O'ylaymizki, ushbu metodik tavsiyanoma tarix fani o'qituvchilarining darslarni samarali olib borishlarida uslubiy yordam beradi.

O'quv qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar mualliflar tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinadi.

1-MAVZU: TARIX O‘QITISH METODIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. “Tarix o‘qitish metodikasi” fanining rivojlanish bosqichlari.
2. Tarix o‘qitishning asosiy maqsadi va vazifalari.
3. Tarix o‘qitish metodikasi fanining hozirgi davrdagi taraqqiyoti bosqichlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Fanning tarixi, tarix darsining turlari, rejalashtirish, tarix darslari sifat va samaradorligini oshirish haqida ma’lumotlar, tashkil etish metodlari.

Tarix o‘qitish metodikasi mutaxassisi hisoblangan professor P.V.Gora: “Tarix o‘qitish uslubiyoti ilmiy pedagogik fan bo‘lib, u o‘quvchilarga tarixdan, huquqdan bilim berishga, ularni tarbiyalashda va kamol toptirishda muhim ahamiyatga ega” deb hisoblaydi. Tarix o‘qitish uslubiyotining asosiy fan sifatida oliy o‘quv yurtlaridagi tarix fakultetlarining o‘quv rejasiga kiritilishi va uni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad kelgusida o‘qituvchi bo‘lib yetishadigan talabalarni maktabda tarix o‘qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat.

Tarix o‘qitish uslubiyotining metodologik asosini milliy istiqlol hamda milliy istiqlol g‘oyasi tashkil etadi. Bunda bu metodika o‘zining mustaqil tekshirish predmetiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tarix o‘qitish uslubiyotining predmetini maktabda tarix fanining asosida o‘qitilishi va o‘qitish jarayonining har tomonlama o‘rganilishi tashkil etadi. Mazkur o‘qitish jarayonining obyektiv suratda amal qilinadigan o‘z qonuniyatlari va vazifalari mavjud. Ushbu bilimlarni bilib olish hamda bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilishi va undan oqilona foydalangan holda, maktabda tarix fanini o‘qitishni ilmiy asosda olib borishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. So‘nggi paytlardagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va o‘quv o‘zgarishlar tarix fani o‘qitishni yanada takomillashtirib borish, zamon talabiga mos mutaxassislar tayyorlashni talab etmoqda.

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari deganda maqsadi, mazmuni, o'qitishning metodlari va usullari, natijalarini tushunamiz. Ular o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarni quyidagicha ko'rishimiz mumkin: maktab tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, uning g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilarning tarix fanini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning ilmiy asosda, maqsadga muvofiq tashkil qilishiga, o'qituvchining o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalardan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir. Shuningdek, o'qitishning natijalari ham o'qituvchining o'qitishdan ko'zlagan maqsadini, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini belgilab olishga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam beradigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishga bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga uzluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Tarix o'qitishning asosiy maqsadi o'qimishli, yetuk, komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Bu maqsad bir butun, qator ta'lim-tarbiya vazifalaridan tashkil topadi; bosh vazifa bilan birga yoshlarni mehnatga layoqat, komil axloq, vatanparvarlik, baynalmilallik, huquqiy tarbiya, mafkuraga yot fundamentalizm va terrorizmga murosasizlik, bilim hamda izlanuvchanlik kabi fazilatlarni rivojlantirish muhimdir.

Tarix o'qitish deganda, tarixiy materiallar vositasida o'quvchilarga bilim berish, eng zarur jarayon – o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi. Tarix kursining mazmuni deganda, tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv materiallari: uning asl mazmuni tarixiy faktlarni xolislik nuqtayi nazaridan tahlil qilish asosida kelib chiqadigan xulosalar va umumlashtirishlar, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish va olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari,

ko‘nikma va malakalari tizimi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarning eng oddiy shakllarini egallashlari ko‘zda tutiladi.

O‘qitish metodlari murakkab muammo bo‘lib, maktab oldiga qo‘yilgan mas’uliyatli vazifalarning hal etilishi, ko‘p jihatdan uning to‘g‘ri hal qilinishiga bog‘liq. Biroq hozircha o‘qitish metodikasining bu muhim muammosi, xususan, tarix o‘qitish metodlari tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Metodik adabiyotda metodistlar tomonidan o‘zaro «Metod», «Metodik usullar» tushunchasi turlicha talqin etiladi.

Shu bilan birga maktab amaliyotida, ayniqsa keyingi yillarda o‘quvchilarni tarix predmeti vositasida tarbiyalashga, uni o‘qitishni ilmiy asosda olib borish ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish sohasida ko‘pgina ilg‘or tajribalar to‘planadi va umumlashtiriladi.

O‘qitish metodlarini ilmiy asosda klassifikatsiyalash masalasi pedagogika fanida o‘qitishning turli bosqichlarida turlicha hal qilib kelindi. O‘qitish metodlarining klassifikatsiyasiga ba’zan analiz va sintez, deduksiya va induksiya kabi mantiqiy operatsiyalar asos qilib olinib, o‘qitish metodlari induktiv, analitik va boshqa mantiqiy usullar sifatida xarakterlanadi.

O‘qitish metodlarini ba’zan o‘quvchilarning bilish faoliyati faollik darajasiga qarab turkumlash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o‘qitish metodlaridan ko‘ra ko‘proq o‘qitishning umumiy xarakterlariga taalluqlidir.

XX asrning 60-yillarida tarix o‘qitish metodlari va ularni turkumlash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev: “Tarix o‘qitishning tashkil etilishi metodlari va vositalari tarix fanining ta’lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi” degan fikrni beradi. Biroq u ham o‘qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o‘zini o‘rganish metodidan iborat qilib qo‘yib, masalada biroz noaniqlikka yo‘l qo‘yadi. O‘z fikri davomida A.I.Strajev quyidagi o‘qitish metodlarini tavsiya etadi:

- tarixiy faktlarni o‘rganish metodlari;
- xronologiyani o‘rganish metodlari;
- mahalliy tarixiy voqealarni o‘rganish metodlari;
- asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;

sabab-natija aloqalarini o'rganish metodlari;
tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

O'qitishning metod va usullarini tanlashda shuni nazarda tutmoq kerakki, o'quvchilar esda saqlab qolishi zarur bo'lgan bilimlarni shunchaki, bayon qilib qo'yish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, o'rgatish ham lozim. Ularda mustaqil ijodiy izlanish, yangilikka intilishni kuchaytirish, hali jamiyatga ma'lum bo'lmagan bilish usullarini qidirib topish va amaliy faoliyatga joriy eta bilish qobiliyatini ham rivojlantirish kerak.

I.Ya. Lerner ham bu borada o'z fikrlarini bildirib o'tadi va o'qitish metodlarini quyidagi guruhga bo'ladi:

bayon metodi; reproduktiv metod; ilmiy-tadqiqot metodi;
qisman izlanish yoki evristik metod.

O'qitishning birinchi va ikkinchi usulida o'quvchilar o'rganiladigan materialni puxta esda saqlab qolishlari va uni qayta so'zlab berishlari mumkin.

O'qitish metodlari va usullari haqida tushuncha. O'qitish metodlariga ta'rif berilganda birinchi navbatda u o'qituvchining o'qitish va o'quvchilarning o'rganish yoki bilish faoliyatini nazarda tutishi kerak. Haqiqatan ham, o'qituvchi ko'rgazmali vositalar yordamida so'zlab berish yoki qandaydir amaliy xarakterlarni ko'rsatish, ularni tushuntirib berish jarayonida o'zi faol fikrlash bilan birga, o'quvchilarning o'zi ham fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi va o'quv materialining o'zlashtirilishiga rahbarlik qiladi, ularning bilim va malakalarini o'zlashtirib olishlariga yordam ko'rsatadi. Binobarin, o'qitish metodlariga o'qitish va o'rganish usullari va unga bog'liq o'qituvchi va o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyati asos qilib olinadigan bo'lsa, uni quyidagicha ta'riflash mumkin.

O'qitish metodlari – o'qituvchilarning aktiv fikrlash asosida o'quvchilarni o'qitishga, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning ilmiy bilimlarini maktab ta'limi metodlari tizimidan to'g'ri foydalanilgan taqdirdagina ta'lim-tarbiya ishlari sohasida yaxshi natijalarga erishish

mumkin. Maktab ta'limi metodlari tizimi, deb eng muhim umumiy belgilari bilan o'qitish va o'rganish usullari hamda o'qituvchi va o'quvchilarning tafakkur faoliyatidan iboratdir. Bir-biri bilan bog'langan o'qitish *metodlarini* quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Og'zaki ta'lim metodi.
2. Bosma matnlar yordamida o'qitish metodi.
3. Ko'rgazmali ta'lim.
4. Ta'limning amaliy metodi.

Mazkur metodlar tizimi maktabdagi barcha o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanishi mumkin. O'qitish usullari va o'quvchilarning o'rganish usullari turli shakllar bir-biri bilan qo'shib, o'qituvchi va o'quvchilar faol ishtirok etadigan ta'lim jarayonlar metodini tashkil etadi.

Metodik usullar tizimi. Ma'lumki, maktab tarix kursining mazmunini ayrim aniq va tipik voqealardan iborat faktlar tashkil etadi. Bu faktlar o'quvchilarga ijtimoiy hayotning barcha tomonlari, bu tomonlarning rivojlanishini va ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida bilim beradi, ularning aqli, o'yi-xayoli, sezgi va irodasiga ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy faktorlarning xarakterli xususiyati shundaki, ularni bevosita hissiy tasavvurlar asosida o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun o'tmishga doir eng muhim faktorlarni obrazli tasavvur etishning ahamiyati g'oyatda kattadir. Obrazli tasavvurlar o'quvchilarning tarixiy voqealar haqidagi faktorlarni jonli idrok etishlariga yordam beradi.

Maktab tarix kursi ta'lim-tarbiyaviy jihatdan juda muhim bo'lgan keng va obrazli qilib yoritilgan. Faktorlardan tashqari, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradigan ma'lumotlar ham beriladi. Ular juda qisqa ba'zan spravka shaklida bo'lsa-da, tarixiy jarayonni bir butun yaxlit tasavvur etish, tushunchalar tizimini va ijtimoiy rivojlanishning qonuniyatlarini to'liq o'zlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, o'quvchilar xotirasida saqlanib qolinishi kerak bo'lgan tarixiy materiallar tarixiy bo'limning ikkinchi muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Tarix o'qitishning tajribasida tarixiy materiallarni puxta va mustahkam o'zlashtirishga yordam beradigan ko'pgina samarali usullarni sanab o'tish mumkin. Materialni bayon qilib borishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv materiali yuzasidan og'zaki va yozma reja, voqealar kalendari va xronologik jadvallar tuzishlari, raqamlarni yozish, grafik yozuvlarini olib borishlari diagrammalar chizish, kontur xarita va daftarda yozuv-chizuv ishlarini olib borishlari shular jumlasidandir. Shuni aytish kerakki, obrazli tarixiy tasavvurlarni shakllantirish, tarixiy faktlar xronologiya va boshqalarni xotirada mustahkam saqlab qolish tarixni o'rganishning birinchi bosqichini tashkil etadi. Uning eng muhim ikkinchi bosqichi tarixiy tushunchalarni shakllantirishdir. Tarixiy tushunchalarni o'zlashtirish juda katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tushunchalar o'quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi, ularning tafakkur faoliyatini, bilish malakalari va qobiliyatlarini o'stiradi. Tafakkur qilishning psixik jarayoniga suyanadigan bu usullar har qaysi tarix o'qitish metodiga metodik usullarning uchinchi guruhi bo'lib kirishi mumkin. Ular birinchi navbatda o'qituvchining tushuntirib berishi, muammoli bayoni, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning tarixiy hujjatlarni tahlil qilishi mantiqiy vazifalarni yechishi va evristik suhbatlardan iborat bo'lishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bu usullar va bilimlarning barchasi tarkibiy qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda ishtirok etadi.

Tarix o'qitish uslubiyoti yosh, yangi fan, lekin eng qadimgi davrlardan boshlab maktablar va madrasalarda tarix fani ta'lim-tarbiyada asosiy o'rinni egallab olgan. Ta'lim sohasida uyg'onish, temuriylar, shayboniylar davrlarida va ayniqsa, XIX asrda rivojlanish bosqichida bo'ldi. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishidan so'ng general-leytenant N.O.Rozenbax (1884–1889) "rus-tuzem" maktablarini ochish loyihasini ishlab chiqdi. Ushbu loyiha asosida 1884-yili Toshkentda birinchi "rus-tuzem" maktabi ochildi. Asr oxiriga kelib ularning soni 102 tadan oshib ketdi.

Shu paytlarda Rossiyaning o'zida tarix fanlarini o'qitish bo'yicha muhim o'zgarishlar yuz berayotgan edi. 1874-yili gimnaziyaning o'quv

rejasiga o'zgarishlar kiritilib, 4-sinfdagi Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim tarixi o'rniga Rossiya tarixining hikoyalar darsi, 4-sinfdagi Rossiya va umumiy tarix hikoyalar darsi o'rniga Qadimgi dunyo tarixining reja asosida darslar, 5–6-sinflarga Rossiya va umumiy tarixning XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan darslar o'qitila boshladi. O'sib kelayotgan inqilobiy vaziyat yoki marksistik g'oya va idealistik, deb tushuniladigan g'oya o'rtasidagi kurash tarix o'qitishda ham o'z aksini topa boshladi.

Shunday bo'lsa-da, tarix o'qitish jarayonlari sezilarli darajada o'zgarib bordi. Masalan, gimnaziya o'qituvchisi A.Ivanovich darsliklari faktlarning obrazli va asosli bayoni, dars uchun muhim hujjatlar, mavzuga oid rasmlar bilan boyitilgan edi. 1890-yilda “Вестник воспитания” jurnali nashr etila boshladi va unda tarix o'qitishga doir ko'pgina maqolalar chop etilgan. Rossiyada ta'lim sohasida katta o'zgarishlar bo'layotgan bo'lsa-da “rus-tuzem” maktablari O'rta Osiyolik musulmonlar ehtiyojini qondira olmas edi. “Rus-tuzem” maktablari mahalliy aholini ruslashtirish uchun bir qurol vazifasini bajarar edi. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda yangi usul maktablarining vujudga kelishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyin Turkiston butunlay Imperiyaning bir qismiga aylanar ekan ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlardan ham chetda qolmadi. Tarix o'qitish bolshevistik yangi jamiyat uchun siyosatda muhim rol o'ynashi kerak edi. Shuning uchun N.K. Krupskaya, A.V. Lunacharskiy, M.N. Pokrovskiy kabi shaxslar boshchiligida, shahar xalq maorifi komissarligi yetakchiligida yangi tizimni yaratish uchun bel bog'lashdi. 1920-yil tarix fanining birinchi dasturi qabul qilindi. Unda madaniyat tarixi, chet el va Rossiya tarixi, iqtisod tarixi va sotsializm tarixi kabi fanlar o'rin olgan edi va bu borada yangi darsliklar ham yaratish masalasi ko'rila boshlandi. Ko'rinib turibdiki, o'quvchilar ongi kommunistik g'oyalar bilan sug'orilishi kerak edi. O'zbek xalqining boy tarixga ega madaniyati va tarixiga putur yetkazila boshlandi. 1921-yili tarix kursi jamiyatshunoslik bilan almashtirildi. Tarix, siyosiy iqtisod, huquq asoslari jamiyatshunoslik tarkibiga kirishi kerak edi. Kurs 1,5 yil davomida 3–4-sinflarda o'qitilishi mo'ljallangan.

1925–1927-yillarda dasturga yana o‘zgartirishlar kiritildi. 1930-yillarda maktablarda tarix o‘qitishda yana o‘zgarishlar boshlandi. 1934-yil 15-mayda VKP (b) MQning “SSSR maktablarida grajdanlar tarixining o‘qitilishi to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Shunday qilib, 4-sinflarda SSSR tarixining qisqa kursi, 5–7-sinflarda qadimgi dunyo va o‘rta asrlar, 8–10-sinflarda esa SSSR tarixi, yangi va eng yangi tarix kurslari o‘qitila boshlandi. Shu boshlangan ish to 1991-yilgacha davom etdi. Tarix kitoblari qayta-qayta nashr etildi, lekin ularning mazmuni ijobiy tomonga o‘zgarmadi. SSSR tarixi darsliklari ham, jahon tarixi (umumiy tarix) darsliklari ham sinfiylik, sotsializmning kapitalizm ustidan g‘alabasi, internatsiolizm deb atalgan aslida ruslashtirish siyosati va ateizm bilan sug‘orildi. O‘quvchilarni iloji boricha o‘tmishga nafrat bilan boqishga o‘rgatildi, faqatgina kommunistik g‘oyalar uchun muhim bo‘lgan qo‘zg‘olonlar, urushlar maqtaldi. Tarix o‘qitishning xolislik, inson omili, ilmiy prinsiplari buzildi.

Tarix o‘qitishda eng muhim prinsip bu tarixiy ketma-ketlik (xronologiya)dir. Buning buzilishini hech qachon kechirib bo‘lmaydi. Tarixiy voqea-hodisalarning barchasi kunma-kun, yilma-yil, ketma-ketlikda bayon etilishi shart. Bu prinsip sho‘rolar davrida ham buzilmadi.

Yana bir prinsip bu ilmiy xolislikdir. Buning ma‘nosi shundaki, tarixiy voqealar kerakli manbalar orqali ilmiylik asosida yoritib berilishi kerak va bunda hech bir mafkura xizmati uchun yo‘naltirmasligi kerak. Misol uchun, o‘zbek davlatchiligi tarixi 2700 yillik tarixga ega. Birgina shu ma‘lumotni berish uchun manbani o‘rganish kerak, o‘rganganda ham ilmiylik asosida o‘rganish kerak. O‘zbek davlatchiligi tarixining 2700- yillik tarixi haqida biz eng avvalo “Avesto”dan bilib olishimiz mumkin va bu ma‘lumotning noto‘g‘ri bo‘lmasligi uchun boshqa manbalar ham o‘rganilmog‘i zarur (davlatchilikka oid). Yana bir misol, zardushtiylikning vatani Turon ekanligi. Buni “Avesto”dan tashqari ko‘pgina arxeologik manbalar ham isbotlaydi. Shu tariqa har bir tarixiy ma‘lumot ilmiy xolislik asosida berilmog‘i kerak Sho‘rolar davrida shu

prinsip buzib ko'rsatildi. Ya'ni tarixiy ma'lumotlarni mafkuraga xizmat qildirish uchun soxtalashtirildi. Masalan, 1898-yilgi Dukchi eshon qo'zg'oloni reaksion-diniy qo'zg'olon deb nomlangan. Vaholanki, bu qo'zg'olon diniy belgilari bo'lsa-da rus bosqinchilariga qaratilgan milliy-ozodlik harakari edi. Yoki Turkiston muxtoriyati haqidagi ma'lumotlar. 1918-yilning noyabridagi bu voqeada milliy davlat tarafdorlari bosmachilik (seperatistik), burjua-millatparastligida ayblandi. Yana bir misol qilib "bosmachilik" harakatini olishimiz mumkin. Xullas, tariximizda ko'pgina voqealar ilmiy asosga ega bo'lmagan holda xolislik prinsipi buzib tasvirlangan. Vatanimiz tarixida milliy davlatchilik, o'zbek millatining shakllanishi, Temur, Turkiston muhtoriyati, "bosmachilik", "o'zbeklar ishi" kabi sahifalar borki, bularning barida ilmiylik, xolislik buzilgan.

Inson omili tarix o'qilishining muhim prinsipi sho'rolar davrida yagona kommunistik mafkura iskanjasidagi ta'lim, tarix o'qitish mazmunan sayozgina emas, egasiz, mavhum va zerikarli tafsilotga aylanib qoldi. Sho'rolar o'z mafkurasiga ko'ra jamoa (kollektiv) manfaatlarini shaxs manfaatlaridan hamisha ustun qo'yar edilar. Buning tub ma'nosi shunda ediki, shaxsni jamoa orqali idora qilish boshqaruvning oson usuli edi. Buyuk shaxslar, avlodlar tarixi ularning shonshuhrati va jabr-jafolari haqidagi yorqin xotiralar tarix darsliklarida o'z ifodasini topmadi. Tarix bilimlarining asosiy mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy jarayon, sinfiy kurash davlatlar tarixi, inqiloblar, ommaviy harakatlar tarixidan iborat bo'lib qoldi. Inson omili prinsipining buzilishi shaxs tarbiyasida qiyinchiliklarga olib keladi. Milliylikka bir tomonlama yondashuv tarix o'qitish prinsipining buzilishidir. Sho'rolar davrida baynalmilalchilik, milliylikka e'tibor, deb aytilsa-da, aslida markaz tomondan belgilanganidek, tarix o'qitishda ham milliylik prinsiplari buzildi.

"Panturkizm", "panislomizm", "milliy-burjuaziya" yoki "o'zbeklar ishi" nomli atamalarning o'zi ham buning yaqqol dalilidir.

Maktabda tarix o'qitish prinsiplarining yana biri yoshlar ruhiyatini hisobga olishdir. 5-sinf tarix darsliklaridan to 11-sinf darsliklarigacha barchasi o'quvchilar yoshiga qarab yozilgan bo'lishi kerak. Kichik

yoshdagi o‘quvchilar kitoblari sodda tilda hikoya tarzida yozilgan bo‘lib, matn harflari yirikligi yoki o‘sha davrga oid rasmlarning, hikoyalar (asarlardan parchalar)ning ko‘pligi bilan ajralib turishi kerak. Dars o‘tish jarayonida ham mavzuni hikoya tarzida tushunarli qilib tushuntirib berish kerak bo‘ladi. Yuqori sinflarda esa o‘quvchilarni fikrlashga, mushohada qilishga o‘rgatiladi. Tarixchi o‘z davrining farzandi. Uning mehnatida u yashab ijod etgan davrning tamg‘asi qoladi. O‘tmishini, shuningdek, yaqin va eng uzoq davri xarakteristikasining shohidi bo‘lamiz. Kelajak sharoiti bilan tarix ham yangi ma’naviy qiyofada bo‘lib, yangicha baholanadi. Mazkur o‘rinda shunga alohida e’tibor berish lozimki, tarixga nisbatan yuqorida qayd etilgan holat sodir bo‘ladigan bo‘lsa, *tarixiy bilimlar metodologiyasi* ham o‘zgaradi. Buni yaqin o‘tmishimizda sho‘rolar davrida yakka hukmronlik qilib kelgan kommunistik mafkura misolida ko‘rilsa, ayni muddao bo‘lur edi.

O‘zbekistonda tarix fanining tarixi va tarix ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, XX asrda, ya’ni sho‘rolar mustamlakachiligi davrida kommunistik mafkuraning ta’siri ostida milliy tariximizni yoritishda tarixiy sotsiologik yondashishlar hukmronlik qilar edi. Natijada, milliy tariximizda sodir bo‘lgan ko‘pgina voqea va hodisalar o‘sha davrning hukmron g‘oyasi va mafkurasi nuqtayi nazaridan baholanib, ko‘p hollarda tarixiy voqealar, ularni keltirib chiqargan obyektiv sabablar tom ma’noda soxtalashtirildi va yosh avlodning ongiga singdira boshlandi. Lekin, ozchilikni tashkil etgan bo‘lsa-da, o‘sha davriylikka asoslangan sho‘rolar davrida ham haqiqatni yuzaga ko‘tarib chiqishga muvaffaq bo‘lganlar. Masalan, sho‘rolar davri tarixiy asarlarida Amir Temur shaxsiga tavsif berishda ham bir-biriga qarama-qarshi fikrlar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “Temur, – deb yozadi o‘zbek temurshunos olimi, Temur va temuriylar davrini birinchi bo‘lib qo‘lyozma matnlar asosida o‘rganib chiqqan professor Mahkam Abduraimov, – yoshligidanoq o‘zining aqli rasoligi bilan ajralib turardi. Undagi harbiy iste’dod juda erta uyg‘ongandi: u otda yaxshi chopar, o‘q-yoyni mohirlik bilan otar edi. Temurning hayotlik paytida din ahllari

daxlsiz edi. Avlodlari ham bu an'analarga sodiq qoldilar. Temur din arboblarigagina emas, balki dunyoviy fanlarning namoyandalariga ham e'tiborli bo'lgan.

Temurning ichki siyosati imkoni boricha Movarounnahr moddiy va ma'naviy farovonligini ko'tarishga qaratilgan edi. Movarounnahr va Samarqandda bunyod etilgan nodir va abadiy obidalar bevosita Temur nomi bilan bog'liqdir. O'rta Osiyoda o'tgan barcha hukmdorlar orasida u ulug' bunyodkor va zabardast Amir sifatida nom qozongan edi”.

Amir Temurga tavsif berishda yana bir o'zbek tarixchi olimi, professor Goga Xidoyatov shunday yozadi: “U o'qish va yozishni o'rganmagan bo'lib, turk va fors tillarida yaxshi gapirar edi...”

Temur Chingizxon va uning harbiy tartiblari ixlosmandi bo'lib, hamma yurishlarini tashkil etish, harbiy harakatlar va ma'muriy qurilish ishlarida unga taqlid qilar edi... Uning hamma harbiy taktikasi Chingizxondan o'zlashtirib olingan edi”. Amir Temurga xarakteristika berishda tarix fani metodologik tadqiqotchilikka da'vogar bo'lgan tarixchilar ham chetda qolmadilar. Masalan, Ahmadjon Sa'diyev O'zbekiston maktablarida “Temur davlatining tashkil topishi” mavzusini qanday o'qitish lozimligi xususida shunday ilmiy bashorat qiladi:

“Temur davlatining tashkil topishiga bag'ishlangan birinchi darsda Temurning shaxsiga tavsif berishda, deb uqtiradi A.Sa'diyev, Temurning jahonga hukmron bo'lish havasi bilan bosqinchilik urushlariga kirib ketganligi mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlari va vositalarining keng miqyosda rivojlanishiga to'sqinlik qilgani, Temurning turli xil harakatlari, zulmi xalqning qahr-g'azabiga sabab bo'lganligi aytiladi. Temurning ulkan imperiyasi – feodal hukmdorlar imperiyasidan iborat bo'lib, uning haqiqiy markazlashishi uchun yetarli iqtisodiy zamin bo'lmaganligi uchun mustahkam emasligi tushuntiriladi”. N.Remeyev mazkur mavzuni o'rganish xususida tarix o'qituvchilariga dars jarayonida o'quvchilar diqqat-e'tiborlarini asosan quyidagi masalalarga jalb etilishini uqtiradi:

1. Temur davlati qachon vujudga keldi?
2. Uning harbiy yurishlarini gapirib bering.

3. Temurning harbiy yurishlari qanday xususiyatga ega edi?
4. Temur davlati nima uchun inqirozga yuz tutdi?

Avvalambor, shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi savollarning hammasi ham o'quvchilarni mantiqan tahliliy tafakkur etishga yo'llamaydi. Aksincha, ularda metodika ham yo'q. Ikkinchidan, mavzuni o'rganish uchun qo'yilgan savollar o'quvchilarda ijobiy, ya'ni milliy ma'naviyatimizga asoslangan, ularda milliy iftixorlar shakllanishiga olib keladigan, asl tarixiy haqiqatni bilib olishlariga yetaklaydigan fikrlarga emas, balki Amir Temur davri faqat nohaq qon to'kishlar, vayronagarchiliklar, dehqon va hunarmandlar uchun azob-uqubat davri bo'lgan degan xulosaga kelishlariga da'vat etilgan ilmiy va tarixiy haqiqatni o'ta soxtalashtirilgan yo'nalishdan iboratdir. O'zbekiston tarixini o'qitish bo'yicha yaratiladigan "ilmiy-metodik tavsiya" nomiga da'vogarlik qiladigan har qanday risolalarda talabalarga tarixiy haqiqatdan kelib chiqib, ularga Vatan tarixidan beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish hamda integratsiyalashga tomon burilsa ayni muddao bo'lur edi. Chunki, xalq ta'limi oldiga qo'yilgan bugungi farovon hayotimiz, davrimiz talabi shuni taqozo etmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning sa'y-harakatlari bilan Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risidagi farmoni YUNESKO tomonidan ijobiy tadbir sifatida ma'qullanib, Amir Temurning O'rta Osiyo va jahon xalqlari tarixida tutgan o'rniga odilona baho berilganligining guvohi bo'ldik.

"Amir Temur davrini qaytadan o'rganishimiz kerak, nega deganda, Amir Temur tuzuklarini o'qigach, xuddi bugungi zamonning katta muammolariga javob bergandek bo'laman. Shuning uchun strategiyani juda puxta o'ylash kerak. Balki ota-bobolarimiz qoldirgan merosdan foydalanib, o'zimizga xos, o'zimizga mos strategiyani ishlab chiqish kerak bo'ladi", deb qayd etgandi Birinchi Prezidentimiz.

Savol va topshiriqlar

1. Tarix o‘qitish metodikasi fanining rivojlanish tarixi va vazifalari nima?
2. Tarix darsining turlarini izohlab bering.
3. Tarix o‘qitish metodikasi fanining vazifalari nimalardan iborat?
4. Tarix o‘qitish metodikasi fanining hozirgi bosqichdagi taraqqiyotda tutgan o‘rni qanday?

2-MAVZU: TARIX O‘QITISH METODIKASI FANI TO‘G‘RISIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR

REJA:

1. Tarix o‘qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Maktabda tarix fanining mazmuni va tuzilishi.
3. Tarix o‘qitish usullarining yo‘nalishlar

Tayanch so‘z va iboralar: fanning vazifalari. Tarix fanining mazmuni. Tarixiy voqea-hodisalar. Ta’lim-tarbiya vazifalari.

Tarix o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari fanining hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti hamda ushbu fanga ilmiy bilimlarning mustaqil bir tarmog‘i sifatida qaralishi.

Tarix o‘qitish metodikasi ilmiy-pedagogik fan bo‘lib, u talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish, ularga o‘tmish tariximiz umumbashariy qadriyatlarimiz, avlod-ajdodlarimiz haqida puxta bilim berish, mustaqil vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kamol toptirishni ko‘zda tutadi va o‘z bilimlarini berib boradi.

Jamiyat va uning ijtimoiy taraqqiyotida tarix asosiy fan sifatida ekanligini bilishimiz ayni muddaodir, shu bilan bir qatorda boshqa fanning obyektidir. Tarix fanining predmeti esa o‘tmishda ro‘y bergan voqea-hodisalar bo‘lib, ular o‘zining betakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Tarixiy voqea-hodisalarni ilmiy, xolis o‘rganishning aniq yo‘lini O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1998-yil 26-iyunda mamlakatimiz tarixchi olimlari, shoir va jurnalistlar bilan bo‘lgan uchrashuvda bu haqda o‘z fikrlarini aytib o‘tdi va bir qancha

ko'rsatmalarni berdi. "Tarix o'qitish metodikasi" kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, uning g'oyaviy-mafkuraviy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq.

"Tarix o'qitish metodikasi" fanining maqsadini belgilashda, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy saviyasi muttasil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil bo'lishini hamda ijodiy faoliyatiga tayyorlanishlarini nazarda tutish kerak. Ta'limdan ko'zlangan maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ilmiy asosda belgilanmog'i lozim. Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Maktabda tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining obyektiv sur'atda amal qiladigan o'z qonuniyatlari borligini bilamiz. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish maktabda tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Mustaqil jamiyatimizning hozirgi bosqichida tarix o'qitishni yanada takomillashtirib borish, o'qitish jarayonini, uning obyektiv ravishda amal qiluvchi qonuniyalarini aniq va mukammal bilib olish, bu qonuniyatlardan mustaqil Vatanimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishi, undan istiqbol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish zarur va ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanishda biz ularga maslakdosh bo'lishimiz kerak deb o'ylayman.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining 1997-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida alohida qayd etib o'tganlaridek "darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat ekanligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz" degan fikrlarni juda ko'p ta'kidlab o'tadi.

Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov alohida qayd etib o‘tganlaridek, bugungi kungacha O‘zbekistonimiz umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv yurtlari gumanitar fakultetlari uchun tarixdan davr talabi darajasida yaratilgan, ilmiy-metodik jihatdan sifatli darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalari mavjud emas. Odatda, har bir fanda bo‘lganidek, tarix fanida ham ma’lum o‘quv yurtlarida o‘quv rejasiga asoslangan ilmiy-metodologik va uslubiy-didaktik talablarni hisobga olgan dastur tayyorlanadi. Mustaqillik sharofati bilan Respublikamiz umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan tarix fanining asosiy mazmuni ikki yo‘nalishda: Jahon tarixi va O‘zbekiston tarixi bosqichlarini o‘rganishni tashkil etadi. Kishilik jamiyati taraqqiyotidagi tarixiy hodisalar va voqealarni o‘rganishga qo‘yilgan talablar barcha sinf o‘quvchilarining yoshi, bilim saviyasi, ruhiy xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi darajalariga mos bo‘lgan darslik yaratish kerakligini taqozo etadi.

O‘quvchilar tarix ta’limi jarayonida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari shart:

- Jahon va O‘zbekiston tarixining davrlari, ijtimoiy tuzumlar, ularning atalishi, ularga mos bo‘lgan xususiyatlar haqida tasavvurga ega bo‘lish;

- asr va yil hisobotini bilish, tarixiy voqea va hodisalarning davomiyligi, ularning qaysi davrga mansubligini ayta olish, eramizdan oldingi va keyingi asrlarni hisoblay olish;

- jamiyatda kechayotgan jarayonlarga o‘zining mustaqil munosabatini bildira olish har bir shaxsning vazifasi ekanligi;

- tarixiy jarayonlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish va qiyosiy tahlil qila olish;

- milliy Mustaqillik va uning dastlabki yutuqlari, mamlakatimiz bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, davlat ramzlari, Prezidenti, tashqi aloqalarga doir tushunchalarga ega bo‘lish;

- Jahon va O‘zbekiston tarixining yangi davri haqida ma’lumotga ega bo‘lish;

- tarixiy manbalarni mustaqil o‘rganish va u asosida xulosalar chiqara olish;

– insoniyat doimo oldinga intilganligi, bu esa tarixiy taraqqiyotning asosi bo‘lganligini anglash lozim;

– xarita ustida ishlay olish, tarixiy voqealar yuzasidan mustaqil mulohaza yurita olish, bayon qila olish, munozara va bahslarda faol ishtirok eta olish;

– 5-sinflarda tarix fan sifatida o‘rganilmay, qisman tarixiy tasavvur hamda eng sodda tushunchalarni egallash bilan cheklaniladi.

– 6-sinfdan boshlab esa, Jahon va O‘zbekiston tarixi davlat komponentidagi asosli predmet sifatida o‘rganiladi. Nihoyat, 9-sinfga qadar davriy izchillik bilan insoniyat paydo bo‘lgan eng qadimgi davrdan eramizning ming yilligi, o‘rta asrlar tarixi va XX asr boshlarigacha ro‘y bergan voqea-hodisalar, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar ifodasi 9-sinfda yakunlanadi. Eng yangi davr tarixini o‘rganish umumta’lim maktablari (5–9-sinflar) vazifasiga kirmaydi. Uni izchillikda oliy, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida davom ettiriladi va keng ma’noda yoritiladi.

Tarix o‘qitish jarayoni ikki yo‘l bilan o‘rganiladi. Birinchisi, *kuzatish metodi bo‘lib*, bu metoddan foydalanganda turli xildagi o‘quv-metodik adabiyotlar, o‘quvchilarning yozma ishlari, referatlar, ularning javoblari yozilgan stenogrammlar va magnitofon yozuvlari, o‘qitishga berilgan baho va chiqarilgan xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o‘quvchilarning bilimi va ko‘nikmalari o‘rganiladi va baho beriladi.

Shunday qilib, kuzatish metodidan foydalanganda, o‘qituvchi tarix o‘qitishning mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqmaydi va uni tabiiy ravishda kuzatadi, o‘rganadi, tahlil qiladi.

Ikkinchisi *tadqiqot metodi*. O‘qituvchi o‘qitish jarayonini o‘zi xohlaganicha uyushtiradi. Unga ba’zi o‘zgarishlar kiritadi, natijasini tekshirib ko‘radi.

Xullas, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy tadqiqotga o‘xshab ketadi. Biroq, o‘qituvchi qilgan ijodiy izlanishlarning ilmiy tadqiqotdan farqi, avvalo shundaki, o‘qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xulosalari esa, o‘z faoliyatining natijasi bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotda

ko'pchilik o'qituvchilarning ishi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar tadqiq etiladi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asosda rasmiylashtiriladi. Tarix o'qitish metodikasi fanining hozirgi jamiyatdagi holati va rolini tahlil etishga kirishmoqdan oldin, hozirgi zamon va o'tmishdagi mashhur mutafakkirlarning bu muammoni qanday sharhlaganliklarini eslaydigan bo'lsak, Sitseron "tarix hayot murabbiysidir" deb atagan bo'lsa, Leonardo da Vinchining fikricha, "o'tgan davr va jahon mamlakatlari o'tmishini bilmoq inson ko'rki va uning aqliy mahsulidir". Yana bir olim, Rus tarixining otasi N.M.Karamzinning fikrlari bu borada boshqacha, "*Tarix xalqlarning muqaddas kitobi bo'lib, ularning hayoti va faoliyatlarining ko'zgusi, ota-bobolarining avlodlarga qoldirgan kashfiyotlari va odob-axloqlaridan lavhalar bo'lib, hozirgi davrni sharhlash va kelajakka namuna bo'lib xizmat qiladigan, to'ldiradigan zaruratdir*" deb yozgan. V.G.Belinskiy esa, "*Bugungi kunni tushunmoq va kelajagimiz to'g'risida ishoraga ega bo'lmoq uchun o'tmishimizni so'roqlab surishtirmog'imiz lozim*"ligini aytib o'tgan. V.O.Klyuchevskiy, "*Avlodlarimizni o'rganib, o'zlikni – o'zimizni angalaymiz. Tarixni bilmasdan turib, biz o'zimizni bu dunyoga nega va nima uchun kelganligimiz, qanday qilib va nimaga intilmog'imizni aniq angalay olmaymiz*",– deydi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tarix ta'limi va sabog'i xususida fikr yuritar ekan, "Tarix sohasida mehnat qilayotgan olim, mutaxassislariga murojaat qilmoqchiman: sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g'ururini uyg'otsin... O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmaydi. Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur" deb ta'kidlab o'tadi. O'zi tug'ilib o'sgan Vatanga sadoqat, fidokor shaxsni shakllantirish har bir jamiyatning diqqat markazida bo'lib kelgan va Shunday bo'lib qoladi. shunday ekan, XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoni bosib olgan Chor Rossiyasi va 1917-yildan hukmronlikni o'z qo'liga olgan bolsheviklar partiyasi O'rta Osiyo xalqlarini 150 yil davomida tutqunlikda ushlab turgan davrda ham bunday masala

e'tibordan chetda qolgan emas edi. O'zbekistonda tarix o'qitish metodikasini pedagogik fan sifatida shakllanishida yuqorida qayd etganimizdek, O'rta Osiyo xalqlarining 150 yil davomida Chor Rossiyasi va bolsheviklar tomonidan ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatdan tutqunlikda ushlab turishda o'zining ma'lum bir izini qoldirdi. Shu bois biz tarix o'qitish metodikasining ilmiy-pedagogik fan sifatidagi masala xususida fikr yuritar ekanmiz, o'lkamizda har tomonlama hukmronlik qilib kelgan Chor Rossiyasi, keyingi bolsheviklar partiyasining ma'rifiy sohada olib borgan faoliyatiga qisqacha tarixiy nazar solmog'imiz zarur. Tarixiy faktlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Rossiyada tarixdan dastlabki, original o'quv qo'llanmasi XVII asrning 70-yillarida yaratilgan bo'lib, "Sinopsis" (*lotincha* sinopsis – to'plam, turli mualliflarning maqolalar to'plamining umumiy qarashi), ya'ni tarixiy voqealarni sharhlash deb atalganligining guvohi bo'lamiz. Bu o'quv qo'llanmada Rossiya va Ukraina xalqlari tarixi qisqacha bayon etilgan bo'lib, 35 marotabadan ortiq qayta nashr etilganligining guvohi bo'lamiz.

"Mavzu"ni tuzgan mualliflar o'z o'quv qo'llanmalarida jadval tuzib, jadvalda tarix o'qitishdan asosiy maqsad o'sha davrda rus knyazlari va ukrain gersoglarining ism-shariflari, yashagan davrlarini ifoda etadigan sanalarni alohida qayd etishga harakat qilganlar. 1890-yilda Turkiston o'lkasidagi erkaklar gimnaziyasida 1871-yilda tasdiqlangan klassik gimnaziya o'quv rejasi asosida mashg'ulot olib borilar edi. Faqat 1890-yilga kelganda podshoh hukumati tomonidan yangi o'quv rejasi tasdiqlangan edi. 1890-yildan jamoatchilikning bosimi asosida reaksiyon kayfiyatda bo'lgan Chor Rossiyasining Xalq ta'limi vaziri A.Delyanov birmuncha yon berishlarga majbur bo'ldi. Lotin tiliga ajratilgan soatlar 6 soatga, yunon tili 3 soatga qisqartirilib, yangi tillarni o'rganishga 18 soat ajratildi. Tarixga esa 1 soat, geografiyaga 2 soat vaqt ajratildi.

Ayrim demokratik kayfiyatda bo'lgan pedagoglar tarix fanidan talabalarga minimum obyektiv bilimlarni berish lozimligini alohida aytib o'tdilar. Masalan, Turkiston gimnaziya maktabining direktori N.P.Ostroumov tarix fani haqida shunday degan edi: "*o'quvchilar ta-*

rixni oz bo'lsa-da o'rgansalar-u, lekin har tomonlama asoslangan bo'lsin”, deb yozgan edi. XIX asrning 90-yillarida Turkistonda faoliyat ko'rsatib kelayotgan ayrim maktablarda tarix fanini o'qitishni o'sha davr o'quv dasturlari asosida birmuncha takomillashtirilib borayotganliklari, tarixiy materiallarni bir xil takrorlashdan mustasno bo'lib, ularning mazmunlariga qarab guruhlarga bo'lish – diniy, ma'rifiy, madaniy boshqaruv ma'lumotlarni rivojlantirib borishdagi ta'lim elementlarini shakllantirish usullarini qo'llay boshlaganliklarini uchratish mumkin edi. Ayrim o'qituvchilar bilimning ta'limiy doirasini kengaytirib borish yo'lida ham ijodiy faoliyat ko'rsata boshladilar. Lekin bunday tashabbuskor pedagoglar nihoyatda ozchilikni tashkil etar, ularning yangi pedagogik-metodik qarashlari ko'pincha reaksiyon chor hokimiyati tomonidan, ularning taklif-mulohazalari mustamlakachilik bazasiga fidoyilarcha xizmat ko'rsatishdan yiroq bo'lganligi e'tiborga olinmas edi. Shunga qaramasdan, jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang bo'lgan tarix ta'limi va uni qo'llash metodikasida ham ayrim tashabbuslar sodir bo'lib turdi. Masalan, 1887-yilda V.P.Nalivkin Turkistondagi dastlabki «rus-tuzem» maktablarida tarix o'qitishda Rossiya shaharlari bilim yurtlarida qo'llaniladigan Aristovning “Rossiya tarixidan hikoyalar” va Blinovning Tarix fanidan o'qish kitobi sifatida chop etilgan “Pchyolka” (“Asalaricha”) kitobida boshqa kitoblardan ham foydalangan. Ikkinchi jahon urushi yillarida davr talabidan kelib chiqqan holda, o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tarix o'qitishni birmuncha o'zgartirish talab etilar edi. Shu bois Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan sobiq Ittifoqning urush qamrab olgan ko'p hududlaridagi sanoat korxonalari, ilmiy tadqiqot markazlarini O'rta Osiyo va Qozog'istonga ko'chirilishi davrida Moskvada faoliyat yuritgan SSSR FA Tarix institutining bir qator taniqli olimlari ham o'z ilmiy tadqiqot ishlarini Toshkent shahrida davom ettirishlariga to'g'ri kelgan edi. Ular urush yillarida Toshkentda “O'zbekistonning umumta'lim maktablari uchun”, “Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston tarixini o'rganish” deb nomlangan o'quv qo'llanmasining qo'lyozmasini yaratdilar. Ijtimoiy hayot ijtimoiy ongini belgilash oddiy

haqiqatdir. Shunday ekan, Ikkinchi jahon urushi yillarida SSSRning dahshatli urush markazida bo'lishi tarix fanini o'qitish jarayonida yosh avlodni harbiy vatanparvarlik tarbiyasini yuqori saviyada olib borishni taqozo etadi. Shu bois tarix o'qituvchilari o'zlarining pedagogik faoliyatlarida o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng samarali yo'llarini qo'llashni, o'quvchilarni ona Vatanga sadoqatlilik ruhida tarbiyalashning turli metod va vositalarini qo'llashda katta amaliy ishlar olib bordilar. Bu vazifalarni bajarishda tarix fani o'qituvchilari *adabiyot, tasviriy san'at asarlari, kino va teatr san'ati* asarlaridan ham keng foydalandilar. Urush sharoitini hisobga olgan holda yoshlar tarbiyasiga yondashilishi o'quvchilar faolliklarini oshirib borishda ham katta ijobiy ta'sir o'tkazdi. Tarix fani o'qituvchisining tarbiyaviy ishlarida o'quvchilar tomonidan mahalliy jangchilarning frontdan yo'llagan xatlari, gazeta materiallari o'quvchilar tomonidan harbiy vatanparvarlik mavzusida tashkil etilgan kechalar, urush qatnashchilari bilan o'tkazilgan tadbirlar ham katta tarbiyaviy rol o'ynaydi.

SSSRda umumiy sakkiz yillik ta'limga o'tish munosabati bilan sho'rolar hukumati 1959-yil 8-oktabrda "Maktabda tarix fanini o'qitishning ba'zi o'zgarishlari to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda ko'rsatilishicha, 9-sinflarda "SSSR tarixidan tarixiy hikoyalar" o'rganilishi, 5–6-sinflarda "Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi elementar darsi", 7–8-sinflarda esa SSSR tarixining sovet davlatchiligi va ijtimoiy me'yorining eng muhim sohalarini qamrab olgan masalalar, shuningdek, chet mamlakatlar yangi va eng yangi tarixidan kiritilgan eng muhim voqealar kursining o'qitilishi zarurligi ko'rsatilgan. 9–10-sinflarda esa SSSR tarixi, chet mamlakatlar yangi va eng yangi tarixining yo'nalishli kurslarini o'qitilishiga ruxsat berilgan edi. Maktab tarix kurslarining kiritilishi tarix o'qitish metodikasini ma'lum darajada markazlashuvi (konsentratsiyalashuvi)ga olib keldi. Bu hol tarixiy asoslarni tanlash, tarixiy tushunchalarni to'la ifoda, aniq tabaqalashuvida, shuningdek, tarix fanini o'qitishda epizodik hikoyalar va SSSR tarixiga asoslangan kurslarni o'qitishda o'quvchilarga tarixiy

ta'lim izchilligi xususidagi bilish tafakkurlarini shakllantirishda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, tarix o'qitishda joriy qilingan bunday tizim tarix fanini o'qitishni tashkil etishda o'qituvchilar oldida qator murakkab metodik muammolarni keltirib chiqaradi. Umumta'lim maktablarida tarix o'qitishdagi mana shunday kamchiliklar sho'rolar hukumatining 1965-yil 14-mayda "Maktablarda tarix o'qitishdagi o'zgarishlar tartibi to'g'risida"gi yana bir qonunning yaratilishiga turtki bo'ldi. Endilikda 7–10-sinflarda o'rganiladigan SSSR tarixining elementar va sistematik kurslari o'rniga yagona sistematik (muntazam) kurs o'qitiladigan bo'lsa, 8–10-sinflarda yangi va eng yangi tarix kurslari o'qitiladigan bo'ldi. Ushbu qonun talablari asosida maktab tarix darslarining vazifalari va funksiyalari ham birmuncha aniqlandi. Ilgari tarix o'qitishning vazifasi o'quvchilar xotirasida dars jarayonida o'rganilgan materiallarni mustahkamlash bilan chegaralanib qolgan bo'lsa, 60-yillardan umum ta'lim maktablari uchun chiqariladigan tarix fani darsliklarining vazifasi birmuncha takomillashib borib, o'qituvchi uchun darslik o'quvchilarni dars jarayoni va uy vazifalarini bajarish jarayonida ularga zarur qo'llanma funksiyasini ham bajaradigan bo'ldi. Keyingi darsliklarda mualliflar tomonidan kiritilgan matnlar bilan birga, turli tarixiy va zamonaviy hujjatlar, rasmlar, jadvallar, chizmalar, turli-tuman ma'lumotnomalardan xotirasida tarixiy materiallarni chuqur va atroflicha tafakkuretish, ulardan iborat bo'lgan didaktik materiallar keng o'rin olgan edi. Tarix darsliklarida katta paragraflarga, ayrim hollarda rasmlarga muammoli, so'roq, va vazifalarning qo'yilishi o'quvchilarni bir tizimga solish, o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning o'quv faoliyatlariga rahbarlik qilish jarayonini takomillashuviga yordam berdi. Shunday qilib, tarix fani darsliklari o'quvchilarga tegishli ta'lim berish va ular xotiralarida tarixiy bilimlarni mustahkamlabgina qolmasdan, ularning bilimlarini rivojlantirish, turli tarixiy manbalar ustida mustaqil ishlash, o'quv faoliyatlarida o'z bilimlaridan jadal ravishda foydalanib, olayotgan bilimlarini uzluksiz rivojlantirib borish usulining shakllanib borishida ham katta rol o'ynaydi.

Tarix darslarida rivojlantirib boriladigan ta'limning nazariy g'oyasi birinchi marotaba tajribali tarixchi-metodist olimlar F.P.Korovkinning va G.M.Donskoylarning "O'rta asrlar tarixi" darsliklari o'zining to'la ifodasini topgan.

Shunday qilib, tarix fanini o'qitish metodikasi tarixida dunyoda birinchi marotaba hozirgi kungacha foydalanib kelingan "*darsning ta'limiy maqsadi*", "*darsning tarbiyaviy maqsadi*" talablarini takomillashtirib borib, "*darsda rivojlantirilib boriladigan ta'lim*" tamoyili joriy etildi. Shuning uchun mualliflarning o'sha davr tarix fani darsliklari oldiga qo'yilgan ilmiy-metodik va didaktik talablarni me'yorida yoritganliklari 1973-yilda davlat mukofotini olishlariga sabab bo'ldi. 60-yillarida umumta'lim maktablarida SSSR tarixi o'quv dasturining yirik tarixiy davrlarini o'rganish mavzularida "Bizning o'lka" deb nomlangan ma'lum o'quv soatlari o'tkazilgan. Mavzuning kiritilishi o'qituvchi va o'quvchilarga dars jarayonida mahalliy materiallardan foydalanishni faollashtirish hamda ularni dars jarayonida qo'llash metodikasining shakllanishi va takomillashuvida, ayniqsa, tarix ta'limining hayot bilan aloqasini, ba'zi nazariy tamoyillarni amaliyotdagi aksini ko'rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Tarix o'qitish jarayoni qanday yo'llar bilan o'rganiladi?
2. O'quvchilar tarix ta'limi jarayonida qanday bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishadi?
3. Tarixchi-metodist olimlar F.P.Korovkin va G.M.Donskoylarning qaysi davrga oid darsliklari tarixni nazariy jihatdan o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi?
4. Tarix fanini o'qitishda birinchi bo'lib qanday talablar qo'yilgan?

3-MAVZU: TARIX O‘QITISHDA BOSMA MATNLAR BILAN ISHLASH USULI

REJA:

1. Tarix darsligi matnlari ustida ishlash, tushuntirish va izohlash.
2. Siyosiy arboblarning asarlarini o‘rganish va tahlil qilish.
3. Siyosiy hujjatlarni o‘rganish tartibi.

Tayanch so‘z va iboralar: tarix o‘qitishda qo‘llaniladigan matnlar, darslik matni, tarixiy hujjatlar, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar, bosma matnlar, bob, paragraf, obrazli.

Maktabda tarix o‘qitishda qo‘llaniladigan matnlarga–darslik matni, tarixiy hujjatlar, ilmiy-ommabop, badiiy, tarixiy adabiyotlar kiradi. Bosma matnlar o‘quvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo‘lgani kabi o‘qituvchining bilim manbayi og‘zaki bayonining asosini tashkil etadi. O‘qituvchi shu manbalardan to‘g‘ri va unumli foydalangandagina uning bayoni maktabda ta’limning yuksak talablariga javob berishi, o‘qituvchi bayonining o‘quvchilarga tushunarli, mazmunli, maroqli, mafkuraviy va ilmiy jihatdan yuksak, ishonarli, obrazli va ta’sirli bo‘lishi mumkin. Matnlar ustida ishlash o‘quvchilar bilimini kengaytiradi, tarixiy fakt va hodisalarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini chuqurroq tushunib olishlariga yordam beradi, dunyoqarashni shakllantiradi, tarixiy voqealarga obyektiv bo‘lishga o‘rganadi. Maktab o‘quvchilari har xil matnlar ustida ishlab mustaqil ish ko‘rish malakasini hosil qiladilar va tarixiy tadqiqot ishlarining dastlabki materiallari bilan amaliy ravishda tanishadilar.

O‘qituvchi dastur talabiga muvofiq bayon mazmuniga darslik matnini asos qilib oladi. O‘qituvchi o‘zining bayonini boshqa matnlar asosida yanada konkretlashtiradi va boyitadi, darslik matni o‘quvchilarning darsda va darsdan tashqari tarixni o‘rganish, o‘zlashtirish va uni esda saqlab qolish, bilish faoliyatining ijodiy izlanish ishlarini olib borishning muhim manbalaridir. Matn va ulardagi savollar, topshiriqlar tarix kursining mazmunini jiddiy o‘zlashtirishga va olingan bilimlarini

hayotda tatbiq etib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yoʻlidagi ishlariga ham yordam beradi.

Darslik matni ustidagi ishlar oʻquvchi materiallarini oʻzlashtirish va uni esda saqlab qolish, oʻquv matnini tahlil qilish va undan tarixiy voqea hodisalarning muhim belgilarini topish, faktik materiallarni va tarixiy faktlarning muhim belgilarini bir-biriga taqqoslash, konkretlashtirish va umumlashtirish kabi turli xil maqsadlarda olib boriladi. Matn ustida ishlashda xronologiyani tayyor tarixiy tushunchalar taʼrifini oʻzlashtirish va ularni mustaqil aniqlash, darslikda bayon qilingan voqea va hodisalarning rivojlanishini kuzatib borish, konkret tarixiy faktlar va statistik maʼlumotlar asosida ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini bilib olish, mahalliy, vaqtli, sabab-natijali va tarixiy aloqalarning qonuniyatlarini oʻzlashtirish va konkretlashtirish, lugʻat ishlarini, mazmunli suratli rejalar, jadvallar tuzish va boshqa shu kabi uncha murakkab boʻlmagan yozuv va grafika ishlarini olib borish, matn ustida dasturli taʼlim elementlarini amalga oshirish kabi vazifalar ham koʻzda tutilgan.

Maktab tajribasida darslik matni ustida ishlashning quyidagi usullari mavjud:

Tushuntirib va izohlab oʻqish. 6-sinfda qadimgi dunyo tarixini oʻqitishning dastlabki oylarida oʻqituvchi butun mavzu yoki uning biror boʻlimini goh bayon qiladi, goh darslik matnini oʻqib, tushuntirib beradi. Oʻqituvchi matnning murakkab joylariga kelganda hikoyasini toʻxtatib, matnni ovoz chiqarib oxirigacha oʻqib beradi, oʻquvchilar esa matnga qarab kuzatib borishadi, tushunish oson boʻlgan joylarni oʻquvchilarning oʻzlariga ham oʻqitish mumkin. Matnni oʻqish jarayonidayoq uning mazmunini oʻquvchilarning tushunish darajasi tekshiriladi. Oʻqituvchi dars davomida oʻquvchilarga savollar berib darslik matniga tez-tez murojaat qilib, undan yangi iboralar, atamalarni, qiyin jumlar mazmunini tushuntirib beradi, bu bilan oʻquvchilarni darslik matnini eʼtibor berib, tushunib oʻqishga oʻrgatadi, ularning uyda darslik ustida mustaqil ishlashlariga tayyorlaydi. Oʻquvchilarni tarixiy materiallariga tushunib, matnni oʻqishda maʼlum darajada malaka hosil qilganlaridan

keyin matnning eng muhim va qiyin joylarini izohlab o‘qishga o‘tiladi. Izohli o‘qish ham o‘qituvchining bayoni bilan birga olib boriladi. O‘qituvchining o‘z bayoni davomida darslik matnini xususan matndagi ayrim murakkab joylarni izohli o‘qish usuli, hatto yuqori sinflarda ham qo‘llaniladi.

O‘qituvchining o‘z bayonida o‘quvchilar diqqatini darslik matnidagi ayrim jumlar va iboralar jalb etadi. O‘qituvchi ba’zi jumla va tushunchalarning mohiyatini qurib chiqish paytida o‘quvchilarning diqqatini darslikdagi ibora va tushunchalarga tortib, agar zarur bo‘lsa ularning mazmunini tushuntirib beradi, o‘quvchilarning mavjud bilimlariga suyanib, bu tushunchalarning umumiy xislatlarini, farqlarini, sabab-natijalarini, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni hamda qonuniyatlarini o‘zlashtirib olishlarida yordam ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchilar bilim olishining har uchala manbayi: og‘zaki bayon, matn ustida ishlash, ko‘rgazmalilik va amaliy ishlar metodi ishtirok etadi. Darslik matni mazmunini o‘zlashtirishda uning har bir paragrafini tahlil qilish va ular ustida o‘quvchilarning mulohaza yuritishi katta ahamiyatga egadir. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarni darsda o‘tilayotgan paragraf matnida qo‘yilgan muammolarni va uning tematik strukturasi ajratib berishni topshiradi.

O‘quvchilar bob, paragraf va undagi punktlarni bir-biridan ajrata bilishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi yangi materialni bayon qilishdan oldin o‘quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik sarlavhalarni o‘qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasi bilan tanishtiradi, ularning mazmuni va ifodalanishdagi tafovutlarning sabablarini izohlab beradi. O‘qituvchi o‘zining bayoni davomida kichik sarlavhalar ichidagi mavzularga takror-takror qaytishi mumkin ayniqsa, yangi tushunchalarga duch kelinganda shunday bo‘ladi.

Darslik matni mazmunini bevosita o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar bu darslik matni ustida olib boriladigan ishning markaziy masalasidir. Bu ishlar matnni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy faktlarga baho berish, ular o‘rtasidagi sabab va boshqa aloqalarni ochib

ko'rsatish va ularni taqqoslashdan iboratdir. Bu ishlar quyidagi metodik usullar bilan:

a) har bir paragraf yoki kichik mavzu mazmunining eng muhim masalalari yuzasidan kontrol so'roqlar tuzdirish yo'li bilan;

b) o'qituvchi bergan savollarga o'quvchilarning darslik matnida javob topish yo'li bilan;

d) darslik matnida o'qituvchining xulosasini tasdiqlovchi faktlarni toptirish yo'li bilan;

e) darslik matnida bayon etilgan voqealar bir-biriga o'xshashligini, farqlarini aniqlash yo'li bilan;

f) tasdiqlab berishning talab qiladigan vazifalar bilan amalga oshiriladi.

Darslik matni ustida ishlashning muhim elementidan biri o'quvchilarni uyida ishlash uchun beriladigan vazifasini bajarishga o'rgatishdir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun topshirilgan vazifaning mazmunini va uni bajarish yo'lini yaxshi anglab olishlari shart. Binobarin, o'qituvchi uy vazifasini topshirishda, uning xarakterini belgilashda o'quvchilarning bilim va malakalarini e'tiborga olish, har gal beriladigan vazifa oldindan ko'ra murakkab bo'lishi va shu bilan ularning bilimlari va malakalarini oshirib borishga xizmat qilishi lozim. Reja tuzish va shunga muvofiq hikoya qilishga o'rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish, jadval, sxema, diagrammalar tuzdirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish, uy vazifasini jiddiy va mustaqil bajarish namunalaridir.

O'quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o'rgatish ham ta'limning muhim elementidir.

O'quvchilar aktiv aqliy faoliyatining muhim metodlaridan biri ularning o'qituvchi bayon qilgan yangi materiallarni o'zlashtirishda mavjud bilimlarini ishga sola bilishdir. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana bilishga o'rgatish lozim. O'quvchilar olgan bilimlarini esdan chiqarib yubormasliklari uchun vaqti-vaqti bilan ularning e'tibori darslik matniga qaratiladi.

Uyda ishlab kelish uchun berilgan topshiriqlarni o'quvchilar qanday bajarganliklarini tekshirishda ma'lum bo'lgan og'zaki yoki yozma javoblaridagi xatolarni, aniqsizliklarni to'g'rilash uchun ham darslik matniga murojaat qilinadi. Shunday qilib, darslik matni ustidagi ishlar turli xil metodik usullar yordamida, o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida—materialni o'zlashtirish darajasini tekshirish paytlarida olib boriladi va hokazo.

Darslik matni ustida olib boriladigan ishlar o'qituvchi bayonini mazmunan boyitadi, faolligini oshiradi, o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtiradi va ularning darslik matnini osonroq va puxta o'zlashtirib olishlariga yordam beradi, mustaqil bilish, malaka va qobiliyatlarni o'stiradi.

Tarixiy hujjatlar bilan ishlash. Tarixiy hujjatlar tarix fani uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda tarix o'qitilishida hujjatlardan foydalanish tarixi Rossiya bilan bog'liq XX asrning 60-yillarida Stasyulevich va boshqa ilg'or o'qituvchi hamda metodistlar o'qitishni tarixiy hujjatlar asosida mustaqil o'rganishning real metodini taklif etib, uni o'sha vaqtdagi darsliklar asosida o'qitish usuliga qarama-qarshi qo'ydilar.

XX asr boshlariga kelib tarixiy hujjatlarni mustaqil o'rganish g'oyasini metodist N.Rojkov davom ettirib tarixni manbalar asosida o'rganishning "laboratoriya" metodini olg'a surdi. Bu mavjud reaksiya mazmundagi darsliklarni yodlashtirish tizimiga nisbatan progressiv ahamiyatga ega. Lekin bu metodning ham o'ziga yarasha kamchiliklari bor edi. Masalan, bu o'quvchilarning mustaqil o'rganishiga ortiqcha baho berish edi. 1934-yildan keyin sho'ro tarixchi metodist olimlari hujjatlar bilan ishlashni o'qitishning bosh metodi ekanligini inkor qilish bilan birga o'qitishning usullaridan biri ekanligini ta'kidladilar.

Tarixiy hujjat avvalo, o'qituvchi bayonini konkretlashtirish, chuqurlashtirish va unga aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi, bayonning emotsional va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi, tarixiy voqealarni gavdalashtirish va tasvirlashga yordam beradi. Hujjat ustida ishlash o'quvchilarni faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda aniqlash va

o‘rganish, xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Shu bilan birga hujjat ma’lum bir vaziyatni aniqlashga, uning xarakterini, ahamiyatini bilib olishga, tarixiy xolislik asosida tushunishga yordam beradi, ular (o‘quvchilar)ning bilish faoliyatini, fikrlashini aktivlashtiradi. Hujjatlar ustida ishlashning yana bir muhim tomoni shundaki, o‘quvchilarni tarixiy tadqiqot metodlarining elementlari bilan tanishtiradi hamda ularni tarixiy hujjatlarga tanqidiy qarashga o‘rgatadi.

Maktabda ta’limning yangi mazmuni amalga oshirilishi munosabati bilan tarix o‘qitishda tarixiy hujjatlarning roli yanada oshdi. Yangi dasturda yozilgan darsliklar mazmunining asosiy qismini tashkil etadi. Darslikdagi tarixiy hujjatlar har bir sinfdagi o‘quvchilarning yoshi, bilim saviyasi, o‘sha sinfda o‘rganiladigan tarix kursining xususiyatlariga qarab kiritilgan. Shu sababli darsliklardagi tarixiy hujjatlar o‘zlarining xarakteri, ko‘lami, mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, 6-sinf jahon tarixiga kiritilgan hujjatli manbalar 3 guruhga bo‘linadi:

1. Moddiy madaniyat buyumlari bizgacha saqlanib kelayotgan yoki ilmiy asosda qayta tiklangan burungi mehnat qurollari, qurol-yaroqlar, zeb-ziynat buyumlari, uy-ro‘zg‘or anjomlari, turar joylar, qo‘rg‘onlar, maqbaralar, qadimgi shahar xarobalari va boshqalar.

2. Tasviriy san’at asarlari moddiy voqelikni, odamlar va ularning bir-biriga munosabatini, hamda ularni tevarak atrofidagi narsalarni, har xil buyumlarni, geografik muhitni bevosita tasvirlab beruvchi asarlar, odamlarning har xil xudolar, ruh-arvohlar, jinlar, alvastilar, afsonaviy qahramonlar, devlar va hokazolar haqidagi xayoliy tasavvurlarni aks ettiruvchi asarlar.

3. Yozma manbalar – qonuniyatlar ishlariga doir yozuvlar, shartnomalar xizmat vazifasiga oid yozishmalar, siyosiy nutqlar, sud hukmlari, yilnomalar xronikalar, memuarlar, shahar va mamlakatlar tasvirlab yozilgan asarlar, xatlar va yozuvlar kiradi. O‘quvchilarning yoshiga qarab darslikdagi hujjatli materiallarning xarakteri o‘zgarib, ko‘lami ortib, murakkablashib boradi. Sho‘rolar davrida tarixiy hujjatlardan foydalanishda marksistik-leninistik ruhdagi hujjatlar juda ko‘p ishlatilgan. Aslida yuqori sinfga o‘tgach darsliklarda hikoya va tasviriy

xarakterdagi hujjatlarning salmog‘i kamayib, xo‘jalik va yuridik xarakteridagi hujjatlarning salmog‘i ko‘paytiriladi. Maktablarda tarix o‘qitish tajribasida tarixiy hujjatlar bilan ishlashning asosiy ikki usuli mavjud: tarixiy hujjatlardan o‘qituvchi bayonida foydalanish va o‘quvchilarning matn ustida ishlashi.

Tarixiy hujjatlar ustida ishlashning turli usullari mavjud. O‘qituvchi tarixiy hujjatni o‘zi tahlil qilib berish mumkin. Tarixiy hujjatlarni o‘qituvchining bevosita rahbarligida o‘quvchilar darsda tahlil qilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga ma‘lum hujjatlarni uyda mustaqil tahlil qilib kelishini topshirishi mumkin.

Tushunish qiyin bo‘lgan murakkab tarixiy hujjatlarni o‘qituvchining o‘zi o‘qiydi, tahlil qilib izohlab beradi. O‘quvchilar matnini kuzatib borishadi va o‘qituvchi tushuntirishlarini diqqat bilan kuzatib tinglaydi.

6–7-sinflarda o‘qituvchi hujjatlarni o‘zi o‘qib tahlil qilib beradi, ammo shu bilan birga o‘quvchilarni hujjatlar bilan ishlashga ham o‘rgatadi. Yuqori sinf o‘quvchilarini ko‘proq memuar xarakterdagi materiallar, tarixiy voqealarning zamondoshlari va ishtirokchilari bergan ma‘lumotlar qiziqtiradi. Yuqori sinflarda o‘quvchilarning mustaqil ishlashga talab ortib boradi. Shu sababli ular tarixiy hujjatlar asosida o‘quvchilar qisqacha axborot, referat, hikoyalar, insho va boshqa grafik ishlarni bajarishlari mumkin bo‘ladi. Bu ular uchun mustaqil ijodiy ish bo‘ladi.

Badiiy adabiyot o‘quvchilarni tarixiy o‘tmish bilan tanishtirishning muhim manbalaridan biridir. Maktab tajribasida badiiy adabiyotdan darsda, sinfdan tashqari foydalaniladi va o‘quvchilarga mustaqil o‘qishga tavsiya etiladi. Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o‘qituvchi bayonining ko‘rgazmaliligini ta‘minlaydi, uni konkretlash-tiradi, o‘quvchilarda o‘tmish haqida jonli tasavvur hosil qiladi. Badiiy adabiyotning roli bu bilan tugamaydi.

Ma‘lum davrning ijtimoiy hodisalarini real aks ettiruvchi haqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o‘sha ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalaydi.

O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan namunalar bayonning emotsional bo'lishini ham ta'minlaydi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayrixohlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki hayrat tug'diradi, ular ongida insonparvarlik prinsiplarini shakllantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tarix o'qitishda foydalaniladigan badiiy adabiyotlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- O'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklari.
- Tarixiy belletristik asarlar.

O'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklariga tarixiy hodisa va voqealarni o'z zamondoshlari yozib qoldirgan asarlar kiradi. Bu guruhga kirgan asarlar tarix fani uchun o'tmishning o'ziga xos manbayi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyot yodgorliklari yozib olingan og'zaki ijodiyot asarlarini: afsonalar, dostonlar, qo'shiqlar, masallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlarning juda ko'pida voqeiylik qayta-qayta ishlangan, xalq fantaziyasi bilan boyitilgan va bezatilgan bo'ladi. Sinfy jamiyatda mualliflar tarixiy voqelikni o'z sinfiy manfaatlari nuqtai-nazaridan yoritganlar. Mualliflar ko'pincha o'z muxoliflarini, dushmanlarini masxara qilib ularni nihoyatda kulgili qiyofada tasvirlaganlar, ammo yuqori martabali biror odamga yaxshi ko'rinmoqchi bo'lsa unga o'zida yo'q fazilatlar berganlar, ko'klarga ko'tarib maqtaganlar. Voqelikni obyektiv suratda tasvirlangan asarlar, yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan taqdirda uzoq o'tmishni, masalan, Qadimgi Yunoniston tarixini yoritib berishda ana shunday asarlardan ham tanqidiy yondashib foydalanish mumkin. Gomer davridagi jamiyat tarixi Gomer dostonlaridan va qisman Yunon afsonalaridan olingan epizodlarni tahlil qilish asosida ta'riflab beriladi.

Badiiy yodgorliklarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o'z zamonidagi jamiyatning ideologiyasini aks ettiradi va buni o'quvchilarning tushunib olishlariga tarixiy hodisalar va arboblarning yorqin badiiy obrazlarini ravshan tasavvur qilishlariga yordam beradi. Shu

bilan birga o‘quvchilar badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi roli bilan ham aniq misollarda tanishadilar.

Masalan, “Roland haqida qo‘shiq” nomli asarda Karlning o‘zi va uning jangchilari ideallashtirilib, u olib borgan urushlar tarixi buzib ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, bu asar ritsarlarning mardligi, o‘z senyoriga sodiqligi, fidokorligi bilan, shuningdek, o‘rta asrlar adabiyotining ana shu turi bilan tanishtiradi. “Roland haqida qo‘shiq” shu adabiyot turining eng yaqqol namunasidir. Roland uydirma obraz bo‘lsa-da undagi ajoyib fazilatlar o‘quvchilarga ijobiy tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘rta asrlarda yaratilgan “Tulki haqida roman”dan shaharliklarning feodallarga munosabatini, ular o‘rtasida keskinlashib borayotgan kurashni hamda uni yoritishda satiradan qanday foydalanilganligini o‘quvchilar tushunib oladi.

Qadimgi dunyo va o‘rta asrlarda yaratilgan afsonalardan, qahramonlik dostonlari va boshqa adabiy asarlardan tarix darslarida foydalanilganda, o‘quvchilarga bu asarlarga tanqidiy ko‘z bilan qarashga o‘rgatib borish kerak. Shuningdek, ularga bu asarlar o‘tmishdan qolgan badiiy yodgorliklar ekanligini, ulardan o‘sha davrlarda bo‘lib o‘tgan voqealarga oid ba‘zi ma‘lumotlardan foydalanish va qay tariqa foydalanish mumkinligini, bu asarlarning qaysi joyi uydirma va qaysi joylarida real voqelik aks etganini tushuntirish lozim.

Belletristik asarlarga–tarixiy romanlar, tarixiy mavzularda yozilgan povestlar, o‘rganiladigan davr haqidagi badiiy asarlar, hikoyalar kiradi. Bu asarlar tarixiy manbalar, memuarlar va hujjatlar, ilmiy tekshirish ishlari va monografiyalarni o‘rganish asosida yozilgan bo‘lib, ularda o‘tmish voqealari badiiy tasvirlar va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi.

Belletristika tarix fani uchun hujjatli manba bo‘la olmasa-da, o‘quvchilarga o‘tmishni konkret tushuntirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy roman va povestlarni o‘qish natijasida o‘quvchilarda tarixga qiziqish uyg‘otadi.

O‘rganilayotgan davrga doir adabiy yodgorliklar tarix darslarida ko‘pincha dars materialini xulosalash va umumlashtirish uchun asos

bo‘lib xizmat qiladi. Belletristika bayon qilinayotgan o‘quv materialini konkretlashtirishga va bayonni maroqli qilishga yordam beradi. O‘qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta’lim-tarbiya jihatidan qimmatini tarixiy hodisalarning naqadar real va ilmiy qilib yoritilganligini e’tiborga oladi.

O‘qituvchi tarix darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotdan:

- a) maktab dasturida ko‘zda tutilgan tarixiy voqealarning tasviriga;
- b) tarixiy arboblarning va xalq ommasi vakillarining obrazlarini, xalq ommasining rolini ko‘rsatishga;
- d) muhim tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan joylarni va u yerlarning konkret sharoitini tasvirlashga va shu kabilarga bag‘ishlangan asarlarni tanlaydi.

Yuz yillik urushda Fransiyaning ahvoli Jan de Vennett xronikasida: “Shu yili uzumzorlar qarovsiz qolib ketdi; dalalar haydalmadi, ho‘kiz va qo‘ylar yaylovlarga chiqmadi; cherkovlar va uylar hamon tutuni burqsitib turgan g‘amgin xarobalar uyumiga o‘xshab qolgan edi” deb tasvirlanadi.

O‘qituvchi o‘z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o‘quvchilarni sinfda va sinfdan tashqari badiiy asarlarni o‘qishlari ustida olib boradigan ishlariga doim kontrollik va rahbarlik qilib boradi.

Tarixni o‘rganishda fakt muhim rol o‘ynaydi. Chunki, faktlar nazariy xulosalar chiqarish va umumlashtirishlarda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarix faktlar bilan to‘la. Shunday ekan, biz tarix darslarida tarixiy faktlarni tanlashda quyidagi talablarga rioya etmog‘imiz lozim:

1. Faktlar ilmiy jihatdan atroflicha asoslangan bo‘lishi kerak.
2. Tanlangan faktlar tarixiy jarayonni tushunishda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmog‘i kerak.
3. Tanlangan faktlar maksimum aniq va obrazli bo‘lsin.
4. Tanlangan faktlar o‘quvchilarni mustaqil tafakkur etishga, uning mohiyatiga baho berishga yo‘naltirilgan bo‘lmog‘i kerak.

Shu narsa muhimki, o‘qituvchi dars jarayonida faktlarni tanlashda o‘quvchilarning yoshlarini albatta hisobga olmog‘i kerak. Masalan, 6-

9-sinflarda faktlar ko‘proq obrazli shaklda tanlansa, yuqori sinflarga kelganda tanlanadigan faktlar o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradigan bo‘lsin (masalan, faktlarni davlat hujjatlari, Birinchi Prezident Islom Karimov asarlari, nutqlari yoki ommaviy axborot vositalariga bergan intervyularidan foydalanish o‘qituvchiga tarix darsini davr talabi asosida olib borish yo‘lidagi muammolar yechimidagi faol ishtirokini ta’minlaydi).

O‘quvchilar fakt o‘rtasidagi uzviy aloqadorlilarni qanchalik puxta o‘zlashtirsalar, ularning faktlar asosida olgan bilimlari shunday sistemalashtirib boradi. Chunki, ular har bir darsda oldingi darslardan o‘rgangan faktlardan kelib chiqadigan nazariy xulosalarga ega bo‘lib boradilar. Xuddi mana shu metodik qonuniyat hisobga olingan holda dars tuzilishida:

- a) “Darsning ta’limiy maqsadi”;
- b) “Darsning tarbiyaviy maqsadi degan” talablardan keyin;
- d) “Darsda rivojlantirib boriladigan ta’lim” talabining tarix o‘qitish metodikasi nazariyasining ajralmas qismi bo‘lib kelayotgan talablar mavjud.

Tarixiy bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirib borish—bu tarixiy ilmiy asoslar tushunishning asosiy quroli. Tarixiy bilimlarni shakllantirish bilmagan narsadan uni bilib olishga, to‘la bo‘lmagan, yuzaki, bir-birlari bilan bog‘lanmagan bilimlardan nisbatan to‘la bilimlarga erishish, chuqur ongli ravishda anglab olgan, sistemalashtirgan, kundalik amaliy faoliyatda qo‘llanishi lozim bo‘lgan bilimlarni egallash yo‘lidagi harakatni ifoda etadi.

Bilish dialektikasi shunday: u tarixiy faktlar to‘g‘risidagi aniq, obrazlarni yaratish, ya’ni tarixiy tasavvurni yaratishdan boshlanadi. Tarix o‘qituvchisi har bir darsda mana shu metodik talabni mahorat bilan qo‘llamog‘i kerak. Bu borada klassik pedagogika vakili Q.D. Ushinskiy, sho‘rolar davri tarixchi-metodist olimlari N.V. Andreyevskaya, V.N. Vernadskiy, A.I. Strajev, A.A. Vagin, P.V. Gora va boshqalar asarlarida tarixiy tushunchalarni faktlar vositasida bilish jarayoni o‘zning atroflicha bayonini topgan.

Tarix o‘rganish jarayonida tarixiy tasavvurlarning uch xil turini ko‘ramiz. Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, tarixiy tasavvurlarning roli va turlarini bilishni o‘zigina kifoya etilmasdan, balki ularni, ya’ni tarixiy tasavvurlarni yaratish bo‘yicha qilinadigan ishlar metodikasini ham atroflicha egallamoq kerak. Tarixiy tasavvur hamma yoshdagi o‘quvchilarda ham shakllantirilib borilsada, ularni detallashtirish darajasi turlichadir. Masalan, 5–7-sinflarda tarix o‘qitish jarayonida ko‘rgazmali obrazlarni qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi (N.V. Gora). Bu narsa shu bilan aloqadorki, bu sinflardagi o‘quvchilarda tarixiy bilim zaxiralari birmuncha sayoz, shuning uchun ham adektiv, ya’ni o‘xshash davrlarning obrazlari yaratilishi kerak. O‘rta sinflarda (5–7) bu masalaga loqaydlik bilan qarash tarix o‘rganishni davr talabi darajasida boyitilishiga putur yetkazadi.

O‘quvchilarda tarixiy tasavvurni shakllantirishda illyustratsiyalar ko‘rgazmali qurollar, sxemalar, shuningdek, mavzuviy kartalarning roli beqiyos kattadir.

Yana bir masala. Tarix har doim makon va zamonda sodir bo‘ladi. Bunda tarix o‘qitish metodikasi talablaridan biri – “Davrlar lentasi”dan foydalanish dars samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir. Masalan, Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining vujudga kelishi, shakllanish, takomillashib borish jarayoni, “O‘zbek modeli” respublikamiz an’analariga ko‘ra mustaqillikka erishgandan buyon har bir yilni ma’lum umumdavlat muammosini hal etishga bag‘ishlanganligidir (2001-yil – “Onalar va bolalar yili”, 2002-yil – “Qariyalarni qadrlash yili”, 2003-yil – “Obod mahalla yili”, 2004-yil – “Mehr va muruvvat yili”, 2005-yil – “Sihat-salomatlik yili”, 2006-yil – “Homiylar va shifokorlar yili”, 2007-yil – “Ijtimoiy himoya yili”, 2008-yil – “Yoshlar yili”, 2009-yil – “Qishloq farovonligi va taraqqiyoti yili”, 2010-yil – “Barkamol avlod yili”).

Maktab tarix kursidagi xronologik sanalar o‘zlarining mohiyatlari bo‘yicha turlarini quyidagicha keltirib o‘tishimiz mumkin bo‘ladi.

Bular:

1. *Asosiy sanalar*, qaysiki o‘quvchilar xotiralarida saqlanib turishi kerak. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan sana, “Mustaqillik

Deklaratsiyasi”ning qabul qilinishi, “Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi”ning qabul qilinishi, “O‘zbekistonning BMTga qabul qilinishi” va h.k.

2. *Tayanch sanalar*, tarix kursining ma’lum davrini o‘rganishda esda saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan sanalar. Yana bir misolda Birinchi jahon urushini keltirib chiqargan “sabab” va “bahona”lar xususida to‘xtalib o‘tish ham har ikki jahon urushini ma’lum darajalarda solishtirib o‘tishga imkon beradi. Mazkur o‘rinda Avstriya-Vengriya taxtining merosxo‘ri shahzoda Frans Ferdinandning o‘ldirilishi bilan aloqador bo‘lgan faktni yoritib berish talabga muvofiq bo‘lar edi.

3. *Tayanch sanalar* va ikkinchi darajali faktlar bilan aloqa o‘rnatadigan sanalardir.

Fikrimizcha, ona Vatanimiz tarixiga aloqador bo‘lgan, shunday fikr-mulohazalar, turli yo‘nalishda berilgan baholar borki, biz ularning bugungi talaba yoshlarimizga xalqimizning bosib o‘tgan mashaqqatli tarixiy yo‘llari qanchalik achchiq bo‘lgan bo‘lmasin, ularning tarixiy faktlar asosida shundayligicha sharhlab bermog‘imiz lozim. Bu borada “O‘zbekiston tarixi” kursida qator mavzularni o‘rganishda tarixiy faktlar asosida milliy mustaqilligimizni qo‘lga kiritganligimizga qadar o‘zbek xalqi chet el bosqinchilari tomonidan qanchalik kamsitilib kelinganligini umumiy so‘zlar bilan emas, balki aniq tarixiy faktlar asosida yoritib bermog‘imiz lozim. Afsuski, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun “O‘zbekiston tarixi”dan mavjud bo‘lgan o‘quv dasturlarida mualliflarning tarix o‘qitish metodikasiga bo‘lgan ilmiy-nazariy talablardan yiroqliklari bois, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari O‘zbekiston tarixini o‘rganishga bo‘lgan uzviylik, ya’ni talabalarning 7–8–9-sinflarda O‘zbekiston tarixidan olgan bilimlariga integratsion yondashishni amalga oshirib, tarix ta’limini bir butun holda o‘zlashtirishlariga imkon berayotir. O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslari va hatto institutlarida esa bunday kamchiliklar yanada chuqurlashib bormoqda. Natijada talabalarimizda ko‘p hollarda Vatanimizda sodir bo‘lgan u yoki bu tarixiy fojining sabab-oqibatlarini aniq tarixiy faktlar asosida ko‘rsatib, ilmiy asosda tushuntirib berish imkoniyatidan, to‘la bilim va tasavvurni shakllantirmasdan, ko‘p hollarda tarixiy mavzulardagi bosh g‘oyalar,

tayanch tushunchalari professor V.F.Shatalov iborasi bilan aytganda, “har bir mavzudagi tayanch signallar albatta o‘z o‘rnida maqsadga muvofiq holda foydalanishi kerak bo‘lgani holda, biz o‘quvchi yoshlarga tarixiy voqealar, ularni keltirib chiqargan sabab, natijalar, ularga rahbarlik qilgan tarixiy shaxslar xususida tarixiy bilimlardan mutlaq yiroq bo‘lgan umumiy so‘zlar bilan kifoyalanib kelyapmiz”.

Shu narsani yana bir karra eslatib o‘tishimiz joizki, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotidan kutilayotgan natijalar–bu mamlakatimizda huquqiy, demokratik, fuqarolik jamiyat qurishdek oliy maqsaddan iboratdir. Shunday ekan, ana shu maqsadga erishmoqning asl ilmiy yo‘li bugungi kunda ayrim davlat arboblari tomonidan ayyuhannos solib “demokratiya” deyilmish muqaddas tuzumni zo‘ravonlik bilan bugungi Afg‘oniston yoki Iroq mamlakatlarida sobiq Ittifoq hududida “Zarg‘aldoq inqilob” degan xunuk nom olgan harakatlar natijasida vujudga kelgan Gruziya, Ukraina davlatlari hayotida sodir bo‘lib, zo‘rma-zo‘raki “rivojlantirish” yo‘llaridan mutlaq farq etgan holda, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda “Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng Oliy qadriyat” mavzusidagi ma’ruzasida bayon etilgan. Biz erishmoqchi va yaratmoqchi bo‘lgan demokratiyaning belgilari aniq faktlar asosida atroflicha tushuntirilib, har bir talaba-yoshlarimizning ong-u shuuriga to‘la yetkazib borilmog‘i kerak.

Savol va topshiriqlar

1. Tarixiy hujjatlar ustida ishlashning ahamiyati qanday?
2. Bosma matnlarga yozilgan adabiyotlarni tushuntirib va izohlab bering.
3. Tarixiy faktlar bilan ishlash usullari haqida misollar keltiring.

4-MAVZU: TARIX TA'LIMINING AMALIY USULLARI

REJA:

1. Ko'rsatmali qurollar tarixiy bilimlarning muhim manbayi va uni konkretlashtirish vositasi.
2. Tarix o'qitishdan qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar klassifikatsiyasi.
3. Ko'rgazmali quroldan foydalanishning metodik usuli.
4. Kartinalar bilan ishlash.
5. Illyustratsiyalar bilan ishlash.
6. Karta bilan ishlash.

Tayanch so'z va iboralar: ko'rsatmalilik, xarita, kitob, illyustratsiya va romlar. Texnika vositalari televizor. Video apparatura va hokazolar.

Ko'rsatmalilik deganda avvalo, o'qitish va o'rganishning ko'rgazmali usuli, o'qituvchi bayonining ko'rgazmali bo'lishi, uning o'quvchilardan tayyor qurollardan foydalanish va ko'rgazmali qurol vositasida o'quvchilarning faoliyatini aktivlashtirish hamda ularning o'rganilayotgan tarixiy faktlarini, voqea va hodisalarni aynan o'zini yoki ularning tasvirlarini ko'rish yordamida o'rganishlari tushuniladi.

Tarixiy hujjatlar yoki badiiy adabiyotlardan foydalanish o'qituvchi bayonini obrazli qilib konkretlashtirsa ko'rgazmali qurol yordamida o'quvchilarda o'tmish to'g'risida yorqin va aniq tasavvur hosil bo'ladi, o'quvchilarning eshitish faoliyatiga ko'rish va sezish organlarining faoliyati ham qo'shiladi.

Tarix o'qitilishi ko'rgazmali bo'lishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Avvalo ko'rgazmali qurol o'quvchilarning bilim olishida muhim manba bo'ladi. O'qituvchining bayoni har qancha to'liq bo'lganda ham o'quvchilarni voqealar to'g'risidagi tasavvurlari to'la bo'lmaydi. Masalan, XVIII asr boshlarida Rossiyada qurilgan dengiz kemalarining tasvirlari yoki modellarini ko'rmay turib, u kemalarini o'sha vaqtda dengiz joyi manzarasini ko'rmay turib real tasavvur qilib

bo'lmaydi. Shuningdek, illyustratsiyalardan foydalanmay turib, o'rganilayotgan davrning manzarasini ham to'la, aniq va chuqur tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ko'rgazmali qurol o'quvchilarda tarixiy tushunchalarni shakllantirishga ularning nazariy xulosalari va umumlashgan yakunlarini ijtimoiy rivojlanishi obyektiv qonunlarining o'zaro aloqalarini yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi. Shuningdek, estetik jihatdan xizmat qiladi. Shunday qilib, ko'rsatmalilik metodi.

1. Tarixiy bilimlarning asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

2. O'quv materiallarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

3. O'qituvchi bayonining konkret, obraz va emotsional bo'lishiga yordam beradi.

4. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'rganishga qiziqishini oshiradi va ularning bilish faoliyatini aktivlashtiradi.

5. O'qituvchi bayoni va uning darsda qo'llangan boshqa o'quv usullarining o'quvchilarni tushunib olishini yengillashtiradi.

6. O'quvchilarning fikrlash faoliyatini va iqtisodiy qobiliyatini o'stiradi.

7. O'quvchilar bilimining konkret, chuqurroq va mustaqil bo'lishiga yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar o'qitilishining mazmuni va tarixiy obrazlarining xarakterlari, ularning tayyorlash texnikasi va foydalanish usullariga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Predmet ko'rsatmalilik: tarixiy yodgorliklar, esdalik joylari arxitektura yodgorliklarini, mehnat qurollari, qurol-yaroqlar, ro'zg'or buyumlari, shu jumladan, arxeologik topilmalar.

2. Tarixiy ko'rsatmalar o'qitishda foydalanish uchun ishlangan tarixiy kartinalar va albomlar san'at asarlari, portretlar, rasmlar, fotohujjatlar va fotokopiyalar darsliklardagi illyustratsiyalar, kinofilm, har xil model va b.

3. Shartli ko‘rgazmali qurollar. Tarixiy va kontur kartalar, tarixiy atlaslar, sxemalar, grafika, diagramma, kartogrammalar va pedagogik rasmlar.

Ko‘rgazmali qurollarni tanlash va ulardan foydalanishda o‘qituvchi quyidagilarni e‘tiborga olishi lozim:

1. O‘quvchilarning bilimi, yoshi va malakalari o‘tib borgan sari ularning predmet va tasviriy ko‘rsatmalarga qiziqishi ortib boradi. Masalan, 5–6-sinf o‘quvchilarini ko‘proq o‘tmishdagi voqealar va hodisalarning yaxlit manzaralari tasvirlangan kartinalar, maketlari va modellari qiziqtiradi. Yuqori sinf o‘quvchilarini esa predmet yodgorliklarining aynan o‘zi va shartli ko‘rsatmalar qiziqtiradi.

2. Har bir dars uchun tanlangan ko‘rgazmali qurol mazmuni, tasvirligi, ilmiyligi jihatdan talabga javob beradigan bo‘lishi kerak, soni ko‘paytirib yuborilmasligi lozim. Agarda ko‘rgazmali qurol ko‘payib ketsa o‘quvchilar va o‘qituvchi shu qurollar bilan ovora bo‘lib qolib, o‘quvchilarning dars materialini o‘zlashtirishlariga xalaqit berishi mumkin. Darsda eng muhim 2–3 ta ko‘rgazmali qurolini tahlil qilish va o‘rganish kifoya.

3. O‘quvchilarning ko‘rgazmali qurollarini ongli rivojiga puxta o‘zlashtirib olishiga erishish kerak bo‘lishi uchun o‘qituvchi Poltava jangining sxematik planini tushuntirishdan oldin, o‘quvchilarni Karl XII ning Rossiyaga yurishi, Ukraina hududida olib borilgan janglar bilan tanishtiradi. So‘ngra jang sxemasini devorga ilib qo‘yadi va uni bo‘limlarga bo‘lib, o‘quvchilarga har bir bo‘limini alohida tushuntiradi.

4. Ko‘rgazmali qurollar o‘qituvchining bayoni jarayonida ko‘rsatib boriladi. Tarix o‘qitishda qo‘llanadigan tasviriy ko‘rgazmali vositalar ichida o‘quv kartinalari muhim o‘rin tutadi. Kartinalar o‘rganilayotgan voqealar va hodisalar haqida o‘quvchilarda yorqin tasavvur hosil bo‘lishiga yordam beradi. Tarixiy mavzudagi kartinalar sujeti va xarakterlariga qarab turlarga bo‘linadi:

1. Voqelik kartinalari. Ularda muhim voqealar, ijtimoiy hayotdagi noyob fakt, harbiy harakatlar va revolutsion voqealar yoritiladi. Masalan, “Salamin jangi”, bu kartinalar o‘quvchilarga voqeali yorqin

hikoya qilib berilishi, voqeali rivojlanishi va undan dramatismni ochib berishni talab etadi. Shunday kartinalar o'quvchilarga axloqiy va g'oyaviy-siyosiy ta'sir etishi mumkin.

2. O'rganilayotgan davr uchun to'liq bo'lgan voqealarni aks ettiruvchi kartina. Masalan, "Qadimgi Gretsiyada qul savdosi" kartinaning bu turi katta voqeali yoki uning ko'rinishini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan hamma savollarga javob beradi. Ular ustida o'quvchilarning aktiv mustaqil ishlarini tashkil etish ham mumkin.

3. Qadimgi shaharlar qurilishlari, arxitektura yodgorliklari yoki ularning ansambli tasvirlangan tarixiy kartinalar.

4. Tarixiy portretlar. Ular ustida o'quvchilar mustaqil ish olib boradigan bo'lsa, ular tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini og'zaki yoki yozma ravishda hikoya qilib beradi. Kartina ko'rsatmali qurollarining hamma turlari singari o'quvchilar uchun aktiv bilim olish manbayi bo'lib xizmat qiladi. Yuqori sinflarda kartinaning har biri va ularning vazifasi quyi sinflardagidan ko'ra birmuncha o'zgaradi: Kartina yuz asidan hikoya qilish usuli kamdan kam qo'llaniladigan bo'lib qoladi. O'quv materialini bayon qilingandan keyin shu voqeaga doir kartinadan foydalanishda o'quvchilar o'zlarida mavjud bilimlarini ishga soladilar.

Shunday qilib kartinalar:

1. O'quvchilarni ish materialini o'zlashtirishga tayyorlaydi, oladigan bilimlarining manbayi bo'lib xizmat qiladi, ish materialini puxta o'zlashtirish uchun mavjud bilimlarini ishga solish vositasi va kirish suhbatini o'tkazish uchun ko'rgazmali qurol vositasini o'taydi.

2. Tarixiy voqeaning "jonli idrok" etilishini, o'rganilayotgan materialining konkret va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

3. O'qituvchi bayonining emotsionalligini va axloqiy ta'sirini kuchaytiradi. O'rganilayotgan materialning axloqiy ta'sirini oshiradi.

4. Darsda kartinaning mazmuni tarixiy tahlil qilish va umumlashtirish obyekti bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarning konkret obrazlardan tarixiy hodisalarni, ularning mohiyatini va qonuniyatlarini tushunib olishlariga yordam beradi.

5. O‘quvchilar ongiga ta‘sir ko‘rsatadi, tarixiy materialning va ulardan kelib chiqadigan xulosa va umumlashmalarning ko‘ngillarda jo bo‘lishi, darsning yakunlovchi qismida foydalanilgan kartina esa, o‘rganilgan mustahkamlash va o‘zlashtirish darajasini tekshirish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Illyustratsiyalar darslik matni mazmunining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ulardan darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlar bilim manbayi sifatida foydalanish mumkin.

Illyustratsiyalar mazmunining murakkabligi, xarakteri o‘quvchilarning tayyorligiga qarab suhbat yo‘li bilan tahlil qilishi mumkin, o‘qituvchi o‘quvchilarga mustaqil qilishni ham uqtirishi mumkin. Illyustrativ materiallar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. O‘tmishda bo‘lgan yodgorliklarning tasviri. Ayrim buyumlar va ularning parchalari ro‘zg‘or ashyolari, urush qurollari, mehnat qurollari.

2. Rassomlarning hayotidan olib yaratgan sujetli asarlari.

3. Portretlar.

4. Karikaturalar. Ular asosan XIX–XX asr voqealariga doir bo‘lib, ko‘proq yengil va eng yaxshi tarixiy darsliklarda beriladi. Karikatura tarixiy voqealarning mohiyatini ochib berish, tarixiy shaxsning faoliyatini fosh ettirishning ajoyib vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

5. Hujjatlar, yozuvlar, hujjatli tekstlar (topilma, yozuvlar, qo‘l-yozmalar proklamatsiyalar) ta‘siri. Bu orqali o‘quvchilar davr ruhi, tarixiy sharoitni yaxshiroq tushunadilar. Hujjatli fotosuratlar va mohiyatlar sizgan suratlar. Bu xildagi illyustratsiyalar asosan XIX–XX asr voqealariga doir bo‘lib, yuqori sinflarda foydalaniladi.

6. Arxitektura yodgorliklari va san‘at asari tasviri. Ular ichida buyum va arxitektura buyumlari asosiy o‘rinni egallaydi.

Shunday qilib illyustratsiyalar o‘quvchining bilimini mustahkamlashga xizmat qilib, tarixiy voqea ma‘lum bir vaqtda tasavvur yaratish ta‘limda muhim o‘rin tutadi. Tarixiy karta bilan ishlash geografik muhitga xarakteristika berishi asosiy metodini tashkil etadi. Geografik muhit jamiyat rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchi bo‘lmasada tarixiy rivojlanishning tezlashishi yoki sekinlashishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi

mumkin. Geografik muhitni jamiyat rivojlanishidagi roliga, ayniqsa qadimgi dunyo tarixi darsligida katta o‘rin belgilagan. 5–6-sinflarda geografik muhit bilan odamlarning mashg‘uloti to‘g‘risidagi aloqani ochib berish, tarixiy rivojlanishga geografik muhitning ta‘sirini ko‘rsatish usuli katta imkoniyat beradi. Karta yordamida biror mamlakatning tarixiy rivojlanishida bo‘lib o‘tgan turli bosqichlardagi ahvoli konkret tasvirlab berish, o‘quvchilarda birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini aniq tasavvur etishga; ikkinchidan, inson avlodlari mehnatining o‘zgaruvchilik kuchini puxta tushunib aniqlab olishlariga yordam beradi. Binobarin, karta bilan ishlash juda katta ta‘lim va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Darsda kartadan foydalanib tarixiy voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘rsatish, o‘quvchilarda geografik muhitning roli haqida tasavvur yaratish uchungina emas, balki tarixiy voqealarning mohiyatini ularning qonuniyatlarini, o‘zaro aloqalari va sabab natijalarini ochib berishda ham muhim rol o‘ynaydi. Kartadan tarixiy voqealarni tushuntirib berishdagina emas, balki uni tahlil qilishda va umumlashtirishda ham foydalaniladi. Tarixiy karta o‘quv materialini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi voqea bo‘lib o‘tgan joyni devorga osilgan kartadan ko‘rsatgan vaqtda o‘quvchilarning o‘sha joyni o‘z kartasidan izlab topishi, o‘qituvchi rahbarligida kartani tahlil qilishi, o‘quvchilarning o‘z daftarlaridagi eskizlar va darsliklardan kartalar ustida uyda mustaqil ishlashi navbatdagi darsda bermagan savollarga kartadan foydalanib javob berishi o‘quv materiallarining puxta o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Tarix o‘qitish tajribasida tarixiy kartalarning uch turidan foydalaniladi:

1. Umumiy kartalar. Ular bir mamlakat yoki bir gruppamamlakatlardan tarixiy voqealarni, ularning joylashuvini tarixiy rivojlanishini ma‘lum bosqichdagi ahvolini aks ettiradi.

2. Obzor kartalar. O‘rganiladigan kartalarning izchilligini uzoq davr mobaynida territoriyaning o‘zlashtirilganligini aks ettiradi.

3. Tematik kartalar ma'lum tarixiy kartalarga yoki tarixiy jarayonning ayrim tomonlariga bag'ishlanadi.

Birorta ham darsni kartasiz tasavvur etish qiyin. Karta tarix darsligining eng zaruriy qo'llanmasi bo'lib hisoblanadi. Karta avvalo o'rganilayotgan mavzuga mos bo'lishi zarur. O'qituvchi voqealar rivoji davomining bayoni jarayonini kartadan ko'rsatib berishi, ayni vaqtda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatadigan joyni qo'llaridagi karta yoki atlas kartadan izlab topishlari lozim. Har bir karta o'rganila boshlaganda unga qisqacha sharh berish, uni o'rganilgan eski karta bilan solishtirib o'quvchilarni ish kartadan o'zgarishlari bilan tanishtirish, o'zlarini tarixiy rivojlanishining izchilligi va har bir bosqichini o'ziga xos muhim xususiyatlarining boshlab olishlariga yordam beradi. O'quvchilar uchun kartani solishtirib maktab hududi kengaygan yoki kengaytirilgan shakllarning, uzunligi va boshqa o'zgarishlar yuz berishini aniq tushunib oladilar.

Ko'rgazmali uslub to'g'risida pedagog Y.A.Komenskiy, o'quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, ya'ni ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, eshitish mumkin bo'lgan narsalarni quloq bilan eshitib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak". Ko'rsatmalilik deganda, avvalo o'qitish va o'rganishning ko'rgazmali usuli, o'qituvchi bayonining ko'rgazmali bo'lishi, uning o'quvchilardagi ta'sir obrazlarga suyana bilishi, o'quv materialini bayon qilish vaqtida ko'rgazmali qurollardan foydalanish va ko'rgazmali qurollar vositasida o'quvchilarning bilish faoliyatini tezlashtirish hamda ularning o'rganilayotgan tarixiy asoslarni voqea va hodisalarni aynan o'zini yoki ularning tasvirlarini ko'rish yordamida o'rganishlari tushuniladi. Ko'rsatmali tasvirlar tarixiy fakt va hodisalarning tashqi ko'rinishigina emas, balki ularning ichki mohiyatini ham ochib beradi. Tarix o'qitishda ko'rsatmalilikning ahamiyati tarixiy faktlarni, hodisalarni ko'rish organlari ishtirokida mushohada etish va ular haqida aniq tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi, murakkab tarixiy hodisalarni, tushunchalarni

tushunib olishni ham yengillashtiradi, tarixni to'g'ri real tushunishga yordam beradi. Demak, tarixiy voqealar takrorlanmaydi. Shuning uchun ham tarixiy bilimning muhim manbasi sifatida har xil ko'rgazmali qurollarni qabul qilamiz. Ular orqali tarixiy o'tmish gavdalaniradi. Faktlar konkretlashtiriladi. Masalan, o'rta asr hunarmandchilik ustaxonasi bilan ingliz manufakturasining kartinasini fabrika-zavod kartinalari bilan taqqoslash orqali ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini, uning qonuniyatlarini o'zlashtirishgan bo'ladi. Ko'rgazmali o'qitish usuli-nazorat, qabul qilish, esda saqlash, so'zlash malakalarini oshirishga yordam beradi.

2. Tarix o'qitishda qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar klassifikatsiyasi: ko'rgazmali qurollar o'zining mazmuni, tarixiy obrazlarning xarakteri, ularni tasvirlash texnikasi va foydalanish usullariga qarab bir qancha turlarga bo'linadi. Bunda maktab muzey eksponatlari ahamiyatga ega. Tasviriy ko'rsatmalar: o'qitishda foydalanish uchun ishlangan tarixiy tasvirlar va albomlar, suratlar, rasmlar, fotohujjatlar va fotoko'chirmalar, darsliklardagi rangli suratlar, o'quv diapozitivlari diafilmlar va kinofilmlar, maketlar, har xil modellar va boshqalar. (Kompozitsion tasvirlash qurollariga o'quv kartinalari, reproduksiya, badiiy kinofilm va boshqalar kiradi).

Tasviriy ko'rgazmalilik ko'rgazmali o'qitishda eng muhim o'rinda turadi.

3. Shartli ko'rgazmali qurollar: tarixiy va tekshiruv xaritalari, tarixiy atlaslar, chizmalar, grafika, diagramma va pedagogik rasmlar.

Badiiy kartinalar—bu san'at asaridir. U ma'lum bir tarixiy davrning konkret rassomiga tegishli. U orqali madaniyatni o'rganish bilan birga tarixiy jarayonni bilib olish mumkin bo'lgan tarixiy manba sifatida ham qabul qilish mumkin.

Masalan, V.Surikovning "Suvorovning Alp tog'i bo'yicha kesib o'tishi", G.G.Myasoyedovning "Zemstvo tushlik qilmoqda" va boshqa kartinalar ham madaniy, ham tarixiy ahamiyatga ega. Uslubiy adabiyotlarda tarixni bilish jarayonidagi o'quv kartinasining o'rnini quyidagicha ko'rsatiladi: a) kartina manba sifatida ko'rinadi; b) kartina o'qituv-

chining bayonini illyustratsiyalaydi; d) kartina hikoyadan so‘ng o‘qituvchining bayonini mustahkamlaydi. Boshqa fanlardagi bo‘lgani singari tarix o‘qitishda qo‘llaniladigan tasviriy ko‘rgazmali vositalar ichida o‘quv rangli tasvirlari muhim o‘rin tutadi. O‘quv kartinalariga ko‘rsatmali qo‘llanmalar maxsus rassom yoki illyustratorlar tomonidan maktab tarix kursining ma‘lum bir mavzulari bo‘yicha ishlangan ko‘rgazmali qo‘llanmalari kiradi. Sujet xarakteriga binoan o‘quv kartinalari voqelik va tipologik bo‘lib bo‘linadi. Voqelik tasvirlarda-muhim voqealar, ijtimoiy hayotdagi noyob faktlar, harbiy harakatlar, siyosiy ahvol, ozodlik uchun harakatlar yoritiladi. Ular sujetli bayonlashni talab qiladi. O‘qituvchi boshchiligida kartina ko‘rib chiqiladi. Bunday voqelik kartinalar bilan ishlashda quyidagicha izchillikni saqlash kerak: a) kartina mazmuniga umumiy aniqlik berish; b) tasvirlangan voqeaning o‘rni va vaqtini ko‘rsatish; d) uning mazmunidagi bosh va ikkinchi darajali tomonlarini tavsiflash (xarakteristika); e) umumiy xulosa qilish. Masalan, voqelik kartina bayon ishlashni ko‘rib chiqamiz. “Rossiyadagi birinchi dehqonlar urushi” degan mavzuda qo‘zg‘olonning olib borilishini ochib berishda rassom Y.Lissnerning “Moskva yonida Bolotnikovning dehqonlar armiyasi jangining boshlanishi” kartinasidan foydalanamiz. Uni quyidagi faktlar bilan hikoya qilish mumkin: kartinada Nijniy Kotli selosida Moskva yonidagi hal qiluvchi jang ifodalangan. U 1606-yil 2- dekabrda bo‘lib o‘tdi. O‘ng tomonda otda turgan Ivan Bolotnikovning o‘zi. U Nijniy Kotlidagi o‘rnashgan dushman tomonga otlanayotgan otliq kazak bo‘linmalarini qutlamoqda. Piyodalar ham tez yurmoqda. Qo‘zg‘olonchilarning har xil kiyimlari, qurollari aniq ko‘rsatilgan. Dehqonlar qo‘llariga tushgan narsalari: panshaxa, bolta, pichoq va hokazolar bilan qurollangan.

Ularning ko‘pchiligini o‘zlari yasashgan yoki bo‘lmasa Sharqiy askarlari bilan bo‘lgan jangda tortib olgan. Mana kartinada 3 ot bilan tortib dushmandan olingan pushkani sudrab borayotir. Qo‘zg‘olonchilarning bir qanchasi to‘n (shuba), ayrimlari yarim to‘n, ayrimlari esa mis shlem ham kiyishgan, oyoq kiyimlari ham har xil. Bitta kazak orqalariga qo‘llari bog‘langan qo‘lga tushgan ikkita dushmanni

boshqaruvchiga olib borayotir. Bu hikoya orqali o'quvchilar Ivan Bolotnikov qo'zg'olonining mag'lubiyatga uchrash sabablarini ham anglaydi. Masalan, qatnashganlarning ijtimoiy tarkibining har xilligi, past darajada qurollanish.

Tipologik kartinalar–o'rganilayotgan davr uchun yaqqol bo'lgan voqealarni aks ettiruvchi tasvirlar. Bunday kartinalar ijtimoiy, iqtisodiy hayot hodisalarini ifoda etadi. O'rganishda hikoya va suhbat usullaridan foydalanish mumkin. Hikoya paytida dramatisatsiya elementlarini to'g'ri so'zlardan (pryanoy rechi) kiritiladi. Masalan, “Rossiya Pravda vaqtidagi sud” kartinasi bo'yicha hikoya qilish. “Knyaz hovlisi. Knyaz o'z qasrining pillapoyasida o'tiribdi. Atrofida knyaz drujinasi. Yaqinda kimdir boyaringa tegishli g'allani yoqib yuborgan. Bunda yosh bir merdan gumon qilinadi. “O'sha kuni, sen uyingda yo'q eding” qahr bilan deydi unga knyaz. “Ha, men uyda tunamadim. Men ovda edim va kim yoqib ketganligini bilmayman”. Ammo knyaz yosh yigitni va uning otasini tinglashni ham istamaydi. (bolasining so'zini tasdiqlashga harakat qilgan otasini) Knyaz ishni (olov bilan) temir bilan sinash orqali yechishga buyuradi. “Sen, – deydi u yigitchaga – yalang'och qo'ling bilan qizdirilgan temirni olovdan tortib olishing kerak. Agar qo'ling qattiq kuysa demak sen aybdorsan”. Ayblanuvchi yenglarini shimarib, xudodan o'zining aybsiz ekanligiga guvohlik berishi uchun iltijo qilib, cho'qindi va sinovga tayyorlandi. Uning otasi bir qadam oldiga qadam otdi-yu, qotib qoldi. Cholni bolasi uchun qo'rqinch bosgan. U albatta, agar bolasining qo'li kuysa nima bo'lishini bilar edi, haqiqatda u aybsiz bo'lsa ham, qishloqdan haydab chiqarilib, mulki tortib olinar edi. Shu tariqa sud feodallarning manfaatlarini himoya qilgan”. Qadimgi shaharlar qurilishlar, memorchilik, yodgorchilik yoki ularning ansambli tasvirlangan tarixiy tasvirlar ham bor bo'lib, unda o'qituvchining ta'riflash va tushuntirish qo'llaniladi. Mehnat qurollarini tavsif qilishda analitik ta'riflash, turar joy, kiyim, madaniy yodgorliklarni qarashda suratli ta'riflashdan foydalaniladi. Tipologik kartinalarni o'rganishda ko'pincha suhbat usulidan foydalaniladi. Masalan, “Gonchar ustaxo-

nasi” kartinasini o‘rganishda har xil savollar, topshiriqlar berish mumkin:

Kartinalarda qanday ishlab chiqarish tasvirlangan? Tasvirdagi odamlar nima bilan mashg‘ul? Aniqroq qaranglar ustaxona qaysi shaharda joylashgan? U kartinada kimlar qul, kimlarning ozod fuqarolar ekanligini ajrata olasizlarmi? U bunday xulosaga kelishinglarga sabab, u qullarning ahvoli haqida nima ayta olasiz? Ayrim hollarda o‘quvchilarning o‘zlari gapirib berishlariga e‘tibor qilib, joiz bo‘lsa qo‘shimcha savollar beriladi. Kartinalar bilan ishlashda ham aniq talab qo‘yiladi, ya’ni darsda kartinalar demonstratsiyasiga aylanib yuborish mumkin emas. Tarix o‘qitishda ijtimoiy guruhlarining, tarixiy shaxslarning tipik obrazlarini shakllantirishda portretlar katta o‘rin tutadi. Ular bilan ishlashda tavsifnoma, tarixiy shaxs hayoti va xizmatlari haqida bayon etiladi. Tarix darsida karikaturalardan ham foydalaniladi. Bu o‘quvchilarda davrni tushunishda qiziqish uyg‘otadi. Masalan, 8-sinf “Jahon tarixi” “Reformatsiyaning Yevropaga yoyilishi. Katolik cherkovining reformatsiyaga qarshi kurashi” mavzusida. XVI asrga oid “Rim papasi” karikaturasini ko‘rish mumkin. Karikatura ostiga: “Papaning Injilni tushuntirishi eshakning surnay chalishidan va notalarni o‘qiy olishidan ham xunukroq eshitiladi” -deb yozilgan va hokazo.

Savol va topshiriqlar

1. Kartina, illyustratsiyalar nima ekanligini izohlab bering.
2. Tarix o‘qitishda qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollar klassifikatsiyasi ahamiyati nimada?
3. Tarix o‘qitishga arxitektura yodgorliklari va san’at asarlarining ahamiyati qanday?

5-MAVZU: TARIX DARSLARI, UNING TURLARI VA TUZILISHI

REJA:

1. Darsda tarixiylik, sistemalilik va izchillik
2. Tarix darslarining turlari hamda tuzilishi.
3. Tarix darsini klassifikatsiya qilish muammosi.

Tayanch iboralar: tarix darsi, o‘quv jarayoni, tarix ta’limi, dars mazmuni, tarixiy material, ta’lim-tarbiya vazifalari, dars mavzusi, dars rejasi, klassifikatsiya, dars tiplari, metodik adabiyot, darslik.

Ma’lumki, dars maktabda o‘quv ishlarining yagona shakli emas. Ekskursiya, o‘zlashtirmovchilar bilan olib boriladigan individual va guruhlarda olib boriladigan mashg‘ulotlar, imtihonlar oldidan o‘tkaziladigan konsultatsiyalar ham o‘quv jarayonining turli shakllarini tashkil etadi. Shuning uchun ham bularning hammasi mashg‘ulotlarning yordamchi turlarigina bo‘lib, darsning o‘quv jarayonida hal qiluvchi funksiyasi o‘rnini egallay olmaydi. Boshqa fanlar kabi tarix o‘qitishda ham dars o‘qish turining asosini tashkil etadi.

Darsning mazmuni tarixni o‘rganish, ya’ni o‘quvchilarga o‘quv dasturida mo‘ljallangan me’yordagi ma’lum tarixiy bilimlar majmuasini va shu tarixiy ashyolar asosida o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalamoq lozim.

Tarix ta’limi murakkab va ko‘p qirrali jarayonni tashkil etadi. Dars jarayonida biz so‘rash yoki suhbat davomida o‘quvchilar bilimni tekshiramiz, ularning ilgari o‘tilgan mavzular yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlaymiz, o‘rganilayotgan tarixiy materialni tahlil etish va umumlashtirish yo‘li bilan uning mazmunini o‘quvchilar tomonidan atroflicha o‘zlashtirib olishlariga harakat qilamiz. Shuningdek, dars davomida o‘quvchilarni yangi tarixiy tushunchalarni samarali o‘zlashtirishlari uchun o‘zlarida mavjud bo‘lgan ilgarigi tarixiy material asosida ularning bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, sistemalashtirish xususida izchillik bilan ish olib boriladi. Eng asosiysi,

dars davomida o'quvchilarni o'rganilayotgan tarixiy material ustida samarali ishlash qobiliyatlari va malakalarini shakllantirib borishga erishmog'imiz lozim. Chunonchi, o'quvchi dars jarayonida tarixiy xaritalar bilan erkin ishlashi va ularga qarab aniq mo'ljal olmoqlari, tarixiy hujjatlar va o'lkashunoslik materiallari ustida mustaqil ishlay bilishi, ularni qiyosiy taqqoslashi, tarixiy faktlarni to'g'ri tahlil eta bilmog'i lozim. Bularning hammasi tarix darsining (umuman ijtimoiy fanlardan, jumladan inson va jamiyat kursidan o'tkaziladigan har qanday darsning) didaktik tomonini xarakterlaydi, uning g'oyaviy mazmunini atroflicha ochib berishga xizmat qiladi.

Tarix darsi qator ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal etishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Tarix darsida ta'lim-tarbiya vazifalarining ko'p qirraligi uni o'qitishda qo'llaniladigan ko'p xilli metodlar bilan tavsiflanadi.

Darsning afzalligi yana shundan iboratki, unda o'qituvchilar bilan har bir o'rganilayotgan tarixiy materiallarning sinfda frontal va individual ish olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biroq, tarix darsi oldida ta'limiy va tarbiyaviy, g'oyaviy va siyosiy vazifalarning qanchalik ko'p ekanligiga qaramasdan, alohida olingan har bir dars butun dars sistemasida ichki birlik va tugallikni tashkil etadi.

Avvalo har bir dars o'z mavzusiga, nomiga ega bo'ladi. O'qituvchi esa o'z navbatida davlat o'quv dasturi va darslikning mazmuniga qarab mazkur darsda o'rganiladigan mavzuni aniqlaydi. Tarix o'qituvchisi har bir dars mavzusini aniqlashda tarixiylik, tizimlilik va izchillik doimo ijodiy yondashib bormog'i lozim. Dars davomida o'rganiladigan mavzuning materialini bir necha masalalarga (savollarga) bo'lish, o'z navbatida mazkur darsning aniq rejasini tuzishga yordam beradi. Dars rejasi necha punktdan iborat bo'lishi bevosita o'rganilishi kerak bo'lgan mavzuning mazmunidan kelib chiqmog'i kerak. Mazkur o'rinda biz darsning rejasi albatta shuncha punktdan iborat bo'lmog'i zarur degan ko'rsatmani standart sifatida tavsiya etmaymiz.

Tarixchi metodist A.A.Vaginning dars rejasi bo'limlari odatda ikkitadan kam bo'lmasligi va uch-to'rt dan ko'p bo'lmasligi kerak degan

ko'rsatmasini o'rinsiz deb bilamiz. A.A. Vagin tarix darsi nazariyasi xususida fikr yuritar ekan, "dars mavzusi va uning rejasi o'quvchilarga ma'lum qilinishi kerak", – deb ko'rsatadi. Biroq, dars rejasi o'quvchilarga qanday ma'lum qilinishi kerakligini aniq ko'rsatmaydi. Og'zakimi, yozmami, hammasi birdaniga o'qib eshittirilishi yoki yozib ko'rsatilishi kerakmi yoki birin-ketinmi? Respublikamiz ilg'or tarixchilarining tajribasi dars rejasini yoki sinf doskasiga har bir bo'limni navbati bilan bayon qilib borish jarayonida yozishni, ko'chma doskada bir yo'la yozilgan rejani sinf doskasiga qo'yilgan holda foydalanish afzalligini tasdiqlagan. Har bir tarix darsining o'z mavzusi va o'z rejasiga ega bo'lishi kerakligini bilamiz. Bir necha darslarni birlashtirgan katta mavzular albatta alohida darslar mavzulariga bo'linmog'i shart. O'qituvchi hech vaqt darsni o'tgan mavzuning yakuni va yangi mavzuning boshlanishi sifatida o'tishga yo'l qo'ymaslik kerak. Fikrimizcha, bu talab nafaqat o'rta umumta'lim yoki maxsus o'quv yurti uchun bo'lmasdan, ayniqsa hamma oliy o'quv yurtlari uchun ham ma'ruza va seminar mashg'ulotlari uchun bo'lgan asosiy shartlarning ajralmas qismini tashkil etmog'i darkor. Gap shundaki, tematik birlikning buzilishi darsning g'oyaviy yo'nalishini, talabalarni sinfda olib boradigan mustaqil ishlarini, uy ishini bajarishni to'g'ri tashkil etishni izdan chiqaradi. Tarix fanini o'rganishdagi eng fundamental muammo–bu tarixiy voqelik va tarixiy manbalar bo'lib, mana shu ikki masalaga tom ma'noda ilmiy yondashish tarix fanining nazariyasi va texnik aniqlik kasb etadi. Afsuski, rus olimi, professor M.A.Barg shunday yozadi: "Tarixiy aniqlik voqealıklar chindan ham mavjud bo'lgan asoslardan iborat bo'lib, ma'lum makon va zamonda sodir bo'ladi, matn mazmuni, ularni izlash yoki sharhlashga bog'liq bo'lmaydi".

Har bir dars nafaqat o'z mazmuni bilan balki uning ustida ishlash xarakteri jihatidan ham bir butun tugallangan mavzu, muammo bo'lmog'i lozim. O'qituvchi darsni bayon qilish jarayonida ishning shunday usul va turlarini mohirlik bilan qo'llamog'i kerakki, bu usul o'quvchilarni uy vazifalarini mustaqil bajarishda unga dasturul amal

bo'lsin. Dars davomida bayon qilingan material albatta shu darsda atroflicha tahlil etilmog'i, fikrlashib olinmog'i kerak, ana shunday qilingandagina o'qituvchi darsni didaktik tomonidan to'g'ri tashkil etgan, o'quvchilarga o'rganilayotgan material mazmunini to'g'ri qabul qilishga yo'naltirgan, mavzudan kelib chiqqan mazmunning o'quvchilar shaxsiy e'tiqodlariga o'sib o'tishini ta'min etgan bo'ladi. Biroq, dars mavzusining aniq belgilash va uni bayon qilish rejasining mavjudligini o'zi darsning muvaffaqiyatli chiqishini ta'min etmaydi. Darsning to'la muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlash uchun uning g'oyaviy yo'nalishini aniqlab olmoq lozim. Darsning asosiy g'oyaviy mazmuni, uning ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari dars jarayonida o'rganilayotgan tarixiy voqelikning mohiyati, qonuniyatlari, sababi, natijalari va ahamiyatini to'g'ri bayon qilishidagina to'la amalga oshishi mumkin.

2. Tarix darslari turlari hamda tuzilishi.

Didaktikada darslarni klassifikatsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina metodik adabiyotlarda, jumladan I.N.Kazansevning "Урок в советской школе" (M., 1956) kitobida dars mavzularini klassifikatsiya qilishda ularni kirish darsi, yangi bilimlarni egallash darsi, takrorlash-umumlashtirish darsi va hisobga olish-tekshirish darsi kabi turlarga ajratiladi.

S.V.Ivanov darslarni klassifikatsiyalashga darslarda foydalani-ladigan metodik vositalarning xususiyatlarini va dars o'tishga eng ko'p ishlatiladigan metodik asos qilib olib, ma'ruza-dars, kino-dars, o'quv-chilar mustaqil ish olib boradigan dars turlarini tavsiya etadi.

Dars turlarini klassifikatsiya qilish masalasi tarix o'qitish meto-dikasiga doir adabiyotda ham turlicha hal qilingan. Masalan, V.N. Bernadskiy tarix darslarini turlarga ajratishda bilimlarning asosiy manbayini va har qaysi darsda qo'llaniladigan yetakchi metodni asos qilib olgan (Бернадский В.Н. Методы преподавания истории в старших классах.—М., 1969). V.G.Karsev tadqiqotida esa darslardagi o'quv faoliyatining yetakchilik xarakteri klassifikatsiya uchun asos qilib olinib, tarix darslari: yangi bilimlar berish darsiga, o'tilgan mavzularni takrorlash va umumlashtirish darslariga, o'quvchilar bilimni og'zaki

yoki yozma tarzda tekshirish darsiga hamda aralash deb atalgan turlarga bo‘lingan (Карсев В.Г. Очерки методики обучения истории СССР в 8-10-классах – М.,1955). М.А.Зиновев эса ўзининг “Основ-ные вопросы методики преподавания истории” tadqiqotida darsning ikki turini – yangi mavzuni o‘rganish darsi va takrorlash darsiga bo‘ladi. P.S.Leybengrub ham tarix darslari klassifikatsiyasini ko‘rsatishga harakat qiladi. Biroq, muallif tarix darsi turlari ustida fikr yuritar ekan, u o‘z fikrini asosan o‘tgan darsni so‘rash, yangi mavzuni o‘rganish va mustahkamlashga yo‘naltiradi (Лейбенгруб П.С. Дидактические требования к уроку истории. – М., 1960). Dars turlari klassifikatsiyasi xususida А.А.Вагин tomonidan tavsiya etilgan variantlar birmuncha talabga muvofiqdir. U darslarni klassifikatsiyalashda darsning mohiyatini, o‘rganiladigan mavzuning mazmunini, o‘qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini va o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning har qaysi kundalik darslaridagi faoliyatlari turlarini asos qilib olish kerak deb ko‘rsatdi. Uning qayd qilishicha, masalan, 1) 5-sinfda o‘qitish jarayonining hamma asosiy elementlarini o‘z ichiga oluvchi dars; 2) hikoya qilib berish shaklida bayon etiladigan dars; 3) takrorlash darsi olib borilishi lozim. 6–7- sinflarda dars turlari ko‘proq bo‘lishi, chunonchi:

1. O‘qitish jarayonining hamma asosiy elementlarini o‘z ichiga oluvchi dars.

2. Yangi mavzuni o‘rganish darsi (hikoya qilib berish, kino, ekskursiya).

3. Kirish darsi.

4. Xotima darsi.

5. Tahlil qilish darsi.

6. Malaka va ko‘nikmalar hosil qilish darsi.

7. Takrorlash-umumlashtirish darslari olib borilishi tavsiya etiladi.

(А.А. Вагин. Методика преподавания истории в средней школе. – М.,1968. 403-б).

А.А. Вагин dars turlari klassifikatsiyasi xususida fikr yuritar ekan, agarda boshlang‘ich sinflarda o‘qitish jarayonining hamma asosiy

elementlarini o‘z ichiga oluvchi dars ko‘proq qo‘llanilsa, yuqori sinflarga o‘tib borish bilan tarix o‘rganishda dars turlarida differentsiatsiya katta o‘rinni egallashi, ya’ni yuqori sinflarga (8–10) borganda tarix darsining unga yaqin turlari bo‘lishini va ulardan quyidagicha variantlarni tavsiya etdi:

1. Mavzuga kirish darsi.
2. Yangi tarixiy ashyoni o‘rganish darsi.
3. Tahlil qilish darsi.
4. Mavzu yuzasidan xotimalar darsi.
5. Takrorlash darsi.
6. Umumlashtirish darsi.
7. O‘tgan mavzuni so‘rash darsi.
8. Malaka va ko‘nikmalar hosil qilish darsi.
9. Bilimni qo‘llash darsi.

1. O‘qitish jarayonining hamma asosiy elementlarini o‘z ichiga oluvchi dars.

2. A.A. Vagin tomonidan tavsiya etilgan dars turlari klassifikatsiyasida inson va huquq kursida keng qo‘llanilayotgan dars turlari.

3. Seminar mashg‘ulotlari.
4. Konferensiyalar.
5. Disputlar.

6. Seminar-konferensiyalarga ham taalluqli ekanligi qayd etib o‘tiladi.

Darhaqiqat, 60-yillarning 2-yarmidan e’tiboran nafaqat inson va jamiyat kursida, balki qator maktablarda tarix kursidan olib borilayotgan fakultativ kurslarda ham darsning ana shunday shakllaridan “samarali” foydalanilgan.

Dars jarayonida har bir mavzuning mazmuniga qarab bu talablar konsentratsiyasini amalga oshirib borish shubhasiz, dars samaradorligini o‘quvchilarda tahliliy tafakkur etish qobiliyatlarini sistemali ravishda kamol topib borishida katta rol o‘ynaydi. Darsga bo‘lgan talablardan yana bir muhim komponenti uning maqsadini to‘g‘ri belgilash hisoblanadi. Metodik adabiyotda bu xususda bir

necha fikr mavjud. Masalan V.G.Karsev (Очерки обучения истории СССР в 8-

10 классах- М., 1955. -С.18-19) “Darsning maqsadi darsda o‘rganiladigan masalalarning mohiyatini ochib berishdan, uning asosiy g‘oyasini, asosiy ma‘nosini o‘quvchilarning dars davomida asosiy xulosa sifatida anglab olishlari va idrok etishlari kerak bo‘lgan narsani belgilashdan iborat bo‘lmog‘i lozim”, – deb ko‘rsatadi. Fikrimizcha, A.A.Vagin, N.V.Speranskaya, V.G.Karsevning har bir darsning umumiy g‘oyaviy-nazariy yo‘nalishini belgilash kerak degan fikrlariga qo‘shilish o‘rinlidir. Biroq, shu bilan birga tarix darsi oldiga qo‘yiladigan maqsadlarni to‘g‘ri belgilashda, birinchidan, mazkur dars mazmunida eng muhim narsa nima ekanligini va o‘quvchilarning tarixni ilmiy asosda tushunib olishlariga, ularni umuminsoniy ma‘naviyat ruhida tarbiyalashga qanday hissa qo‘shishi lozimligini aniqlab olish kerak. Ikkinchidan, o‘quvchilardagi mavjud bo‘lgan tarixiy malakalarning namoyon bo‘lish darajasiga va uning rivojlantirish umumiy sistemasiga asoslangan holda o‘quvchilarda muayyan malakalarni shakllantira borish vazifasini ayrim darslarning maqsadlaridan biri qilib qo‘yish foydalidir.

Tarix darsini klassifikatsiya qilish muammosi. Biz yuqorida dars turlarining klassifikatsiyasi, unga bo‘lgan talablar va undan kuzatiladigan maqsad xususidagi fikrlarni bayon qilib berdik. Bu fikrlarda tarix ta‘limi asosan umumta‘lim maktablari uchun qo‘llaniladigan metod aspektida bayon etildi. Biroq, xalq maorifi sistemasida yoshlarni umumiy o‘rta ta‘lim O‘zbekiston Respublikasining o‘z milliy istiqboliga erishganidan keyin xalq ta‘limimiz sistemasida sodir bo‘lgan islohotlar natijasida vujudga kelgan akademik litseylar ochilishlari, kasb-hunar kollejlari ham salmoqli o‘rinni egallamoqda. Ana shunday tipdagi o‘quv yurtlarida, maktablarda dars samaradorligini oshirib borish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ana shu tipdagi maktablarda dars beradigan har bir pedagog talabalarga bilim asoslarini berishda darsning hal qiluvchi rol o‘ynashiga alohida e‘tibor bermog‘i lozim. Bu e‘tibor birinchi galda asosiy o‘rganiladigan mavzuning sifati

hal etishi, uni imkoniyati boricha atroflicha mustahkamlashi, ta'lim-tarbiyani o'quvchilarni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan uzviy holda bog'lab o'rganishda namoyon bo'lmog'i lozim.

Tarix darsining samaradorligida rentabelli darslikning muhim rol o'ynashi sir emas. Biroq, darslik qanchalik takomillashgan bo'lmasin, o'qituvchining jozibali ma'ruzasi yoki suhbatini egallay olmaydi. Darslik qanchalik takomillashgan bo'lganligiga qaramasdan, hayotning hamma tomonlarini o'z ichiga qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shunday ekan, dars davomida u yoki bu mavzuni bayon etishda o'qituvchi unga ijodiy yondashmog'i, o'rganilayotgan tarixiy davrni turmush bilan uzviylikda bog'lab o'rganishga erishmog'i lozim. Hozirda milliy mafkura va milliy g'oya konsepsiyasini yaratish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning barobarida yurtimiz tarixini o'rganish va uni yosh avlodga yetkazish ham muhim vazifalardandir. Masalaning bunchalik dolzarb ahamiyat kasb etayotganligining sababi nimada? Istiqloqlarga erishganimizdan so'ng, xalqimizning ruhini, g'ururini ifodalovchi haqqoniy tarixini yaratish zaruriyati tug'ildi. Biz taraqqiyotning biror pog'onasiga ko'tarilish tugul, qo'lga kiritilgan ulug' saodatni asrab qolish ham qiyin. Tarix milliy mafkuramizning asosiy omili, jonbaxsh tomirlaridan hisoblanadi. Tariximizda yuz bergan voqea-hodisalar bugungi milliy mafkuramizning amaliy ko'rinishlaridandir. Chunki har bir voqea-hodisa zamirida uning ishtirokchisi bo'lgan xalq, guruhning manfaatlari, orzu va intilishlari yotadi. Bunday tarixiy manbalarni o'rganish yosh avlod ongida Vatanga, xalqiga bo'lgan muhabbatni kuchaytiradi. Mazkur o'rinda yoshlarimizda milliy g'oya va mafkurani samarali shakllantirib borishda, ta'limni ularni o'rab turgan ijtimoiy jamiyat bilan bevosita bog'liq bo'lib borish, uzoq o'tmishimizdan buyon ota-bobolarimizdan bizga o'tib, meros bo'lib kelib benazir tarixiy ko'zlagan maqsadimizga muvofiq mukammal o'rganib borishimiz kerak. Oliy o'quv yurti kutubxonalarida yangi tahrirdagi tarix darsliklari yetarlicha emas, borlari ham islohga muhtoj. Talaba o'z yurtining tarixini qaysi kitob yoki qo'llanmadan

o‘rganadi? Bu to‘g‘rida mukammal, izohtalab bo‘lmagan ilmiy nashrlar bormi? 2000-yil iyun oyida O‘zMU majlislar zalida O‘zRFA Tarix instituti, Respublika Arxeologiya instituti va O‘zMU hamkorligida o‘tkazilgan “Tarix fani: uning bugungi ahvoli va istiqboli” mavzusidagi Vazirlar Mahkamasining “O‘zRFA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorining ikki yilligiga bag‘ishlangan respublika seminarida shu masalalar atroflicha muhokama qilindi. Seminarda so‘zga chiqqanlar dastlab so‘nggi 2 yil mobaynida tarix fanida, xususan, tarix institutida katta o‘zgarishlar amalga oshirilganligini alohida ta’kidlab o‘tdilar. Vazirlar Mahkamasining qarori tarix fani uning markazi bo‘lgan tarix instituti faoliyatini takomillashtirishda muhim dastur bo‘lgani, o‘zgarishlar amalga oshirilganligi ko‘rsatib o‘tildi. “O‘zbek xalqi va davlatchilik tarixi” konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ilmiy monografiyalar tayyorlandi. Chop etilgan kitoblar, qo‘llanmalar ekspert guruhi tomonidan ko‘rikdan o‘tkazildi. Oliy o‘quv yurtlarda ma’ruzalar matnlari tayyorlangan va talabalarga tavsiya etilgan. Shunday bo‘lsa ham, hozirgi kunga qadar tarix fanidan mukammal darsliklar yaratilgani yo‘q. Ko‘p holda talabalar ham, maktab o‘quvchilari ham sovet davrida nashr etilgan, eskicha qarash, hozirgi mafkuraga, davr talabiga mos kelmaydigan tushuncha va mavzular bor bo‘lgan kitoblardan qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalanadilar. Ulardan ko‘pchiligi rus tilida yozilgan.

Tarix darsi, uning turlari va qurilishi xususida bayon etilgan fikrimiz garchi bu muammo bo‘yicha so‘nggi mezon bo‘lmasa-da, bunda O‘zbekiston Respublikasi miqyosida umumlashtirilgan ilg‘or tajribalar asos qilib olingan. Shunday ekan, har bir pedagog tarix darsini o‘tishga kirishar ekan, doimo pedagogik izlanish yo‘lida bo‘lib, tarix darslarining yanada takomillashib borishiga o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim.

Dars – o‘quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo‘lib, unda o‘qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o‘quvchilarning doimiy tarkibi bilan qat’iy jadval bo‘yicha shug‘ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv dasturiga o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi. Dars o‘quv ishini tashkil qilishning asosiy shakli, ammo u ta’limning boshqa shakllarini: leksiya, praktikumlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, seminarlar, konsultatsiyalar, uy vazifalari, qo‘shimcha mashg‘ulotlarni rivojlantirishni istisno etmaydi.

Ta’limni tashkil etishning yordamchi shakllari fakultativ mashg‘ulotlar sanaladi. Ular o‘quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi: to‘garaklar, klublar, olimpiadalar, viktorinalar, ko‘rgazmalar, ekspeditsiyalar va hokazolar. Dars o‘quvchilarning doimiy tarkibi, mashg‘ulotlarning aniq belgilangan ramkaga egaligi (har bir dars maktabda 40 minut, akademik litsey va kollejdagi 80 minut davom etadi); jadval oldindan tuziladigan va o‘quv ishlari biror aniq mavzuda tashkil etilishi kabi o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan ta’limning jamoa shakli hisoblanadi.

Darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. O‘qituvchi darsda istisnosiz barcha o‘quvchilarning faoliyatlarini yo‘llaydi va nazorat qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlari orasidagi o‘zaro aloqa va o‘zaro nazoratni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchining darsdagi ishi barcha o‘quvchilarning darsning o‘zidayoq o‘rganilayotgan bilim asoslarini egalashlari, zarur ko‘nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Darslarning turlari va strukturasi yetakchi didaktik vazifa va strukturaga ko‘ra darslar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) kombinatsion darslar (o‘qituvchi yangi materialni tushuntiradi, mustahkamlaydi, takrorlaydi, kontrol qiladi);
- 2) yangi materialni o‘rganish darslari;

- 3) bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash darslari;
- 4) mashqlar va amaliy ishlar darslari;
- 5) umumlashtiruvchi takrorlash darslari;
- 6) laboratoriya darslari;

7) o‘quvchilar bilimni nazorat qilish, tekshirish va baholash darslari, bundan tashqari standart bo‘lmagan, innovatsion dars shakllari ham keng qo‘llaniladi: seminar-darslar, konferensiya-darslar, rolli o‘yinlar, integrallashgan darslar, aralash yoki kombinatsion dars o‘zida o‘quv ishlarining turli maqsad va turlarini aks ettiradi:

- o‘tilgan material ustida ishlash;
- yangi mavzularni anglash va o‘zlashtirish;
- amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.

Shu bilan bog‘liqlikda aralash darsda odatda quyidagi strukturaviy komponentlar ajraladi:

- o‘quvchilarni darsga tayyorlash;
- takrorlash-umumlashtirish ishlari;
- yangi materialni anglash va o‘zlashtirish ishlari;
- bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish ishlari bo‘yicha ishlar.

6-MAVZU: TARIX O‘QITISHDA EKOLOGIK TA‘LIM-TARBIYANING ASOSIY YO‘NALISHLARI

REJA:

1. Ekologik ta‘lim-tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari.
2. Sotsial ekologiyaning asosiy qoidalari.
3. Ekologik madaniyat tushunchasi.

Tayanch so‘z va iboralar: ekologik ta‘lim, sotsial ekologiya, ekologik madaniyat, tabiat qonunlari.

Bugungi kunda fanning biron sohasi yo‘qki, u ekologiya muammolarini hal etishdan chetda qolgan bo‘lsa. Shunday ekan, istiqloq sharofati bilan O‘zbekiston Respublikasi maktablari o‘quv rejalari (setkasi)da o‘zining qonuniy o‘rnini egallagan O‘zbekiston xalqlari tarixi, shuningdek, “Inson va jamiyat” kursini o‘qitishda o‘quvchilarga ekologik ta‘lim-tarbiya berish ham chetda qolishi mumkin emas.

Shuni alohida qayd etish lozimki, hozirgi vaqtda inson bilan uni o‘rab turgan muhitning tuzilishi va xususiyatlariga, shuningdek, ekologik omilning inson jismoniy va ruhiy holatiga ta‘sir kuchini tadqiq etadigan sotsial ekologiyaning mohiyati tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda.

Sotsial ekologiya quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi: “Tabiat-Jamiyat-Inson” yagona bir butunlikni tashkil etadi; inson tabiatning bir qismi uning rivojlanishi tabiatni o‘zgartirish inson hayotining asosini tashkil etadi; tabiat tarixi bilan jamiyat tarixining birligi mehnat jarayonida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy qonunlarga nisbatan tabiat qonunlari birlamchidir; yangi ekologik madaniyatning rivojlanishi shaxsning tabiatga nisbatan yuqori darajadagi mas‘uliyatini ifodalaydi. Tabiatga yangicha madaniy munosabatning shakllanishi to‘la mazmundagi gumanizmni o‘zida mujassamlashtiradi. Tabiat qonunlarini oyoqosti qilish, xalq mablag‘larini sarflashda isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish, shuningdek, tabiatga o‘z shaxsiy talabi nuqtayi nazaridagina

yondashish gumanizmga qanchalik zid bo'lsa, tabiatga nisbatan ham shunchalik ziddir.

Sotsial ekologiyaning insonparvarligi ayniqsa pedagogika faniga yaqindir. Maktab va xalq ta'limining hamma yo'nalishi yangi avlodni ilgaridan an'anaga kirgan g'oya –“*tabiat in'omidan to'la foydalanish kerak*”, “*biz tabiatdan xayr-ehson kutib o'tirmaymiz, uni o'zimizga bo'ysundiramiz!*” konsepsiyalari bilan aloqasini batamom, uzil-kesil uzib tashlab, uni himoya qilish va uning in'omlaridan avaylab, unga zarar yetkazmasdan foydalanishni taqozo etadi.

Ekologik madaniyat o'quvchi yoshlarimiz ijtimoiy faolliklarining ifodasi, mustaqil O'zbekistonimiz tabiiy boyliklarini ko'z qorachig'imizdek saqlash va ko'paytirish borasidagi vatanparvarlik harakatining sarchashmasi bo'lmog'i darkor.

Ekologik ta'lim-tarbiya bilan umumiy ta'limning o'zaro aloqadorligi, insonni uning o'rab turgan tabiatga nisbatan mas'uliyati to'g'risidagi umumiy tasavvur asoslarni shakllantirishga asoslangandir. Bundan tashqari, ekologik tarbiya o'quvchilardan tevarak muhitga nisbatan munosabatlarida tubdan o'zgartirish kiritishni, o'z faoliyatlarini nazariy bilimlar bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirib borishlarini, bu boradagi ko'nikma va malakalarini izchillik bilan boyitib borishlarini taqozo etmoqda.

Maktab sharoitida ekologik ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi muhim talablarga amal qilish lozim:

- tabiiy muhit va uni yaxshilash bo'yicha amaliy faoliyatni ma'naviy va emotsional jihatdan uzviy birligini idrok etish;
- ekologik tarbiyaning bog'liqliligini va uzluksizligini, uning predmetlar va kurslararo aloqa bog'lash bilan amalga oshirib borish;
- va nihoyat, ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirib borish ekologik muammolarni umumbashariy, bir vaqtda milliy va o'lkashunoslik xarakter kasb etishini hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatish.

O‘quvchilarni o‘rab olgan tabiiy muhitga nisbatan javobgarlik munosabatida bo‘lish his-tuyg‘ularini shakllantirib borish, istiqloлга erishgan O‘zbekiston maktablarida respublikamizning kelajagi qudratli davlat bo‘lishini ta‘minlashda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ekologik tarbiya o‘quvchilarda faqatgina ekologik-madaniyat-nigina shakllantirib bormasdan, balki ta‘lim va tarbiyaning ko‘pgina umumiy bir butun vazifalarni hal etishda ham katta rol o‘ynaydi.

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni ko‘rsatishning o‘zaro o‘quvchilarda real dunyoning bir butun ekanligi to‘g‘risidagi dunyoqarashga xos bilimlarini yanada boyitadi. Ekologik bilimlar o‘quvchilarga sabab, maqsad aloqalari, voqea va hodisalarni tizimli tuzilishi jihatidan rivojlanishlarini ta‘min etadigan vazifalarni yanada ijobiy hal etib borishlarini ta‘minlashga ko‘maklashadi.

Tabiat chin ko‘ngildan insonni har doim *“vijdonli, insofli bo‘lib olishga yordam beradi. Tabiat har doim – ONA ekanligini eslatib turadi”*. Go‘zallikning bitmas-tuganmas manbayi bo‘lgan tabiat – umuman estetik tarbiyaning muhim vositasi, tabiatni shafqatsizlarcha vayron etishga qo‘l urilgan kuchlarga qarshi turuvchi insonni kamol topishiga katta yordam beradi.

Ekologik bilimlar mehnat ta‘limi va tarbiyasida, shuningdek, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishlari va gigiyenik tarbiyalarida ham katta rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining *“O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”* asarida respublikamizning ekologik holati to‘g‘risida gapirar ekan, *tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanishga, atrof-muhitga ziyon yetkazilishiga va respublikadagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo‘l qo‘ymaslik, boshqa davlatlarning ishtirokida Orolni qutqarish, Orol bo‘yidagi ekologik sharoitni sog‘lomlashtirish borasida samarali choratadbirlarni amalga oshirish, mazkur mintaqalarning iqtisodi va ijtimoiy sohasidagi falokatli oqibatlarni bartaraf etish”* lozim ekanligini alohida uqtirib o‘tdi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Mazkur risolasiining “Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari xususida fikr yuritganida uning falsafiy – dialektik tafakkur mantiqi bilan ifoda etilgan quyidagi fikrlari mazmuni har bir pedagog tomonidan o‘quvchilar ongiga singdirilmog‘i lozim. Butun dunyo, – deb yozadi Birinchi Prezident Islom Karimov, – yagona va o‘zaro bog‘liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini bolalarimiz va nabiralarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir. O‘zbekiston eng og‘ir qiyinchiliklarga duch keldi. Orolning ekologik holati jahon miqyosidagi fojia deb e’tirof etilmoqda. Bu fojiani O‘zbekiston va uning qondosh-qardosh qo‘shnilari tarqoq holda daf etolmaydilar”.

Maktabda ekologik tarbiya olib borishni kundalik hayotimizda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalar bilan uzviy aloqada bog‘lab borishda O‘zbekiston tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi faoliyatini bayon etib boradigan materiallar va axborotlardan sistemali ravishda foydalanib borish lozim.

Mazkur qonunda nafaqat tabiatni muhofaza qilishdan ko‘langan maqsad, balki uni samarali hal etish, “*Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish*” (4-modda) ham quyidagicha aniq ko‘rsatib berilgan:

- “Insonning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilish;

- fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlash, barcha turdagi ta’lim muassasalarida ekologiya va ta’limining majburiyligi (T. T.);

- jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg‘unlashtirish;

- tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag‘batlantirish;

– tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson sihat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo‘lmas oqibatlariga yo‘l qo‘ymaslik;

– tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoralik;

– tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg‘unlashtirish;

– tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgar bo‘lish.

O‘zbek xalqi tabiatga tarixan uzoq davrdan beri mehr bilan qarashga, uni asrab-avaylashga o‘rganib kelgan. Bu milliy bayram, qadimiy an‘ana, urf-odatlarda yaqqol ko‘rinadi. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining har yili nishonlanadigan “NAVRO‘Z” bayrami asrlar davomida ona yerga va tabiatga mehr-muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, uni ardoqlash tuyg‘ularini tarbiyalagan, mehnat tarbiyasi va ma‘naviy tarbiyada muhim rol o‘ynagan. Tabiat bilan insonning o‘zaro chambarchas aloqasini, ularning bir butunligini ifodalovchi bu bayram dehqonchilik bayramigina emas, balki tom ma‘noda ekologik bayram hamdir.

Xalqning sof ekologik mazmunga ega tarixiy udumlaridan yana biri “TAG‘ANAQ” (hashar)dir. Bu udumga ko‘ra tog‘ etagida yashovchi kishilar erta bahorda yig‘ilishib, shod-xurramlik bilan uzoq yo‘lga otlanadilar va tog‘-toshdagi buloqlar ko‘zini ochib, jilg‘alar yo‘lini shox-shabbalardan, loyqadan tozalaydilar, daraxtlarning qurigan shoxlarini kesadilar. Aholini ekologik ruhda, ya‘ni ona tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish, tabiatni muhofaza qilish ruhida tarbiyalashda milliy badiiy adabiyotning ham ahamiyati kattadir. O‘zbek xalqining mumtoz shoir va yozuvchilari, jumladan, **Alisher Navoiy** va **Zahiriddin Muhammad Bobur** asarlari ayniqsa ekologik mazmunga egadir.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi ekologiya muammolarini jadal va katta mas‘uliyat bilan hal qilishda yangi bosqich ochdi. O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitda ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” deb mustahkamlab qo‘yilgan. Endilikda

ekologik muammolar hukumatning doimiy nazorati ostida. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, *“Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni quvib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e’tiborga molikdir”*.

Savol va topshiriqlar

1. Ekologik omil insonning jismoniy va ruhiy holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. «Tabiat-Jamiyat-Inson» – ushbu yagona bir butunlikni qanday izohlaysiz?
3. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
4. Tarix darslarida ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy yo'nalishlari va bosqichlarining o'rganilishi qanday natijalar berishi mumkin? Bu haqda sizning shaxsiy fikringiz qanday?

7-MAVZU: TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA TARIXNI O'RGANISHGA INTEGRATSION YONDASHISH

REJA:

1. Tarix kurslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari.
2. Maktab tarix darsliklari mazmuni va tuzilishi.

Tayanch soʻz va iboralar: ta'lim-tarbiya jarayoni, ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy va mafkuraviy, yetuk shaxs, ta'limni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, integratsiyalashtirish, asosiy omil, dialektik aql-idrok tamoyillariga asoslanadi.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va mafkuraviy jihatdan yetuk shaxsni kamol toptirish muammosini samarali hal etish ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda birinchi galda ta'limni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va integratsiyalashtirishga yo'naltirish asosiy omil hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va integratsiyalashtirish g'oyasini izchillik bilan amalga oshirib borish esa o'z navbatida har bir o'qitilayotgan fanning yoshlar dunyoqarashlarini shakllantirishga xos masalalarni ma'lum maqsadga yo'naltirish. Mazkur fanning o'qitish metodikasiga tarixiylik elementlarini kiritishni, bilishning dialektik jarayonini uzluksiz mantiqiy aloqadorlikda olib borish yo'li bilan amalga oshirib borishni taqozo etadi.

Uzoq yillar davomida olib borgan shaxsiy pedagogik faoliyatimiz va umuman jahon ilg'or pedagogik tajribasi shuni ko'rsatadi-ki, ta'lim jarayoniga insonparvarlik, demokratik va integratsion yondashish pedagogdan birinchi galda har bir shaxs-individida mantiqiy tafakkur-qobiliyatini uzluksiz rivojlantirishga erishmog'i kerak. O'z navbatida o'quvchi yoshlarda mustaqil tafakkur etish vositalari va qobiliyatlarini rivojlantirib borish lozim. Darhaqiqat, buyuk faylasuf Lukretsiy aytganidek, “odamlarda aql-idrok dunyoni bilish bilan o'sib boradi”.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida “Ta'lim to'g'risida” va “Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur to'g'risida”gi

tarixiy qonunlar qabul qilinganligi munosabati bilan respublika davriy matbuotida juda ko'p maqolalar, radio va televideniye kanallarida eshittirishlar, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan bu tarixiy hujjatlarni o'rganish bo'yicha maxsus kurslar ishlab chiqilib, e'lon qilindi.

Shu bois Oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida O'zbekiston xalqlari tarixi, jahon tarixi, davlati va huquq asoslarini o'rganishda, ayniqsa, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari yuzasidan maxsus kursni o'rganishda o'tgan yillarning mantiqi bizni hozirgi kunda uchta asosiy savolga murojaat qilishga undayotganligi:

- a) xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim?
- b) barqarorlikni qanday ta'minlash darkor?
- d) taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin?

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida shunday yozadi: "*Turkiyaning tajribasi, uning iqtisodiyotni isloh qilish yo'li, bizga o'xshash etnik-madaniy sharoitlarda davlat bilan din o'rtasida uyg'un munosabatlarga erishishdagi yutuqlari o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy va davlat-huquqiy taraqqiyot yo'limizni belgilash chog'ida zo'r qiziqishga molikdir*" (shu asar 34-bet).

"*G'arb olami bilan hamkorlik qilish, – deb yozadi, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, – zamonaviy texnologiyalar, investitsiyalarni sanoatning yetakchi tarmoqlariga jalb qilish, bank va boshqaruv sohasida mutaxassislar tayyorlashda, xorijiy qonunchilik tajribasini o'rganishda ko'maklashish muhimdir*" (shu asar 36–37-betlar). Nihoyat, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Respublikamiz taraqqiyoti istiqbollari belgilab, O'zbekistonimizga xos besh tamoyilni ilgari surdi: birinchidan, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo'lishi lozimligi; ikkinchidan, davlat bosh islohotchi ekanligi; uchinchidan, qonun hamma narsadan ustun turishi kerak; to'rtinchidan, kuchli ijtimoiy siyosat. "*Biz o'zimizning*

sharoitimizda ko'p bolali oilalarga, qariyalarga, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga madad bermasak, hamma narsa portlab ketadi, hech qanday bozor va ishbilarmonlik bo'lmaydi. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay” (5–6-betlar); beshinchidan, bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish.

Tabiiyki, tarix o'qituvchisi bu besh tamoyilning har bir bandiga batafsil to'xtab o'tadi va ularning mohiyatini o'quvchilar tomonidan atroflicha o'zlashtirib olishlariga, ularning tarixiy bilim ko'lamlarini yanada kengaytirishga erishadi.

O'zbekiston xalqlari tarixidan o'quvchilarga ma'lum bo'lgan mavzu “O'zbekistonda islom dinining yoyilishi” o'rganiladi. Ma'lumki, mazkur mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar diqqat-e'tiborlari islomning besh farzidan biri kam ta'minlangan mo'min-musulmonlarga Alloh yo'lida ehson qilish farzi alohida uqtiriladi. Mazkur o'rinda o'qituvchi masalaga integratsion yondashib, O'zbekiston taraqqiyotining “o'z yo'li”da qayd etilgan beshta tamoyildan to'rtinchisi – *kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish* bo'lib, islomdagi farzlardan birini o'zida to'la ifoda etganligini ko'rsatib o'tadi. O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mohiyatini integratsion usul bilan atroflicha tushuntirib borishda dars davomida o'qituvchi tomonidan Qur'oni Karimning “*Al baqara*” surasi (261-oyat)dan quyidagi oyatni o'qib berish, uning mazmunini uqtirish didaktik jihatdan ayni muddao va katta ta'limiy samara kasb etadi. Oyatda quyidagilar bayon etilgan: “*o'z mollaridan Alloh yo'lida sadaqa qiluvchilar uchun beriladigan savoblar go'yo bir bug'doy donasi jilganda yettita sunbula boshog' chiqarsa-yu, har bir sunbulada yuztadan bug'doy hosil bo'lganidek, bitta qilingan sadaqa uchun ham 700 barobar ko'p savob ato qilinur. Alloh ba'zi sohibi ehsonlarga bundan ham ko'proq savoblar ato qilishi mumkin, chunki u keng va dono zotdur*». Islom fiqhi zakotni kimlarga berilishi lozim degan so'roqda ham aniq javob beradi. Unda aytilishicha, zakot olishga quyidagi toifadagi kishilar haqli hisoblanadilar: *oddiy hayot kechirish uchun mablag'i yo'q faqir-u miskinlar; qarzini to'lay olmay qiynalib yurgan*

qarzdorlar; musofirlikda kambag‘allashib qolganlar; zakotni birinchi navbatda qarindoshlik rishtalari bor kishilarga, qo‘ni-qo‘shni, mahalla-kuyga berish tavsiya etiladi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov o‘zlarining “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” asarida *aholining qaysi tabaqalariga birinchi galda ijtimoiy yordam ko‘rsatish lozim?* degan masalaga bu boradagi ilgari mavjud bo‘lgan tekischilik usuli, ya’ni *boqimandalikni* tanqid qilganlar. Mazkur asarda alohida qayd etib o‘tilganidek, “Eng kam ish haqi va nafaqalardan soliq olinmaydigan bo‘ldi; boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari va yolg‘iz nafaqaxo‘rlar uchun bepul nonushtalar, 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun bepul ovqat, barcha maktab o‘quvchilari va talabalar uchun ovqatni arzonlashtirish kabi imtiyozlar berildi.

Ko‘pgina toifadagi fuqarolarga turar joyi shaxsiy mulk qilib bepul berildi, ba’zi turdagi kommunal xizmatlar haqini to‘lashda yangiliklar joriy etildi.

O‘qituvchi tarix ta’limida integratsion yondashmoqni davom ettira borib, o‘quvchilarga Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat tushunchasi va uning mazmunini bayon etar ekan, tarixda qayd etilgan hozirgi zamon taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri – Buyuk Britaniyaning eng yangi tarixi bilan, aniqrog‘i asrimizning 80-yillaridagi tarixi va unda “Temir xonim”, “Tetcher erasi” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan davrda konseruatorlar yo‘lboshchisi Margaret Tetcherning (Britaniyaning ilk ayol bosh vaziri sifatida tarixga kiradi, 1979) hokimiyat tepasida turgan davri –“Tetcherizm” bilan, ayniqsa uning quyidagi besh tamoyili bilan atroflicha tanishtirish, O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining o‘ziga xos besh tamoyilini ishlab chiqishda jahon yetakchi mamlakatlarining XXI asr bo‘sag‘asidagi davlatchilik faoliyatini mexanik ravishda ko‘r-ko‘rona emas, balki ularga O‘zbekistonning o‘ziga xos milliy xususiyatlaridan kelib chiqib ijodiy, zarur bo‘lgan holda esa tanqidiy munosabatda yondashib, o‘quvchilarga chet el

davlatchiligi nazariyasiga tahliliy tafakkur munosabatlarida bo‘lish kunikmalarini faol va sistemali ravishda shakllantirib borishga erishish kerak. Mazkur o‘rinda “Tetcherizm”ning quyidagi besh tamoyilini dars jarayonida talabalarga mustaqil tahlil etish va “Tetcherizm”ning Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lining besh tamoyili bilan qiyosiy taqqoslashtirish yo‘lida qilingan metodik usulini keltiramiz:

1. “Gullab-yashnayotgan har qanday iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi xususiy tadbirkorlik bo‘lishi kerak.

2. Davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi minimum darajaga tushishi lozim; u aslo xususiy tashabbuslarni bo‘lmasligi kerak.

3. Barcha mehnatga qobiliyatli fuqarolar o‘zini o‘zi ta‘minlamog‘i kerak. Davlat va hayriya tashkilotlari o‘z aybisiz ishlash imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolgan mehnatga qobiliyatsizlarga yordam ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, davlat ijtimoiy dasturlaridan voz kechish yoki uni eng past darajaga tushirish lozim (T.T.).

4. Davlat balanslashtirilgan tanqisliksiz budjetga ega bo‘lishi kerak. Uning eng muhim qismini barcha aholi daromadiga binoan to‘laydigan soliqlar tashkil etadi. Iqtisodiyot tartibiga qat’iy rioya qilib, xarajatlarni kamaytirish zarur.

5. Kasaba uyushmalari mehnatkashlar manfaatini qonuniy vositalar bilan himoya qilishga haqli, bunda boshqa odamlarning manfaatlariga zarar yetkazmasligi kerak. Shuning uchun ham jamiyatga zarar yetkazadigan ish tashlashlar o‘tkazish huquqi cheklanishi lozim.

F.Pospelovning yozishicha, 1870-yilda Zarafshon vodiysining Buxoro amirligi qismida qurg‘oqchilik bo‘lib, ota-onalar tirik qolish maqsadida o‘z farzandlarini bir kosa unga sotganlar. Ko‘pchilik dehqonlar bor-yo‘g‘idan ajralganlar (*“Туркистанское селское хозяйство” jurnali. 1912-yil, 6-son, 479-bet.*) Buxoro amirligiga nisbatan bunday siyosat ham sho‘rolar davri manbahunosligida “Ochiq eshiklar” siyosati deb atalmagan. Shu bois istiqbolimizdan

keyin paydo bo‘layotgan tarix “darslik”lari ham eski sho‘rolar qolipi bilan borib, hamon Samarqand shartnomasi bosqinchi rus chorizmi tomonidan Buxoro amirligiga nisbatan aynan “Ochiq eshiklar” siyosatining har qanday sivilizatsiyani inkor etadigan yovvoyi formasi ekanligini ilmiy asosda isbotlab berishga ojizlik qilmoqda. Xuddi shu narsani 1873-yil 12-avgustda rus generali Kaufman bilan Xiva xoni Muhammad Raximxon II Gandimiyonda imzolangan tengsiz shartnoma xususida ko‘rsatib o‘tsa ham bo‘ladi. Gap shundaki, Gandimiyon shartnomasi asosida ham quyi Amudaryoning o‘ng sohilidagi serhosil unumdor yerlar Rossiya mulki deb e‘lon qilingan edi. Rus savdogarlari Buxoro amirligida bo‘lganidek, Xiva hududida ham xohlagan joyda, xohlagan mahsuloti bilan mahalliy hukumatga hech qanday soliq to‘lamasdan savdo-sotiq qilish huquqiga ega bo‘lgan edi. Bundan tashqari mahalliy hokimiyatdan hech qanday ruxsat olmasdan turib savdo yoki sanoat tarmoqlarini ko‘rish, ulardan o‘z xohishlari bilan foydalanish mumkin edi. Yana shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, xonlik xususida rus chorizmi tomonidan qilingan jinoyat mahalliy qozilar tomonidan ko‘rib chiqilib, jazolanish mutlaq man etilgan edi. Bundan tashqari xonlik rus chorizmi bosqinchlariga 2 million 200 000 so‘m tovon to‘lab, uning ustiga o‘zining rus podshosining vassali ekanligini mutlaq tan oldirilgan edi. Ko‘rinib turibdiki, mazkur o‘rinda ham rus chorizmi O‘zbekiston xonliklarini bosib olish jarayonida sivilizatsiyalashgan g‘arbda Xitoyga nisbatan qo‘llagan “Ochiq eshiqlar” siyosatini joriy etganlar. Natijada xalq manfaati, uning ma‘naviy qadriyatlarini batamom oyoqosti qilingan.

Yuqorida qayd etganimizdek, mahalliy tarixshunos olimlarimiz mazkur masalani bayon etishda ham hamon eski sho‘rolar qolipidan chiqmaganlar. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirsak bo‘ladi. O‘z milliy istiqloliga erishgan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimida tarix o‘rganishga integratsion yondashuv tom ma‘noda yoshlarimizda milliy mafkurani faol shakllantirib borishda ham ulkan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadigan jarayondir.

Shunday qilib, tarix ta'limiga integratsion yondashish – o'quvchilar bilim saviyalari va tahliliy tafakkur qobiliyatlarining rivojlantirib borishda, tarix o'qitish metodikasi fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va rolini to'g'ri belgilash va baholashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va integratsiyalashtirish g'oyasini amalga oshirishning asosiy omillari nimalarda deb o'ylaysiz?

2. Har bir shaxsda mantiqiy tafakkur qobiliyatini uzluksiz rivojlantirishda insonparvarlik, demokratik va integratsion yondashishga erishish yo'llarini bilasizmi?

3. Tarix ta'limida integratsion yondashish metodikasining amalga oshirilishi asosan qaysi jihatlarga bog'liq?

4. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida integratsion jarayonlarning qanday yo'llari belgilab berilgan?

8-MAVZU: DARS TAHLILINING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Dars – o‘quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli.
2. Zamonaviy tarix darsi, unga qo‘yiladigan talablar.
3. Tarix darslari mavzularining uzviyligi va didaktik jihozlanishi.

Dars tahlilining maqsadlari va vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda tavsiya etilgan ilg‘or tajribalarni amalga joriy etish; ta‘lim usulining didaktik prinsiplariga amal qilish; ijodiy izlanuvchi o‘qituvchilar tajribasini aniqlab ularni amalda qo‘llash.

Tarix kursi oldiga qo‘yilgan ta‘lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir sinfda o‘qitiladigan tarix kursining tutgan o‘rni, uning ta‘lim-tarbiyaviy vazifalari, har bir bo‘lim va bo‘limdagi mavzular, hatto har bir darsda o‘tiladigan mavzuning ham juz‘iy vazifalari oldindan aniq belgilab olingandan keyingina tarix o‘qitishga kirishish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida tarix o‘qitishning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish birinchi navbatda o‘qituvchining har bir darsning ta‘lim-tarbiya vazifalarini oldindan aniq va to‘g‘ri belgilab olib bilishiga bog‘liqdir. Bu ham, o‘z navbatida, o‘qituvchining darsning ta‘lim-tarbiya vazifalarini to‘g‘ri belgilash metodi va usullari haqidagi nazariy bilim va malakalarining darajasiga bog‘liqdir. Dars – o‘quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo‘lib, unda o‘qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o‘quvchilarning doimiy tarkibi bilan qat‘iy jadval bo‘yicha shug‘ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv dasturiga o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi. Dars o‘quv ishini tashkil qilishning asosiy shakli, ammo u ta‘limning boshqa shakllarini: leksiya, praktikumlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, seminarlar, konsultatsiyalar, uy vazifalari, qo‘shimcha mashg‘ulotlarni rivojlantirishni istisno etmaydi. Ta‘limni tashkil etishning yordamchi shakllari fakultativ mashg‘ulotlar sanaladi. Ular o‘quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil

etiladi: to‘garaklar, klublar, olimpiadalar, viktorinalar, ko‘rgazmalar, ekspeditsiyalar va hokazolar. Dars o‘quvchilarning doimiy tarkibi, mashg‘ulotlarning aniq belgilangan raqamga egaligi (har bir dars maktabda 40 daqiqa, akademik litsey va kolleжда 80 daqiqa davom etadi); jadval oldindan tuziladigan va o‘quv ishlari biror aniq mavzuda tashkil etilishi kabi o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan ta‘limning jamoa shakli hisoblanadi. Darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. O‘qituvchi darsda istisnosiz barcha o‘quvchilarning faoliyatlarini yo‘llaydi va nazorat qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlari orasidagi o‘zaro aloqa va o‘zaro kontrolni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchining darsdagi ishi barcha o‘quvchilarning darsning o‘zidayoq o‘rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko‘nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Darslarning turlari va strukturasi. Dars – darslarning butun tizimidagi zveno bo‘lib, ulardan har biri o‘zining ma‘lum vazifasini hal qiladi. Bu vazifa 30 o‘qitish zvenolaridan kelib chiqadi. Bunday ayrim darslar barcha zvenolarni, boshqalari faqat ayrimlarini, uchinchilari faqat bittasini qamrab olishi mumkin. Darslar qancha zvenoni qamrab olishi va qanday vazifalarni hal etishiga ko‘ra turlicha strukturaga ega bo‘lgan tiplarga bo‘linadi. Struktura – bu dars qismlarining nisbati va o‘zaro bog‘lanishi bo‘lib, ular o‘z vazifasi va o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyati xarakteri bilan farq qiladi. Demak, yetakchi didaktik vazifa va strukturaga ko‘ra darslar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) kombinatsion darslar (o‘qituvchi yangi materialni tushuntiradi, mustahkamlaydi, takrorlaydi, kontrol qiladi);
- 2) yangi materialni o‘rganish darslari;
- 3) bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash darslari;
- 4) mashqlar va amaliy ishlar darslari;
- 5) umumlashtiruvchi takrorlash darslari;
- 6) laboratoriya darslari.

O‘quvchilar bilimini nazorat qilish, tekshirish va baholash darslari, bundan tashqari standart bo‘lmagan, innovatsion dars shakllari ham

keng qoʻllaniladi: seminar-darslar, konferensiya-darslar, rolli oʻyinlar, integrallashgan darslar. Aralash yoki kombinatsion dars oʻzida oʻquv ishlarining turli maqsad va turlarini aks ettiradi – oʻtilgan material ustida ishlash – yangi mavzularni anglash va oʻzlashtirish – amaliy koʻnikma va malakalarni hosil qilish. Shu bilan bogʻliqlikda aralash darsda odatda quyidagi strukturaviy komponentlar ajraladi: oʻquvchilarni darsga tayyorlash takrorlash-umumlashtirish ishlari; yangi materialni anglash va oʻzlashtirish ishlari; bilimlarni amaliyotda qoʻllash koʻnikma va malakalarini shakllantirish ishlari boʻyicha ishlar uyga vazifa; yangi materialni bayon qilish darslari. Oʻqituvchi tomonidan oʻquvchilarni yangi material ustida ishlashdan xabardor qiladi va oʻrta va yuqori sinflarda katta hajmli va murakkab materiallarni oʻrganishda muvaffaqiyatli qoʻllaniladi. Bunday dars strukturasi: oʻquvchilarni darslarga jalb etish, dars maqsadlarini qoʻyish; qisqa tekshirish, uyga vazifa. Oʻrganilgan materialni mustahkamlash va amaliy koʻnikma va malakalarni hosil qilish darslari uning yanada chuqurroq anglash va oʻzlashtirish, amaliy koʻnikma va malakalarni amaliyotda qoʻllash maqsadidan kelib chiqib, hamma sinflarda alohida mavzuni yoki boʻlimlarni oʻrganilgandan keyin oʻtilgan materialni takrorlashga yoʻnaltirilib oʻtkaziladi. Takrorlash, tizimlashtirish va umumlashtirish darslari oʻquv dasturining katta boʻlimlarini takrorlash bilan bogʻliq va darhol mavzularni oʻrganilgandan keyin yoki oʻquv yili oxirida oʻtkaziladi. Dars tuzilishi zamonaviy dars amaliyoti va nazariyasida prinsipial, ahamiyatga ega, xuddi shunday taʼlimda samaradorligi va natijaga egaligini aniqlab beradi. Dars elementlari sifatida quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi: – yangi materialni oʻrganish; uyga vazifa; bilimlarni nazorat qilish; – bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish; oʻrganilgan materiallarni mustahkamlash. Darsni tayyorlash va oʻtkazish. Zamonaviy darsga qoʻyilayotgan yuksak talablar oʻqituvchini har bir darsga juda kuchli va puxta oʻylab tayyorlanishga majbur qiladi. Har bir darsga puxta tayyorlanishning sababi oʻquvchilar tarkibining oʻzgarayotganligi, akseleratsiya jarayonlarining kuchayuvi, informatsiyalarning “seldek” oqib kelayotganligi, turli mafkuraviy poligonlarning paydo

bo'layotganligi, ish sharoitlarining ham o'zgarayotganligi, ta'limda yangi innovatsion va axborot texnologiyalaridan keng foydalanilayotganligidadir. Ammo, o'qituvchining har bir alohida darsga tayyorlanish, uning o'z o'quv ishiga tayyorlanish tizimining bir qismi, xolos.

Bu tizim:

- 1) o'qituvchining o'z predmeti bo'yicha o'zlashtirish;
- 2) o'quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanish;
- 3) har bir darsga tayyorlanishni ichiga oladi.

Har bir alohida darsga tayyorlanishda o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi: mavzuni aniqlaydi va dars vazifalarini konkretlash-tiradi; o'quv materialini mazmunini ajratadi va uni didaktik jihatdan ishlab chiqadi (yetakchi tushuncha, qonuniyat, fakt va amaliy ma'lumotlarni ajratadi); ilgari o'rganilgan mavzular bilan bog'lanishni, mazmunni joylashtirish mantiqini nazarda tutadi; o'quvchilarning o'quv- bilish faoliyatlari xarakterini aniqlaydi, ya'ni qanday ko'nikma va malakalar shakllanishini, reproduktiv va izlanish faoliyati, mustaqil ish va o'qituvchining roli o'rtasidagi nisbat qanday bo'lishini o'ylab qo'yadi. Shu shakllarni ishlab chiqadi, dars qismlarini ajratadi. O'qitish metodlari: masala, mashq, muammoli savollar, topshiriqlarni tanlaydi va aniqlaydi. Butun dars jarayonini rejalashtiradi. Yaxshi tayyorlangan darsni yana uyushgan holda aniq va samarali o'tkaza bilish ham kerak. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- 1) darsni aniq va uyushgan holda boshlash, buning uchun esa darsga hamma narsa oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak;
- 2) o'quvchilar e'tiborini dars mazmuniga qarata bilish va uni butun dars davomida o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirib saqlay bilish;
- 3) darsda vaqtdan oqilona foydalanish;
- 4) o'z xatti-harakatini kuzatish. G'oyaviy e'tiqod, yuksak axlo-qiylik va madaniyat, gapirish va talab qilish, rag'batlantirish, o'quvchi-larga murojaat qilish uslubi, bularning barchasi o'qituvchi faoliyatining

uslubini belgilaydi hamda o'quvchilarning zo'r berib ishlashi yoki o'ta emotsional qo'zg'aluvchanligini istisno qiladi;

5) darsda tadbirkorlikni namoyish qilish, darsni o'tkazish sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish zarur. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini, shuningdek, uning boshqa darslar sistemasida tutgan o'rni aniq belgilash va shu vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Lekin har qanday tarbiyaviy vazifani ham, bir yoki bir necha darsda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ayrim tadbirlar vositasida batamom mukammal hal qilib bo'lmaydi. Har bir tarix darsida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan g'oyaviy va tarbiyaviy vazifalarning qandaydir bir elementi amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'qituvchi har bir tarix darsiga tayyorlanishda bu dars oldin o'tilgan darslarning davomi, bu darsda hal qilinishi kerak bo'lgan ta'lim-tarbiya vazifalari esa oldingi yoki kelgusi darslarda bajariladigan ta'lim va tarbiya vazifalarining ajralmas bir tarkibiy qismi ekanligini unutmasligi kerak. Ilmiy dunyoqarashning asosini tashkil etuvchi muhim tushunchalarni o'quvchilar asta-sekinlik bilan, bir qancha darslar davomida o'zlashtirib boradi, yangi tushunchalar keyingi dars materiallari asosida konkretlashib, yangi mazmun bilan boyiydi. Keyingi dars o'quvchilarning avvalgi darslarda olgan bilimi, orttirgan malakalarini kengaytiradi, ularda yangi tushunchalar hosil qiladi. O'quvchilar tarixiy jarayonlarni keng va chuqurroq tushunadigan bo'lib boradi. O'qituvchi har bir navbatdagi darsni rejalashtirar ekan, butun tarix kursining bir qismi bo'lgan bu darsda ta'lim va tarbiya vazifalarining qaysi bo'lagi yoki elementi qay darajada, qanday materiallar asosida va qaysi tomonini hal qilishi, o'quvchilarni qanday umumiy xulosalarga olib kelishi, qanday tarixiy tushunchalarni aniqlashi yoki kengaytirishi, qanday yangi g'oyalar tushuntirilishi, ularni qay tarzda tanishtirishi kerakligini puxta o'ylab olishi zarur. O'qituvchi butun tarix kursining ta'lim-tarbiya vazifalarini ayrim mavzularning ta'lim-tarbiya vazifalari bilan bog'lab rejalashtirmog'i

kerak. Mavzular bo'yicha rejalashtirish mavzularni o'qitishning metodik sistemasini ishlab chiqishga yordam beradi. Mavzular bo'yicha rejalashtirganda har bir mavzuning butun tarix ko'rsida tutgan o'rni va roli aniqlab olinadi. Har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalari o'z - o'zidan emas, balki o'qituvchining ongli va rejali ishi asosidagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchi darsga tayyorlanayotganda o'quv dasturining hajmi va mazmunini hisobga olib material tanlaydi, dastur va darslik asosida dars rejasini tuzadi, materialni joylashtiradi va uni bayon qilishda hujjat va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalanish metodlarini belgilaydi. Ammo, bu ishlar o'qituvchi darsning asosiy g'oyasini, undan ko'zlanayotgan ta'lim-tarbiya vazifalarini, darsda nimaga erishish, o'quvchilarda qanday tasavvur va tushuncha hosil qilish kerakligini aniq va to'g'ri hal qilgan taqdirdagina o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin. Darsning bosh g'oyasi va uning tarbiyaviy vazifalari to'g'ri va aniq belgilanmay o'tkazilgan dars dasturida ko'rsatilgan faktlarni tasodifan, shunchaki sanab o'tishdan iborat bo'lib qoladi. Material tanlash va uni izchillik bilan joylashtirish, darsda qo'llaniladigan butun didaktik usullar va metodik vositalarning hammasi darsning bosh g'oyasiga, uning ta'lim va tarbiya vazifalarini hal etish maqsadiga buysundirilishi kerak. Shuning uchun ham har bir darsning bosh g'oyasi va uning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniqlash o'qituvchining darsga tayyorlanishida eng muhim bosqichni tashkil qiladi. Tarix darsiga tayyorlanishning bu muhim bosqichi eng mas'uliyatli bo'lishi bilan birga, ishning eng qiyin tomoni hamdir. Tarix darslarining bosh g'oyasini, uning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilash, ayniqsa, yosh, tajribasiz o'qituvchilar uchun qiyin kechadi. Ular ko'pincha darsning ta'limiy vazifalari bilan tarbiyaviy vazifalarini aniq ajrata olmay, ularning birini ikkinchisi bilan aralashtirib yuboradilar yoki konkret dars materialini, uning mazmunini hisobga olmay, tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda belgilash bilan cheklanib qo'ya qoladilar. Bunday o'qituvchilardan ko'pincha -shu darsingizda qanday muhim tarbiyaviy vazifalarni hal qilishingiz kerak edi? – degan savolga, – o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashni ko'zda

tutdim, – degan mazmundagi umumiy javob olinadi. Tekshirib ko‘rilganda, mavzularning g‘oyaviy mazmuni va ta‘lim-tarbiya vazifalarini ochib berishga ojizlik qilgan bu talabalarning ko‘pchiligi O‘rta ta‘lim va O‘rta maxsus ta‘lim tizimida tarixdan dars beruvchi o‘qituvchilar ekanligi aniqlandi. Ayni vaqtda ularga tarix o‘qitish metodikasining nazariy qismi ham o‘tilgan edi. Ko‘p yillik pedagogik amaliyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar uchun darslarning maqsadini, ta‘lim-tarbiya vazifalarini belgilash eng muhim, mas‘uliyatli ish bo‘lish bilan birga, chuqur bilim, malaka va mahoratni talab qiladigan juda murakkab ishdir. Binobarin, yuqori malakali tarix o‘qituvchilarini tayyorlashda bu muhim masalaga alohida e‘tibor berish talab qilinadi. Avvalo shuni aytish kerakki, tarix darslarining g‘oyaviy mazmuni, ta‘lim-tarbiya vazifalari tarix dasturida berilgan material mazmuniga qarab belgilanadi. O‘qituvchi darsda tarixiy voqealar va ayrim faktlarni bayon qilar ekan, o‘quvchilar uchun ularni bilishning qanday ahamiyati borligini jiddiy o‘ylab ko‘rishi, eng muhim va xarakterli tarixiy faktlarni ayniqsa kengroq qilib gapirib va tahlil qilib berishi, voqealarning mohiyati, uning qonuniyatlari va tarixiy ahamiyatini ochib ko‘rsatishi lozim. Tarix darslarining asosiy mazmunini tashkil etuvchi tarixiy voqeaning mohiyatini, uni keltirib chiqargan sabablarini, uning qonuniyatlari, ahamiyati va natijalarini chuqur o‘rganish asosidagina darsning g‘oyaviy mazmunini, ta‘lim-tarbiya vazifalarini to‘g‘ri va aniq belgilash mumkin.

O‘qituvchi tarix darsining mazmuni, ta‘lim-tarbiyaviy vazifalarini belgilashda tarixiy asarlar va davlat hujjatlariga asoslanib ish ko‘rishi kerak. Davlat hujjatlari tarix o‘qitishning nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Asarlar yuqoridagi namunalarda keltirilganidek, ba‘zi mavzularnigina emas, balki butun tarix kursining mazmuni, ta‘lim-tarbiya vazifalarini belgilashda o‘qituvchi uchun asosiy metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, darsda ulardan foydalanish o‘qitishning g‘oyaviy, ilmiy-nazariy saviyasini oshirishga yordam beradi. Mavzuni zamonga bog‘lab o‘rganish uning mazmunini chuqurroq anglab olishga yordam

beradi, mavzuni o'rganishga ko'proq qiziqtiradi, uni aktuallashtiradi, darsning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Tarixni hozirgi zamon bilan bog'lash uchun avvalo, butun kishilik jamiyati tarixining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va almashinib turishi muqarrar ekanligi haqida bayon qilish, tarix darslarining g'oyaviy mazmuni ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashda tarix o'quv dasturining uqtirish usuli ham katta ahamiyatga egadir. Bu usulda tarix kursining ta'lim-tarbiyadagi roli, vazifalari va mazmuni aniq ko'rsatib berilgan.

Shuning uchun ham har bir darsga tayyorlanishda Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturining uqtirish usulidagi ko'rsatmalar nazarda tutiladi. Tarixdan metodik qo'llanmalar hamda maxsus metodik adabiyotlar ham katta rol o'ynaydi. O'qituvchi tarix darslarining ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashda albatta ulardan foydalanishi kerak. To'g'ri, tarixning hamma bo'limlari bo'yicha ham darslarning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishga yordam beruvchi ko'rsatmani topish qiyin. Shuning uchun bu sohada har bir o'qituvchi shaxsan o'z tajribasi, ijodiga tayanishi kerak bo'ladi.

Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish, uning ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri va aniq belgilab uyg'unlashtirib olib borishning o'zi kifoya qilmaydi. Muhim metodik vosita – darsda ta'lim-tarbiyani uyg'unlashtirib borishga yordam beradigan metod va vositalardan to'g'ri, o'rinli foydalana bilishdir. Tarix o'qitishda ta'lim bilan tarbiyani uyg'unlashtirib borishga yordam beradigan metod va vositalar nimalardan iborat? Tarix bilimlarining tarbiyaviy ta'siri shu bilimlarning qay darajada tarixiy faktlarga asoslanganligi va ularni darsda ishonchli hamda emotsional tarzda ochib berilishiga bog'liqdir. O'quvchilar tarixiy faktlarning to'g'riligini tushunib borishlari va faktlar asosida chiqarilgan xulosalar ular uchun ishonchli bo'lmog'i lozim. Shuningdek, o'quvchilar bayon etilgan faktlarning shu jihatdan to'g'riligiga komil ishonch hosil qilishlari ham zarur. Tarix o'qitishning muhim vazifasi – tarixiy hodisalarga berilgan ilmiy baholarni va o'rganilayotgan material yuzasidan chiqarilgan boshqa xulosalarni o'quvchilarga ishonarli qilib tushuntirib berishdan iboratdir. Ma'nosini yaxshi tushunmasdan yodlab

olingan xulosalar o'quvchilar uchun ishonarli bo'lmaydi, tafakkur bilan, emotsional kechinmalar natijasida, tushunib, bilib olingan xulosalar ishonarli bo'ladi. Tarix ilmi o'quvchilarning tarixiy faktlarga, xalqlarning faoliyatiga, ijtimoiy sinflarning namoyandalariga, ijtimoiy ideologiya va shu kabilarga emotsional munosabatini uyg'otadi. Tarixiy bilimlarni o'zlashtirishning emotsionalligi bilimlarning puxta egallanishida, tarixga qiziqishni oshirishda, tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirishda, bu bilimni o'rganishda, umuman o'quvchilarning faolligini kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. O'qituvchi tarix fanining bugungi kun talablari va O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursining maqsad, vazifalariga javob beradigan eng muhim tarixiy faktlarni tanlay bilishi, ularni o'quvchilar ongiga jonli va obrazli qilib yetkaza bilishi lozim. O'quvchilar ko'z o'ngida o'tmish va hozirgi zamon voqealari to'g'risida jonli va yorqin tasavvur hosil qila bilish, ularda his-tuyg'u uyg'otish, ijtimoiy hayotning yaxlit manzarasini gavdalantirish, bilimlarni ongli va puxta o'zlashtirishning muhim shartlaridandir. Shunga erishish kerakki, har bir ayrim va hatto qisqacha bayon qilingan tarixiy fakt, har bir geografik nom va shaxslarning faoliyati ham aniq obrazlar yordamida o'rganiladigan bo'lsin. Obrazli tasvir, obrazli bayon o'quvchilar bilimining ilmiy va puxta bo'lish shartlaridan biridir.

O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalari va mazmunini bilish tashkiliy formasi uchun tarix o'qitishning ilmiy asoslarini egallab olishning o'zi kifoya qilmaydi. Tarix kursini o'qitish, uni o'quvchilarning o'rganishi ham darsda va darsdan tashqaridagi mashg'ulotlarda ham davom etadi. O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy formasi darsdir. Zotan, tarix darslari tizimida har bir darsning tutgan o'ri va ahamiyatini to'g'ri belgilash, bu darsning ilmiyligi va g'oyaviyligini ta'minlash, bilish qonuniyatlari va maqsadga muvofiq o'quv shakllari hamda o'quvchilarning o'quv ishini tashkil etishga yordam beradigan, unga mos pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish alohida ahamiyatga egadir. Tarix darslarini turlarga bo'lish

muammosi tarix o'qitish metodikasi taraqqiyotining bosqichlarida metodistlar tomonidan turlicha hal etib kelindi. Darslarni turlarga bo'lish masalasida ikki asosiy yo'nalish mavjud edi: birinchi yo'nalish tarafdorlari o'qitish jarayonining qonuniyatlariga asoslanib, darslarni turlarga ajratadilar. Ularning fikricha, darslarni turlarga bo'lishda, ularga xarakteristika berishda ko'proq O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursi mazmunini o'zlashtirish jarayonining u yoki bu zvenosiga asoslaniladi. Darslarni turlarga bo'lishning bu prinsipini S.V.Ivanov birmuncha to'la ishlab chiqqan edi. Ikkinchi yo'nalishning vakillaridan biri I.N.Kazansevdur. U dars turlari klassifikatsiyasiga asosan darsni o'tkazish usullarini asos qilib oladi.

Tarix o'qitish metodikasi sohasida prof. V.N.Bernadskiy ham tarix darslari klassifikatsiyasiga metodik usullarni asos qilib oladi va tarix darslarini quyidagi turlarga bo'ladi: O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida ma'ruza, hikoya qilib berish darsi, tarixiy hujjatlarni tahlil qilish, badiiy adabiyotlardan foydalanish darsi, o'quvchilarning ma'ruzalariga asoslangan dars, prezident asarlarini o'qish va tahlil qilish darsi, kino darsi, ekskursiya materiallari asosida o'tkaziladigan darslar va hokazo. Shuningdek, V.N.Bernadskiy turli usullar yordamida o'tkaziladigan umumlashtiruvchi takrorlash darslarini ham alohida guruhlarga bo'ladi. Biroq, A.A.Vaginning o'sha asarida asosli ravishda ta'kidlanishicha, dars turlari klassifikatsiyasiga, dars o'tkazishning metodik usullarini asos qilib olib bo'lmaydi. Chunki dars o'tkazish metodi ham, dars turlari ham uning mazmuni va ta'lim qonuniyatlari bilan belgilanadi, tanlangan o'qitish metodi va dars turi o'z navbatida uning g'oyaviy mazmuni, ta'lim-tarbiya vazifalarini ado qilishga xizmat etadi. Shunga qaramay V.N.Bernadskiy tomonidan tavsiya qilingan dars turlari, o'sha davr uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, negaki, tarix darslarini xilma-xil strukturada o'tkazish mumkinligini ko'rsatib berdi. Ammo 60–70-yillarning boshlarida yaratilgan tarix darsliklarining faktik materiallar bilan haddan tashqari to'ldirib yuborilganligi hamda ularda metodik ko'rsatmalar yo'qligi darsda o'quvchilarning bilish faolligini va

mustaqilligini oshirishga, ularda zarur ko'nikma va malakalar hosil qilishga katta to'sqinlik qilar edi.

Darsliklarda to'lib-toshib turgan faktik materiallardan o'qituvchi dars davomida arang foydalanib ulgurar edi. Dars vaqti o'tgan mavzuni so'rash, yangi mavzuni bayon etish, mustahkamlash va uyga vazifa berishga yetardi, xolos. Xullas, ta'limning hamma jarayonlari shoshma-shosharlik bilan o'tilardi. O'quvchilarning materialni puxta o'zlashtirishni va malaka hosil qilishning muhim manbayi va vositasi bo'lgan hujjatlar va ko'rgazmali qurollar ustida olib boriladigan mustaqil ishlarni qilishga vaqt yetishmas edi. Ayni vaqtda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun zarur qo'llanmalar va tarixiy hujjatlardan iborat to'plamlarning yetarli emasligi, darsliklarning metodik ko'rsatmalarida savol va topshiriqlar berilmasligi ham darsda o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, mustaqilligini o'stirish ishini qiyinlashtirar edi. Buning ustiga 40-yildan to 50-yillarning boshlarigacha, tarix darslari turlari muammosi ustida maxsus tadqiqot ishlari olib borilmadi. Hattoki, tarix o'qitish metodikasidan nashr etilgan qo'llanmalarda ham dars turlari masalasi maxsus muammo qilib qo'yilmadi. Ammo shunday sharoitda ham, fanlarni o'qitish, jumladan tarix o'qitish sohasida qo'lga kiritilgan progressiv metod va usullardan, xilma-xil dars turlaridan ilg'or o'qituvchilar muvaffaqiyatli ravishda foydalanib keldi. Ular shablonga aylanib qolgan "aralash" dars turidan shunchaki foydalanmay unga ijodiy yondashdilar. Ilg'or o'qituvchilar va metodist olimlar O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishdagi nuqsonlarni bartaraf qilish yo'llarini izlay boshladilar. O'zligini anglashga intilgan har bir xalq o'tmishini bilishi zarur.

Tarixni o'rganish umuminsoniy qadriyatlarining mohiyatini anglab yetish uchun, barcha xalqlarning umumjahon tarixiy jarayonida qatnashib, jahon madaniyati xazinasiga qay darajada hissa qo'shganligini bilish uchun ham muhimdir. Yoshlarni tarixdan oladigan bilimlarini takomillashtirishning usullari turlichadir.

Jumladan, tarix o'qitish samaradorligini oshiradigan vositalardan biri darsda arxiv materiallaridan foydalanishdir. Dars o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida yoshlarga fan asoslarini o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Har bir darsda o'quvchilarda xarita, har xil suratlar, bezaklar ustida ishlash, jadvallar, reja va konspekt tuzish ko'nikma va malakalari hosil qilish yuzasidan ish olib boriladi. Demak, o'qitishning ilmiy asosda tashkil qilinishi o'qituvchining darsda har xil vazifalarni muvaffaqiyatli bajara bilishiga bog'liq. Tarix o'qitish tarixiy voqealarni bayon qilib berish va uni navbatdagi darsda so'rashdan iborat emas. O'qituvchi o'quvchilarni tarixiy voqealar ustida mustaqil fikrlashga, o'rganilgan tarixiy materiallardan tegishli xulosalar chiqarib olishga, uni umumlashtirishga, mavzular va umuman kursning asosiy masalalarini puxta o'zlashtirib olishga, turli matnlar, xaritalar bilan mustaqil ishlay bilishga, reja, konspekt, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzishga, ma'ruza va referatlar tayyorlashga, diagrammalar mazmunini tushunishga o'rgatishi lozim.

Xo'sh, tarix darslarini turlarga bo'lishda nimalarni ko'zda tutish kerak? O'quv materialining mazmuni, uning "darsining turi, o'ziga xos xususiyati, sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligi hamda darsdan kuzatilgan didaktik maqsadlar dars turini, uning strukturasi va metodlarini tanlashda asos bo'lib xizmat qiladi, tanlab olingan dars turi va metodi esa uning mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Dars turlari masalasini hal etishda formalizmga va standartga yo'l qo'ymaslik kerak, o'qituvchi navbatdagi mavzuni rejalashtirganda, uning mazmuni, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini izchillik bilan, mantiqan bog'lab o'rganishga yordam beradigan dars turlarini oldindan aniq belgilab olishi kerak. Shunday qilib, tarix 5–9-sinflarda va O'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladi. O'quvchilar sinfdan sinfga o'tgan sari tarixiy materialning ko'lami ortib, mazmuni murakkablashib, o'quvchilarning tarixiy bilimlari ham chuqurlashib, ko'nikma va malakalari o'sib boradi. Shu bilan birga, darslar tuzilishi jihatidan va mazmunan murakkablashib, darslarning

xilma-xil turlaridan foydalanish zaruriyati tug'iladi. O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limining yangi mazmuni va o'quvchilarning bilish faoliyatini yanada faollashtirish vazifalari tarix o'qitishning shakli va metodlarini takomillashtirish uchun imkoniyatlar ochib beradi. O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish mazmunan boyidi, o'qitishning mavjud shakli va metodlari takomillashdi, yangi shakl va metodlar yuzaga keldi. Keyingi yillarda seminar va boshqa amaliy mashg'ulotlar yuqori sinflarda tarix o'qitishning o'ziga xos shakliga aylanib qoldi.

Dars turlariga xarakteristika berishda ta'lim jarayonining qonuniyatlari, uning asosiy bosqichlari (o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga tayyorlash, material bilan tanishtirish, uni tahlil qilish, umumlashtirish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalar hosil qilish, olgan bilimni ishga solishga o'rgatish va tekshirish) asos qilib olinadi. Tarixni o'rganishning har bir bosqichi materialning mazmuniga qarab, o'ziga muvofiq shakl oladi. Tarix darsining turi o'rganilayotgan mavzuning g'oyaviy mazmuniga va o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy vazifalariga qarab belgilanadi. Binobarin, ta'lim qonuniyatlarini amalga oshirish va mavzuni o'rganishda foydalaniladigan dars turlarini unga muvofiqlashtirib borishning aniq usullari tarix dasturi materialining mazmuniga qarab belgilanadi.

Demak, tarix darslarini klassifikatsiya qilish, uning xilma-xil turlaridan foydalanish o'qituvchining shaxsiy xohishiga emas, balki O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish zaruriyatidan kelib chiqadigan tarix ta'limining asosiy qonuniyatlari bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchi dars turlarini tanlashda o'rganiladigan mavzuning mazmuni, xarakterini hamda uni o'quvchilarning ongli va puxta o'zlashtirishini, ya'ni ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlarini asos qilib olishi lozim. Dars turini bu yo'sinda tanlash esa O'rta ta'lim va O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda o'qitish

metodlari va usullari haqidagi masalani ijodiy hal qilishga yordam beradi.

Asosiy tushunchalar

Dars – o‘quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli. Tarix kursining ta’lim-tarbiya vazifalari – mavzularning ta’lim-tarbiya vazifalari bilan bog‘lab rejalashtirish. Ta’lim turlari – suqrotcha suhbat metodi, an’anaviy ta’lim, izohli-namunali (illyustrativ) ta’lim, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta’lim, ta’limni algoritmlash jarayoni, tabaqalashtirilgan, yakkama-yakka ta’lim va boshqalar.

Tarbiya –

1) shaxsning ma’naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta’sir etish;

2) pedagogik jarayonda ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Savol va topshiriqlar

1. Tarix o‘qitishda asosiy tashkiliy shakllar qaysilar?
2. Darslarning tiplari va strukturasi haqida gapiring.
3. An’anaviy dars strukturasi nima?

9-MAVZU: MILLIY QADRIYATLARNI ANGLAMOQ VATANNI ANGLAMOQDIR

REJA:

1. Maktabda tarix o‘qitishning tarbiyaviy xarakteri.
2. O‘quvchilarning kamol topishida tarix fanining ahamiyati.
3. Milliy qadriyatlarni qaror toptirishda tarix o‘qitishning o‘rni.

Tayanch iboralar: tarix o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning rivojlanishi va kamol topishida ko‘nikma va malakalarni hosil qilish yo‘llari, bunda tarix fanining ahamiyati.

Tabiiyki, milliy qadriyat tushunchasi fuqarolarimiz ongida, ayniqsa, o‘quvchi yoshlar tushunchalarida yo‘l-yo‘lakay shakllanib, kamol topib, insonni bu sohada harakatga keltiruvchi kuch darajasiga ko‘tarmaydi.

Bu borada har bir insonning tug‘ilib o‘sgan maskani – Vatani, uning tabiati va tarixiga qiziqishlarini bilish, kamol toptirish asosiy omil hisoblanadi. Ana shunday omil o‘z navbatida maktabda o‘rganiladigan fan asoslarining maqsad, mazmun va vazifalari jamlanishidan kelib chiqmog‘i lozim.

Maktabda o‘rganiladigan barcha fanlarda, ularning dasturlari va dars rejalarini tuzish, ta’limiy-tarbiyaviy va ayniqsa, rivojlantirib boruvchi ta’lim maqsadlarini ilmiy-uslubiy va didaktik jihatdan aniqlab olishda o‘quvchi yoshlarning o‘z xalqi milliy qadriyatlari va vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Lekin, shunga qaramasdan o‘rta maktablarda o‘rganiladigan O‘zbekiston xalqlari tarixining o‘rni, ilmiy-uslubiy imkoniyatlari ko‘lami birmuncha katta. Demak, unga e’tibor ham shunga yarasha bo‘lmoqda. Masalan, sobiq Ittifoq davrida “O‘zbekiston SSR tarixi” deb atalmish maxsus maktab kursi yo‘q edi. U bor-yo‘g‘i 22 soat davomida SSSR tarixi kursi tarkibida o‘lkashunoslik ashyolari sifatidagina o‘rganilar edi. Bugungi kunga kelib istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston xalqlari tarixi V–XI sinflarda o‘quv yili davomida o‘rganiladigan bo‘ldi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida” asaridan “*Ekologik muammolar*”, “*Ma‘naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi*”, “*Kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligining ortishi*” mavzularidan, shuningdek, Birinchi Prezidentimizning “*huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida*”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “*O‘qituvchilar va o‘quvchilar turmushi moddiy ish sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil avgust oyida bo‘lib o‘tgan sessiyasi materiallaridan maqsadga muvofiq foydalanildi. O‘rta maktablarda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarida Birinchi Prezidentimiz asarlarini o‘rganish xususida Xalq ta‘limi yoki Respublika Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan maxsus buyruq asosida ma‘ruza, seminar mashg‘ulot davomida o‘rganish xususida maxsus farmon e‘lon qilindi. Biz o‘quvchilarni g‘oyaviy-siyosiy, mafkuraviy fuqarolik tarbiyalarida davr nafasi bilan hamohang bo‘lish maqsadida o‘zimizning faoliyatimizga ijodiy yondashib, uni ijodiy rivojlantirib borib, yuqorida qayd etilgan birinchi Prezidentimiz asarlari, farmon va davlat hujjatlarini mustaqil o‘rganishga kirishdik va o‘quvchilarga chuqur bilim berish bilan bir vaqtda ularning diqqat-e‘tiborlarini istiqbol mafkurasiga jalb etish, uning asosiy prinsiplarini anglab olishlariga samarali yo‘llash bilan birga istiqbol tufayli milliy qadriyatlarimizni anglashga muvaffaq bo‘layotganligimizni aniq misollar, hukumat tadbirlari asosida tushuntirib berishda birmuncha muvaffaqiyatlarga erishdi.

Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida davlatimizning kelajak istiqboli ko‘rsatib berilishi bilan chegaralanmasdan, balki unga erishish yo‘llari ham asosli qilib ko‘rsatib berilgan.

Milliy qadriyat, ma‘naviyat, madaniyat umumbashariy qadriyat, ma‘naviyat va madaniyatning sarchashmasidir. Ana shu sarchashma

ma'lum makonda, ya'ni Vatanda vujudga keladi. Shunday ekan, milliy qadriyat va madaniyat bevosita vatanparvarlik bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Turkiston xalqlari tarixi insoniyatning eng oliyjanob orzu-umidlari, ezgu niyatlarini o'zida mujassamlashtirgan ana shunday vatanparvarlik his-tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan desak mubolag'a bo'lmas. To'maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Bobur... eh-he yana qancha-qancha dovyurak qalblar.

Biz o'zimizning pedagogik faoliyatimizda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ana shunday katta imkoniyatlarimizdan har doim ham maqsadga muvofiq foydalana olmayapmiz. Masalan, biz jafokash xalqimizning azaliy orzusi–milliy mustaqillikka erishganimiz tufayli Sohibqiron Amir Temur asos solgan imperiya tarixini o'rganishga bag'ishlangan mavzuni o'tishimizda o'quvchilarni vatanparvarlik tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi haqiqiy, asosli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlariga egamiz. Afsuski, tarix o'qitish uslubiyatidan chop etilgan maxsus adabiyotlarda turli sabablarga ko'ra Amir Temur shaxsiga tavsif berishda tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatish holatlari bo'lgan. Ming afsuski, milliy qadriyat va Vatanni anglamoq O'zbekiston xalqlari tarixidan chiqayotgan boshqa kitoblarda ham o'zining haqiqiy ifodasini topmayotir.

Biz yuqorida o'quvchi yoshlarimizni milliy qadriyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim-tarbiya o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda o'qitiladigan O'zbekiston xalqlari tarixidan olingan aniq misollar asosida ko'rsatib o'tishga harakat qildik. Holbuki, O'zbekiston maktablarida ta'lim-tarbiya ishlari yetti tilda olib boriladi. Jumladan, respublikamizda **qozoq** tilida o'qitiladigan maktab va sinflarda 144970 nafar o'quvchi, **tojik** tilida – 129971, **turkman** tilida – 19221, **qoraqalpoq** tilida – 125060 nafar o'quvchi o'z ona tillarida ta'lim olib, o'z xalqlari tarixini o'rganadilar. Shunday ekan, bu maktablarda ham Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va hokazo xalqlar tarixlari darsliklarida ham o'quvchi yoshlarimizni

milliy qadriyat va otashin vatanparvarlar etib tarbiyalash muammolari ijobiy hal etilib, davrimiz talabi darajasiga ko'tarilgan bo'lmog'i kerak. Kezi kelganda shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, so'nggi yillarda Bo'riboy Ahmedov kabi teran tarixchi olimlarimiz qatori **Mirmuhsin, Muhammad Ali, Yavdat Ilyosovlar** kabi yozuvchilarimiz tarixiy mavzularda yetuk asarlar yaratib, milliy qadriyatlarimizni anglab olishimiz va o'quvchi yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Maktablarimizda O'rta Osiyo xalqlarining odob-axloq me'yorlarini o'zida mujassamlashtirgan din tarixi, odobnoma darslarining joriy etilishi ham mamlakatimizda o'zligimizni anglash mavridimizda katta siljishlar boshlanganligidan darak bermoqda.

Maktablarda o'qitilayotgan tarix kurslari, davlat va huquq asoslari, inson va jamiyat, o'zbek adabiyoti va chet mamlakatlar adabiyotlarini o'rganish jarayoniga, ayniqsa, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarini o'rganish va yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizni chuqur ehtiros bilan o'rganish va kelajagi buyuk bo'lgan davlatimizning bunyodkorlari, jangovar vatanparvarlarini tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim rol o'ynashi kerak.

Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan qudratli davlat qurish xususida fikr yuritar ekan, davlat-lashkarlari, fuqarolarning sadoqati va fidoyiligi-ila qudratlidir – deb alohida qayd etganlari bejiz emas edi.

Milliy timsollar va ramzlarning har biri yana shu buyuk g'oyaga, milliy g'ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov milliy qadriyatlarimizga alohida to'xtalib, *“Bizda azaldan ota-onaga hurmat, ehtimom ko'rsatish qaror topgan. Har bir farzand o'z ota-onasi bilan faxrlanishi lozim. Ota-ona ham farzandlari iftixor qilishiga loyiq kishilar bo'lishi taqozo etiladi. Biz qadriyatlarimizga rioya qilishga katta ahamiyat bermoqdamiz. Demokratiyani qaror toptirishda milliy o'ziga xoslik hisobga olinishi haqida so'zlasam, ayrim muxoliflar bu fikrni anglama-*

yaptilar. Ammo, men o‘z fikrimda sobitman, uni himoya qilishga ham tayyorman. Albatta, demokratiyaning umumiy talablari barcha uchun qoida bo‘lishi kerak. Biroq biz musulmon xalqmiz. Sharm-hayo, or-nomus har birimizda mustahkam”, – deb aytganlarida har tomonlama va har bir kishi uchun haq fikrni aytdilar.

Milliy o‘zlikni anglash aynan ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish, o‘z xalqining tarixi, madaniy merosini o‘rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma’lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma’naviy boyliklarga ega bo‘lishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Milliy-ma’naviy qadriyatlar ko‘p asrlik tarixga ega. O‘zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo‘lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko‘rsatadi. Misol uchun, “Avesto”ni olaylik. Bundan 2700 yil muqaddam o‘n ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo‘lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o‘tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to‘planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, xattotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o‘z qimmatini yo‘qotmadi. Davrlar o‘tishi bilan milliy-ma’naviy qadriyatlar ham o‘zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me’yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bunga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi, kiyinish, ovqatlanish, to‘y-hashamlarni o‘tkazish va boshqalardan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Insoniyatning oxirgi yarim ming yillik umri davomida jahon bozori paydo bo‘ldi, iqtisodiyot va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri kuchaydi. XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo‘ladigan ta’sir beqiyos darajada zo‘raydi. Bu ta’sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo‘lgan odat va

harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy-ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bir tuzumdan boshqasiga o'tish davrida aholining ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'z umrini yashab bo'lgan g'oyalar va mafkuraviy aqidalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o'rnini yangilari bilan to'ldirish osonlikcha kechmaydi. Shularni hisobga olib, aytish mumkinki, milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini uyg'otish uchun ma'naviyat, milliy ma'naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko'rinishlari milliy-ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar;
- ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san'at va milliy adabiyot;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;
- urf-odat, an'ana va marosimlar;
- ma'rifat, ta'lim-tarbiya va hokazolar.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimida *tarixiy meros va tarixiy xotira* muhim o'rin tutadi. Ma'naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko'tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o'rganish, undan saboqlar chiqarish lozim. O'zbek xalqi jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, qadimiy qo'lyozmalar – milliy ma'naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrlil va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Bularni avaylab-asrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir.

Ilm-fan va uning yutuqlari – milliy yoki hududiy chegaradan chiqadigan, butun jahon e'tirof etadigan, umuminsoniyatga xizmat

qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatni jami bashariyatning yutug‘iga aylantiradi. Milliylik xalqning ruhiyati va ma’naviyati, ayniqsa, san’at va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat’i nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.

Milliy ma’naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlar munosib o‘rin egallaydi va milliy o‘zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, jamiyatning ma’naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega. Shularni hisobga olib, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Turkiston Press” agentligi muxbirining savollariga javob berar ekan, madaniy, ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan avlodga yetkazishda dinning beqiyos xizmati borligini uqtiradi: *“Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o‘zligimizni yo‘qotamiz”*, deb ta’kidlaydi. Har bir xalq, millat yaratgan ma’naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o‘ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, urf-odat va marosimlarda to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o‘zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan rioyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimida o‘z o‘rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog‘liq ekanligi qanchalik haqiqat bo‘lsa, ularni milliy ruhda tarbiyalash zarurati ham umume’tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o‘z-o‘zini saqlash va istiqbolini ta’minlash omilidir. Xulosa qilib aytganda, milliy ma’naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar – milliy g‘oyaning ma’naviy negizi. Milliy g‘oya – millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi

shakli, xalq falsafasining o‘zagidir. Turli xalqlarning milliy g‘oyasi ularning maqsad muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e‘tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o‘tkinchi manfaat va g‘aliz niyatlarga tayangan, o‘zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko‘zlagan yovuz g‘oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g‘oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g‘oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

Savol va topshiriqlar

1. Milliy qadriyat tushunchasini batafsil izohlay olasizmi?
2. Milliy qadriyatlar va vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishning asosi nimalarda ifodalanadi?
3. Milliy qadriyat, ma’naviyat, madaniyat tushunchalarining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Eslab ko‘ringchi, so‘nggi yillarda qaysi tarixchi olimlarimiz, yozuvchilarimizning tarixiy mavzularda yaratgan asarlarida milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik o‘z aksini topgan?

10-MAVZU: TARIX O‘QITISHDA PEDAGOGIK VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

REJA:

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning shakllari.
2. Tarix darslarida o‘quvchiga yondashish bo‘yicha yangi texnologiyalar.
3. Tanqidiy fikrlash metodlari ustida ishlash.
4. O‘qitishning interaktiv metodlari va ularni qo‘llash.

Hozirgi zamon jamiyatida ta’lim jarayonlarining rivojlanishi. Ta’lim sohasida pedagogik jarayonlarga texnologik nuqtayi nazardan yondoshish. Tarix o‘qitishda texnologik yondashuv va o‘quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish. Bugungi kunda tarix ta’limi jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi. Tarix o‘qitishda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va malakalarning oshib borishi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning shakllari. Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko‘plab ishlab chiqarish sohaslarini texnologiyalashtirishga sabab bo‘lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, gumanitar bilimlar sohaslariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta’lim sohasida ham. “Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug‘atlar talqini bo‘yicha (“techne” – san’at, hunar, fan; “logos” – tushuncha, ta’limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to‘plami demakdir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san’atini ham o‘z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operatsiyalar ma’lum ketma-ketligini ko‘zda tutadi. Texnologiya protsessual mazmunda “qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?” degan savolga javob beradi. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi o‘qitish nazariyasidan keyingi paytlarda

yanada kengroq tarqaldi. XX asrning 20-yillarida “pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o‘zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30-yillarda o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o‘quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan. O‘tgan asrning 40–50-yillarida, o‘qitish-o‘quv jarayonlariga texnik vositalarni tatbiq etish boshlanganida, “ta’lim texnologiyasi” termini paydo bo‘ldi, u keyingi yillar davomida “pedagogik texnologiyaga” aylantirildi. 60-yillar o‘rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSH, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilish darajasiga qarab ikki yo‘nalishi belgilandi. Birinchi yo‘nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o‘qitish vositalarini qo‘llash zarurligini ta’kidladilar (technology in education). Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari esa o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g‘oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo‘qotish muhim deb hisobladilar. Shunday qilib 1-yo‘nalish “o‘qitishda texnik vositalar” sifatida belgilandi, biz biroz keyinroq yuzaga kelgan 2-yo‘nalish “o‘qitish texnologiyasi” yoki “o‘quv jarayoni texnologiyasi” sifatida belgilandi. 70-yillarning boshlarida turli xildagi o‘quv uskunalari va o‘quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab yetildi. Bularsiz o‘qitishning sifatli va samaradorligiga erishib bo‘lmas edi. 60-yillar o‘rtalari va 70-yillarning boshlarida AQSH, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan shug‘ullanuvchi jurnallar nashr etilar edi, keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug‘ullana boshlaydi. Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’limda ko‘zlangan natijalarga erishish bo‘lgan chet el pedagogikasining yo‘nalishiga

aytiladi (M. Klarin, 1989) Milliy pedagogik adabiyotlarda bunday hollarda o‘qitishning didaktikasi yoki metodikasi haqida gapiradilar, biroq “texnologiya” termini hozirgi kunda juda keng tarqalgan. “Pedagogik texnologiya” so‘z birligi – bu inglizcha “an educational technology” – “ta’lim texnologiyasi” iborasining aniq bo‘lmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o‘qitish nazariyasida yanada kengroq tarqalib kelmoqda. Aynan ana shu mazmunda “texnologiya” termini va uning “o‘qitish texnologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualliflar ta’lim-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko‘plab ifodalarga ega bo‘ldilar (uch yuzdan ortiq). “Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha ishlarda – XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasini turlicha ifodalash mumkin:

1. Texnologiya – bu biron-bir ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan uslublar to‘plami (talqinli lug‘at).
2. Pedagogik texnologiya – bu o‘quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasi (V.P. Bespalko).
3. Pedagogik texnologiya – bu o‘qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlash (I.P. Volkov).
4. Pedagogik texnologiya – bu o‘qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to‘plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko‘rsatmalar yig‘indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demak (B.T. Lixachev).
5. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimallashtirish masalasini qo‘yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olib o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashga sistemali yondashish (YUNESKO).
6. Texnologiya – bu san’at, mahorat, mohirlik, ishlab chiqish metodlari to‘plami, holatini o‘zgartirish (V.M. Shekel).

7. O‘qitishi texnologiyasi – bu o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun so‘zsiz qulay sharoitlar yaratib berish bilan o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo‘yicha har tomonlama o‘ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modeli (V.M.Monaxov).

8. Pedagogik texnologiya – bu pedagogikada fikrlashning sistemali usuli (T.Saqamoto).

9. Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o‘zgartiruvchi uning rivojlanish yangi sistemasi (E. Bistereki va J.T.Seller).

10. Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalarning sistemali to‘plami va ishlatilish tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

11. Pedagogik texnologiya – bu ta‘lim maqsadiga erishishga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatini sistemali, konseptual, qoidali, obyektivlashtirilgan, invariant tasvirlash (F.A.Fradkin).

12. Pedagogik texnologiya bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta‘minlashni tahlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar, g‘oyalar, vositalarni o‘z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demak. (Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo‘yicha AQSH assotsiatsiyasi). Barcha xalqlarda hamma vaqt yaxshi tayyorlangan mutaxassislar, o‘z ishining ustalari hurmat qilingan, mahorat bilan mohirona o‘qitish ham yuksak baholangan.

Pedagogika fani tarixida o‘qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan. O‘qitish – bu uning jamiyat taraqqiyoti uchun samarasi pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darhol ko‘rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir. Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi bilangina farq qilmaydi. Ana shu nuqtayi nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo‘lgan “pedagogik davrlarni” ko‘rib chiqamiz: I. Individual pedagog, qo‘l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha).

II. O‘quv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha).

III. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari).

IV. O‘qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).

V. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta’limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterni o‘qitish).

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi uchta aspektlar bilan taqdim etilishi mumkin:

1) Ilmiy pedagogik texnologiya – o‘qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarini o‘rganuvchi va ishlab chiquvchi, pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogik fanning bir qismi;

2) protsessual-ta’rifiy: jarayonni tasvirlash o‘qitishning ko‘zda tutilgan natijalariga erishish uchun vositalar maqsad, va metodlar to‘plami;

3) protsessual-amaliy: texnologik jarayonning amalga oshirilishi, hamma shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning ishga solinishi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya o‘qitishning eng samarali yo‘llarini izlovchi fan sifatida ham, o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar, prinsiplar va boshqaruvlar sistemasi sifatida ham, o‘qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtirok etadi.

Tarix darslarida o‘quvchiga yondashish bo‘yicha texnologiyalar:

1) Avtoritar texnologiyalar, bunda pedagog o‘quv-tarbiyaviy jarayonning yakka subyekti hisoblanadi, o‘quvchi esa faqatgina “obyekt”, biror-bir qismidek bo‘ladi. Ular maktab hayotining qat’iy tashkil etilishi, o‘quvchilarning tashabbusi va mustaqilligiga yo‘l qo‘ymaslik, talab va majburlash qo‘llanilishi bilan ajralib turadi.

2) Didaktotsentrik texnologiyalar ham bola shaxsiga e’tiborsizlik yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ularda ham o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida subyekt-obyektli munosabatlar hukm suradi, o‘qitish ta’limdan ustun qo‘yiladi va shaxsni shakllantirish eng asosiy omillari didaktik vositalar hisoblanadi.

3) Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar butun maktab, O‘rta maxsus ta‘lim tizimi markaziga bola shaxsini, uning rivojlanishi uchun qulay, kelishmovchiliklarsiz va xavfsiz sharoitlarni ta‘minlash, uning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirishni qo‘yadi. Bu texnologiyada bola shaxsi faqatgina obyekt emas, balki muhim subyekt hamdir: u biror-bir noaniq maqsadga erishish vositasi emas, balki ta‘lim tizimi maqsadi hisoblanadi (avtoritar va didaktotsentrik texnologiyalarida bo‘lganidek). Bunday texnologiyalarni yana antrotsentrik deb ham ataydilar. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar antrotsentrikligi, insonparvarligi va psixoterapevtik yo‘nalganligi bilan ifodalanadi va bolaning har tomonlama, erkin va ijodiy rivojlanishi maqsad qilib oladi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar doirasida insonparvarlik shaxsiy texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari va erkin tarbiyalash texnologiyalari mustaqil yo‘nalganligi bilan ajralib turadi.

4) Insonparvarlik-shaxsiy texnologiyalar birinchi navbatda o‘zining insonparvarlik mohiyati, shaxsni qo‘llashga psixoterapevtik yo‘nalganligi, unga yordam ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Ular bolaga har tomonlama hurmat va muhabbatni, majburlashni rad etib uning ijodiy qudratiga ishonchni targ‘ib qiladi.

5) Hamkorlik texnologiyasi, o‘qituvchi va bola o‘rtasidagi obyekt-subyektiv munosabatlarda demokratiklik, tenglikni, hamkorlikni amalga oshiradi. O‘qituvchi va o‘quvchi birgalikda maqsad, mazmunni ishlab chiqadilar, hamkorlik va birgalikda ijod holatida bo‘lib baho beradilar.

6) Erkin tarbiya texnologiyalari bolaning hayotiy faoliyati doirasida ko‘pmi-ozmi tanlashi va mustaqillik erkinlik berishga e‘tiborni qaratadi. Tanlovni amalga oshirib bola natijalarga tashqi ta‘sir ostida emas, balki ichki tuyg‘ulari orqali boradi, u subyekt nuqtayi nazarini eng yaxshi uslub bilan amalga oshiradi.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlari. Tanqidiy fikrlashni o‘stirishga xizmat qiladigan metodlar “Demokratik ta‘lim uchun” konsorsiumi tomonidan amalga oshiriladigan “Tanqidiy fikrlash uchun o‘qish va yozish” loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Tanqidiy

fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar:

Tanqidiy fikrlash nima? Fikrlash – o‘qish, yozish, so‘zlash va eshitishga o‘xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o‘zida biror haqiqat to‘g‘risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko‘nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta‘limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o‘rganilishi lozim bo‘lgan hodisa ham emas. Braun (1989) ta‘kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o‘quv ko‘nikmalari ta‘lim oluvchilarga obyektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olmaydilar. Rixer ta‘biri bo‘yicha o‘rganish va fikrlashning ta‘rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta‘limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o‘rganish asosida talabalarning axborotlarni o‘zlashtirish, sintezlash va ularni to‘la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2. O‘rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli-tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo‘ladi. Bunday strategiya o‘rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O‘rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).

4. O‘rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog‘lash imkoniyatini beradi (Ros, 1990).

5. Tanqidiy fikrlash va o‘rganish g‘oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash “yakka-yu yagona to‘g‘ri javob”ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi. Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish

emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo‘l ham yo‘q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o‘quv sharoitlari to‘plami mavjud. Uning uchun: tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish; talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish; turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish; talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini ta‘minlash; talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak, har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o‘zlarida ishonch hissini uyg‘otish; tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim. Shu munosabat bilan talabalar: o‘ziga ishonchni orttirish va o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushunish; o‘quv jarayonida faol ishtirok etish; turlicha fikrlarni e‘tibor bilan tinglash; o‘z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordon (1979) lar ta‘kidlashadiki, o‘z fikrlarini ijod qilish go‘yo avvalgi g‘oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham: fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalash; o‘zaro tanqidiy fikrlar almashish; o‘z g‘oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish; fikrlarni muayyan g‘oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o‘z g‘oyalarini to‘la va aniq ifodalay olish. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo‘lishi uchun talabalar kerakli va keraksiz narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruhsat olishlari lozim. Talabalar yo‘l qo‘yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar. Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo‘lgan do‘stona hamda samarali sharoitda beriladi. Rang-baranglik talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g‘oyalar paydo bo‘ladi. Rang-barang fikr va g‘oyalar yakka-yu yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog‘dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo‘yiladi. Faqat birgina javob mavjud

bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin. Faollik tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularda o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi. Fikrlash jarayonida "ahmoqona g'oyalar" aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi buni o'quv jarayonining tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan xoli bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muhitda o'ylash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashidir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holda chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan xoli bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'z g'oyalari mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida

o'ta muhim, shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak. Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro fikr almashuvini ko'zda tutadi. Talabalarning o'zaro fikr almashishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi. O'zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga qobiliyati yanada orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tiklab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular: o'ziga ishonch hosil qilish; ishda faol ishtirok etish; o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr almashish; o'z g'oyalari fikrini tinglay olish. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'g'risida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir.

Izohli idrok etish. Bu bilim izohlari darajasiga aylandi. Idrokning bu tipida talaba g'oya va hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni, hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarni birlashtiradi.

Shaxsiy idrok etish. Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayoni aks ettiradi.

Tanqidiy idrok etish. Mazmuni bir tomonga qo'yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to'g'riligini, foydaliligini va talabalarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir. Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish qo'yidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi: talabalarga maqsadlarini anglab

olishga yordam beradi; mashg‘ulotlarda faolligini ta’minlaydi; samarali munozaraga chorlaydi; talabalarning o‘zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi; talabalarga o‘z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi; talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi; har qanday fikrlarga bo‘lgan hurmat kayfiyatini yaratadi; talabalarda personajlarga bo‘ladigan iztirobini o‘stirishga yordam beradi; talabalar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi; o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga sabab sifatida xizmat qiladi talabalarning tanqidiy jalb qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.

O‘qitishning interaktiv metodi – “Aqliy hujum”. Shunday qilib, “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin: olg‘a surilgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi; ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi; – istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakar qilinadi; muammo yechimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi; barcha g‘oyalar yoki ularning asosiy mag‘zi (farazlari) qayd etish yo‘li bilan yozib olinadi; “hujum”ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart; beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko‘zda tutilishi kerak Munozara – bu metod yordamida o‘quvchilarga muayyan muammo bo‘yicha to‘liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o‘quvchilar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma’lumotlarni atroflicha o‘rganadilar.

Munozarani o‘tkazish metodikasi.

1. Munozara olib boruvchi – boshlovchi (o‘qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga “aqliy hujum” topshirig‘ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi: “hujum”dan maqsad – muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko‘proq taklif etish; o‘z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g‘oyalar umumiy fikrga zid bo‘lsa-da, hech biri rad etilmaydi; boshqa ishtirokchilar

g'oyalarini ham rivojlantiring; taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasiz.

3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar berildi. Agar biror-bir kishi tomonidan "aqliy hujum"ni o'tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri "charxlanishi" uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. "Aqliy hujum" ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. G'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishdilar va natijada o'rtaga qo'yilgan muammoning yechimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi. Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

5. "O'z o'ringni top". Agar sinfda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko'pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi, bu bir tomondan. Ikkinchidan, o'quvchilarga o'z fikrini bayon qilishga, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Uchinchidan, dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1. Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat ko'rsatib osib qo'yiladi. Ularning biriga "roziman", boshqasiga "rozi emasman" degan so'zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba'zi bir mavzuga oid savollar bo'yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan, "anjir gullaydi va meva tugadi" yoki "anjir gullamasdan meva tugadi".

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Qaralayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o‘quvchilarga taklif etiladi.

4. Bo‘lingan o‘quvchilardan o‘z qarashlarini asoslash so‘raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o‘tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinf o‘quvchilarining hammasi jalb etiladi.

5. Muammo bo‘yicha fikrlar bildirilgach, o‘quvchilar ichida munozara davomida o‘z nuqtayi nazarini o‘zgartirganlar va boshqa guruhga o‘tuvchilar bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda ular o‘z o‘rnini o‘zgartirish sabablarini asoslashlari kerak bo‘ladi.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o‘quvchilarni aniqlash so‘raladi. “Kichik guruhlarda ishlash” – kichik guruhlarda ishlash o‘quvchilarning darsda faolligini ta‘minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o‘rganishga imkoni tug‘ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o‘rgatadi.

7. “Menyu” – yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ish olib borishni xohlagan ijodkor o‘qituvchiga “Menyu” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (o‘quvchi)ga aniq topshiriq beriladi. Har bir guruh topshiriq oladi va 3 daqiqa davomida muhokama qilishadi, so‘ngra har guruhlardan bittadan vakil o‘qituvchi stoliga kelishadi va tayyor “Menyu”ni olib qaytishadi. Bu uzun qir qilgan qog‘ozlar – “Tillar” bo‘lib, ularda xilma-xil huquq normalari bayon qilingan bo‘ladi. Guruh vakili tillardan tanlab oladi va o‘z guruhiga olib keladi, keyin boshqa o‘quvchi shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig‘ilguncha bu holat davom etadi. 10 daqiqa davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu jadval qo‘lda tayyorlanishi ham yoki javoblar og‘zaki ham bo‘lishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o‘qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab beradi.

8. “Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash”. Kichik guruhlarda ishlashning yana bir samarali metodi – bu nashr qilingan materiallar bilan ishlash hisoblanadi. O‘quvchilarning zaruriy axborotlarni izlab topishlari uchun, nazariy bilimlarni mustahkamlash yoki

tasniflashlari uchun, nazariy materiallarni chuqur anglab olishlari uchun bu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinf 4–5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo‘linadi. Guruh bir xil yoki turlicha mazmundagi topshiriqlar, gazetalar, jurnallar, fotoalbomlar, byulletenlar olishadi. Zaruriy materiallar: A – I Formatli oq qog‘oz, qaychi, yelim. Topshiriqlar: o‘quvchilar 5 guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga tegishli topshiriq beriladi.

1-guruhga topshirish: “Ma’naviyat – kishilarning falsafiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui” degan ta’rifning mazmunini izohlang.

2-guruhga topshirish: “Ma’naviyat deganda, avvalambor, odamni ruhan poklanishga, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan kuchni tasavvur qilaman”, degan fikrning mazmunini izohlang.

3-guruhga topshirish: “Hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar hamma narsani hal qiladi”, degan so‘zlarning mazmun-mohiyatini izohlab bering.

4-guruhga topshiriq: “Individual ong, ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiyaning mazmunini tushuntirib bering. 5-guruhga topshirish: “Mafkura” tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering”. Har bir guruh o‘ziga berilgan topshiriqni bajarib bo‘lganidan so‘ng, ularning har biri o‘z javoblarini butun auditoriyaga havola qilishadi. Bunda topshiriqni aniq va to‘g‘ri yechgan, faollik ko‘rsatgan guruhni va alohida faol o‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq. Bu metodni qo‘llash davomida o‘quvchilardan barcha materiallar yig‘ib olinadi, aksincha o‘quvchilar gazetalardagi boshqa qiziqarli maqolalarni o‘qishga kirishib ketadilar va sardorlar fikrlariga quloq solmaydilar. O‘quvchilardan ehtiyot bo‘lib ishlash talab etiladi, ortiqcha qog‘oz qirqish, yelimlash, sinfni ifloslantirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

“Debatlar”. Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda o‘quvchi o‘zgalarni o‘z yondashuvining to‘g‘riligiga ishonitirishdir. O‘z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko‘nikmalarini shakllantirishda debatlar o‘tkazish samarali metod hisoblanadi. Ular o‘quvchilarda ijtimoiy fikrni o‘zgartirishga ta’sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg‘ularini rivojlantiradi. Metodik tavsiyalar: Debatlar mavzusini anglab yetishlari uchun o‘quvchilarga sharoit tug‘diriladi. Buning uchun esa mavzuni rezolyutsiya shaklida ifodalash kerak bo‘ladi. Ma’lumki, rezolyutsiya har doim mavjud holatni o‘zgartirishni talab etadi. Misol uchun, “qabul qilingan: AQSH Oliy sudi oliy jazoning nokonstitutsiyaviyliligini tan oldi”. Mashg‘ulotga mahalliy mutaxassislardan (olim, vrach, muhandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi. Debatda qatnashish uchun iqtidorli o‘quvchilar tanlanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo‘llab-quvvatlaydigan va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar debatlarni o‘tkazish qoidasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi – yordamchini tayinlaydi. “Konstruktiv argumentlar” (3–5 ta holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va daliliy materiallar bilan mustahkamlangan argumentlar tayyorlash uchun o‘quvchilarga yetarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning ko‘lamini anglash va bahsda o‘z fikrini saqlab qolishlari uchun aniq, mantiqiy argumentlar tayyorlashda o‘qituvchi yordam berishi kerak. Shu bilan birgalikda o‘quvchilar qarshi tomon bildirgan fikrlarni qanday bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishlari va oldindan bu fikrlarni inkor etishga ham tayyorgarlik ko‘rishlari lozim. Bahslashuv natijasida o‘quvchilar nimalarni qo‘lga kiritish mumkinligini tushunib yetsagina dars samarasi to‘g‘risida gapirish mumkin. O‘quvchilarni shunday dalil-isbot topish ko‘nikmalarini egallashga o‘rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o‘rin qolmasin. Shundagina o‘quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o‘rganadi, eng asosiysi, ularda

erkin fikr yuritish ko'nikmalari shakllana boradi. Debatlarni o'tkazish tartibi:

1. O'qituvchi va debat ishtirokchilari sinfdan joy olishadi. Qulay bo'lishi uchun rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydiganlar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashishgani ma'qul.

2. O'qituvchi qisqacha muhokama mavzusini va ikkala rezolyutsiya variantlarini bayon qiladi, so'zga chiquvchilar uchun vaqtni belgilaydi.

3. O'qituvchi dastlab rezolyutsiyani qo'llaydiganlarning birinchisiga so'z beradi va undan konstruktiv argumentlarni bayon qilish so'raladi. Iloji bo'lsa so'zga chiquvchilar tartibini har bir guruh a'zolari uchun oldindan belgilash kerak. O'qituvchining yordamchisi gapiruvchi uchun ajratilgan vaqtning tugaganligini eslatib turadi.

4. O'qituvchi rezolyutsiyani qo'llaydigan guruh o'quvchilarini birinchisiga so'z beradi va u o'z fikrini yetarlicha argumentlar yordamida asoslab beradi.

5. O'qituvchi birinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga so'z beradi, so'ngra ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisi o'z fikrlarini rezolyutsiya bo'yicha bayon qiladi. Shu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma-navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.

6. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchiga qarshi tomonning dalillarini inkor etib tashlashga va ular tanqidiga javob berishga imkoniyat tug'diriladi.

7. Masala talashish davomida yangi argumentlarni keltirish mumkin emas. Bahsni har doim rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.

8. O'quvchilar bu bosqichda rezolyutsiyaga nisbatan u yoki bu mavqeni egallash sabablarini bayon qilishadi. O'qituvchi bu sabablarni sinf doskasiga yozib borishi ham mumkin. O'quvchilar bu sabablarga tegishli savollarga javob berishlari ham mumkin, biroq o'z mavqeyining to'g'riligini oqlashga kirishib ketmasliklari kerak.

9. Ishtirokchilar shunday argumentlarni ko'rsatishlari kerakki, birinchidan ularning qarashlari muammo yechimiga zid ham bo'lishi

mumkin, ikkinchidan, barchani o‘ylashga majbur etish, uchinchidan, hayratda qolarli darajada ifodalanishi lozim.

10. Debat dars so‘ngida o‘quvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyutsiyaning joriy etilishi oqibatlarini baholashishi kerak. Shuningdek, har ikki tomondan o‘rtaga tashlangan qarashlarni hayotga tatbiq etish jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligi ham muhokama qilinishi mumkin.

Demokratik jamiyatda har bir fuqaro o‘z oldida turgan muammolarni oqilona yechish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Shu boisdan o‘quvchilarni darslarda ko‘proq bahsli tortishuvlarga sabab bo‘ladigan muammolar yechimini topishga jalb etish lozim. Bahsli savollarni yechish jarayonida o‘quvchilarda tinglash, muloqot olib borish, turlicha fikrlarni taqqoslash, boshqa kishi taqdiriga befarq qaramaslik kabi xislatlar shakllana boradi, masalalarni yechish va tegishli hukm chiqarish, analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, ma’lum ketma-ketlikda tafakkur yurgizish, to‘g‘ri yechimlarni topish malakalari o‘zlashtiriladi.

O‘tkazish usuli. Munozarali savollarni analitik-sintetik tahlil qilish va obyektiv fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun talaygina metodika mavjud. Ro‘y berayotgan voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. O‘quvchining o‘z fikrini erkin ifodalashi. O‘quvchiga yechimini topish uchun taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z o‘rnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Misol uchun, Toshkentda 16-fevral voqealari nima uchun sodir bo‘lganligi to‘g‘risida. Muammoga o‘quvchidan javob olish uchun qator savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sening fikring qanday? Bu haqda sen nimalarni o‘ylaysan? va boshqa.

O‘z fikrini oydinlashtirish. o‘quvchilarning bildirgan fikrlarini yanada aniqlashtirish maqsadida ularga qo‘shimcha tarzda quyidagi savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisan? O‘z fikringni tushuntira olasanmi? Bu nima degani?

O‘quvchilarning fikrlarini asoslanganligini tekshirish. Bu yerda qo‘yidagicha savollarning berilishi o‘rinlidir: Nima uchun sen aynan shunday deb o‘ylaysan? Sening mavqeyingni tasdiqlovchi qanday asoslar bor? Nima uchun senda shunday taassurot tug‘ildi? Qanday argumentlarni bildirgan fikring foydasiga keltirasan? Sening fikringni nima isbotlaydi? va hokazo.

4. **Boshqalar fikrini o‘rganish.** Inson o‘z fikrining o‘jizligini har doim ham tan olavermaydi va suhbatdoshining fikriga hurmat va ehtirom bilan qaravermaydi. Ayniqsa bu holatni ko‘proq o‘smirlarda qo‘zg‘atish mumkin. Shubhasiz, ko‘p hollarda buning aksini ham ko‘rish mumkin. Shu bilan birgalikda qator murakkab muammolarning yechimini topishda o‘zgalar fikrini eshitish va tinglash ko‘nikmasi juda asqotadi. Bu ko‘nikmani o‘quvchilarda shakllantirishni xohlasangiz, marhamat, quyidagi savollar bilan murojaat qiling: O‘z fikringizga muqobil bo‘lgan holatni bayon qila olasizmi? Bu haqda boshqalar nima deyishi mumkin? Tanqidga uchrashingiz mumkinmi?

5. **O‘z holatini va o‘zgalar fikrini tahlil etish.** Bu haqda nafaqat o‘smirlar, balki kattalar ham ko‘pincha o‘ylashmaydi. O‘quvchi xususiy fikri bilan to‘g‘ri kelmaydigan fikrlarni ham o‘zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama-qarshiligini tahlil etishi kerak. Shu maqsad uchun quyidagi savollar asqotishi mumkin: O‘z fikring o‘jizligi nimada? Qarshi tomonning dalil-isboti nima uchun kuchli yoki nima uchun kuchsiz? Qanday fikrlar sizning mavqeyingizni mustahkamlaydi yoki uni kuchsizlantiradi? O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha har ikkala fikrlarning mantiqiy oqibatlarini o‘rganish uchun savollar: agar sizning g‘oyangiz qabul qilinsa, nimalar ro‘y berishi mumkin? Bu jamiyatga qanday ta‘sir ko‘rsatadi? Uning natijasi kelajakka foyda beradimi?

6. **Muammo bo‘yicha yechim qabul qilish.** Bu “tanqidiy fikrlash” metodining so‘nggi bosqichi hisoblanib, o‘quvchilar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: Qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq bo‘ldi? Siz bahsga

qanday nuqta qo‘ygan bo‘lardingiz? va hokazo. Bu metodlardan didaktik jarayonning qaysi bosqichida foydalanish kerak? Shubhasiz, mavjudlik algoritmidagi (MA) – o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishda – mustaqil o‘z-o‘zini (sinfdoshini) o‘qitishda, yakka tartibda, kichik “FSI”. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilarning o‘z shaxsiy fikrlarini asoslab berishlari, ya’ni “FSI” texnologiyasi taklif qilinadi. Buning uchun har bir guruhga uchtadan qog‘oz varaqlari beriladi.

Ularning birining o‘ng yoki chap burchagiga F, ikkinchisiga S, uchinchisiga I harflari yozilgan bo‘ladi. Bunda: F – o‘z fikringni bayon qil; S – nima uchun shunday fikrda ekanligingga biron-bir sabab keltir; I – misol bilan keltirilgan sababni izohla degan ma’noni bildiradi.

Masalan, F FIKRlar bir kishi o‘z xatti-harakati uchun shaxsan javobgardir. S SABAB – bu fikrni shuning uchun keltirdimki, men bir kishi qilgan ish uchun bir necha kishini jazolanganiga guvoh bo‘lganman (misollar yoki vaziyat tushuntirib berilishi mumkin). I IZOH – Javobgar qishi jazolansa adolat g‘alaba qiladi. Asosiy tushunchalar Pedagogikaning nazariy vazifasi – ilg‘or va yangi pedagogik tajribalarni o‘rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi – diagnostik sath – pedagogik hodisalar holatini aniqlash; bashorat qilish sathi – pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o‘rnatish; loyiha sathi – pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o‘quv reja, dastur, darslik va o‘quv qo‘llanma, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik sathi – pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta’lim amaliyotiga tatbiq etish; reflektik va tuzatma (korrektirovka) sathi – ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta’lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baholash. Muammoli o‘qitish-o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish shakli bo‘lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta’lim oluvchilar faol, mustaqil harakat qiladilar. Muammoli vaziyat – o‘quv vaziyati bo‘lib, u

mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi. Muloqotning yetakchi turi – rivojlanishning ma’lum bir davrida atrofidagi kishilar bilan muomalada yetakchilik qiladigan muloqot turi bo‘lib, uning natijasida shaxsning asosiy sifatlari shakllanadi. Munozara –

1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs;

2) muayyan muammo bo‘yicha fikr almashishga asoslangan ta’lim metodi. Pedagogik texnologiya –

1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o‘zaro bog‘langan harakatlari tizimidir;

2) ta’lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to‘plamini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogning uzluksiz, o‘zaro shartlangan harakatlari tizimidir;

3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qat’iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat;

4) ta’lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan va texnika hamda inson omillari, uning o‘zaro hamkorligi asosida o‘qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir.

Savol va topshiriqlar

1. “Texnologiya“ tushunchasining lug‘aviy ma’nosini ayting.
2. Texnologik jarayonga ta’rif bering.
3. Pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatini tushuntiring.
4. Pedagogikaning texnologik vazifasini aniqlang.
5. Pedagogik texnologiyaning tarix o‘qitish metodikasidagi o‘rnini aniqlang.
6. Pedagogik texnologiyaning turlari.
7. Pedagogik texnologiya jarayonini tashkil etish mezonlari.

11-MAVZU: TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

REJA:

1. O‘quvchilarda tarixiy tasavurni hosil qilishning asosiy usullari.
2. Tarixni o‘qitish jarayonidagi tarixiy tushunchalar.
3. Tarixiy tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari.
4. O‘quvchilar ongiga tarixiy qonuniyatlarni singdirish.

Tarix o‘qitish tarixiy faktlar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘langan, o‘quvchilarda hodisalar tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to‘liq va aniq tasavvurlar mavjud bo‘lgandagina tushunchalar hosil bo‘ladi. Tarix o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o‘z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko‘pchilik hollarda bir-biriga o‘xshab ketadi. Tarix o‘qitishda o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida o‘tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxshi manzaralari shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan har bir tarixiy fakt, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo‘lsin. Obrazlilik o‘quvchilarning tarixdan oladigan bilimlarini ilmiy puxta bo‘lishini zarur sharoitlaridan biri tarixiy voqealarni modernizasiya qilishning oldini olish tarixga qiziqish uyg‘otish hamda tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir. Tarixiy faktlarni tahlil qilishga bir namuna keltiramiz: Maktablarda tarix kurslarida o‘quvchilar ko‘z oldida eng qadimgi zamonlardan tortib to hozirgi kunlargacha bo‘lgan jamiyat taraqqiyoti izchillik bilan ochib beriladi. O‘quvchilar aniq tarixiy fakt va hodisalarni tekshirish va umumlashtirish asosida rivojlanishning qaror topishi to‘g‘risidagi ilmiy tushuncha bilan qurollanadilar – “Qadimgi dunyo tarixi” va “O‘zbekiston tarixi”

fanlarini o‘qitish jarayonida ibtidoiy odamlar mehnatining takomillashib borishi, mehnat ular hayotini qanday o‘zgarishlarga olib kelganligini o‘quvchilar ongiga singdirib boriladi. Taraqqiyotning tarixiy jarayoni tushuntirilar ekan, ular tasavvurida ibtidoiy odamlar hayoti to‘g‘risida ko‘rgazmali quolsiz tushuncha hosil bo‘lmaydi. Insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy davrini faqat ushbu davr yodgorliklarini ko‘rsatish yoki rangli rasmlardan foydalanish orqali tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada O‘zbekiston tarixi muzeyi yoki boshqa shahar va tuman o‘lkashunoslik muzeylariga ekskursiya uyushtirish, haqiqatni aniq va to‘liq to‘g‘ri fikrlashlarini ta‘minlaydi. Ekskursiya Teshiktosh g‘oridan Oqtosh, Xo‘jakent, Qo‘yi Bo‘z suv manzilgohlaridan topilgan qadimgi tosh davriga oid tosh qurollari bilan tanishtiradi. Bu vaqtda yashagan odamlar ovchilik, meva yig‘ish yemishbob ildizlar topish bilan hayot kechirganlarini so‘zlab “ov”, “temirchilik” rasmlarini ko‘rsatadi shundan so‘ng o‘quvchilar diqqati Teshiktosh va Oqtosh g‘orlarining kesma suratlariga jalb qilinadi so‘ngra eramizdan avvalgi XII-VII minginchi yillarga oid O‘rta asri materiallariga e‘tibor qaratiladi bu paytda odam o‘q-yoy yasashni bilib birinchi uy hayvoni itlarni o‘ziga o‘rgatadi. Muzeyda akademik Y.G.G‘ulomov rahbarligida Buxoro viloyati hududida qazish ishlari olib borilishi natijasida Darbozaqir tolit manzilgohida topilgan ko‘p miqdordagi mehnat qurollari qo‘yilgan. Qamish va yog‘ochdan qurilgan bu manzilgoh 30–35 kishiga panoh bo‘lgan. Shuningdek, akademiklar: S.T.Toletov, Y.G.G‘ulomov ekspeditsiyalari qazish ishlari olib borilgan Jonbosqal’a manzilgohining chayla maketi berilgan. Arxeologlarning ma‘lumotiga ko‘ra bu chaylada 120–150 kishidan iborat jamoa yashagan. O‘quvchilarga chaylaning maketi ko‘rsatilib, uning o‘rtasida muqaddas hisoblangan gulxan yonib turganini atrofida ovqat pishiriladigan o‘choqlar joylashganini so‘zlab qazishmadan chiqqan parranda, baliq hayvon suyaklari qoldiqlari loydan yasalgan idish parchalari ko‘rsatiladi. Keyingi yangi davr – bronza asri. Urush kommunasi tarixida yangi bob ochilganligining patriarxat (otaliq urug‘i) davri va xo‘jalikda oilada, ijtimoiy munosabatlarda erkaklar

hukmronligining o‘rnatilganini ko‘rsatuvchi materiallar konchilarning mehnat qurollari, tosh boltalari og‘ir dastalari, bronza cho‘qmoqlari bilan tanishtiradilar.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘quvchilar tarix muzeyida o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan qadimgi odamlar hayoti va ularning ish qurollarini bir umrga eslarida saqlab qoladilar. Muzeydan qaytgach o‘qituvchi, o‘quvchilarga “mehnat qurollarining takomillashuvida inson hayotining o‘zgarib borishi” yoki “Mehnat insonni yaratadi”, “Kishilar o‘rtasida tengsizlik qanday vujudga keldi?”, “Odamlar hayotining takomillashuvida tabiatning o‘rni” kabi mavzularda referat yozib kelishlarini topshiradi. Tarixiy tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini o‘quvchilar faol suratda idrok etishga qaratilgan usullardan foydalaniladi. O‘qituvchi hikoyasining mazmunan ko‘rgazmali va obrazli bo‘lishi darslik matnidagi tarixiy hujjatlardagi voqea va tasviriy rasmlar badiiy adabiyot asarlari o‘quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbayi bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi materialni bayon qilayotganda tarixiy hujjatlardan ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlardan olingan yorqin tavsilotlarga hamda o‘quvchilardagi mavjud tasavvurlarga suyangan holda ish tutadi. O‘quvchilarning tarixga qiziqishining ortishi ularning muhim tavsilotlarini ajratib olishi va esda saqlab qolishlariga yordam beradi. Biroq o‘quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi bayonining jonli va emotsional bo‘lishining o‘zi kifoya qilmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim. O‘qituvchi ko‘rgazmali qurolni shunday ko‘rsatib, uning mazmunini tushuntirib, hujjatlarni o‘qib qo‘ya qolmay, balki hikoyadagi eng muhim joylarini alohida ohang bilan ta’kidlashi, ko‘rgazmali qurollarni matnlarni o‘quvchilarning faol ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi, o‘rganilgan hujjatlardagi u yoki bu hujjatlarga ular diqqatini jalb qilishi lozim.

Tarix bo'yicha har bir sinf dasturi oxirida asosiy tushunchalar mazmuni belgilab beriladi. Bu tushunchalar kursning ilmiy mazmunini, g'oyaviy-nazariy asoslarini aniqlash va tarixiy materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ish usullarini belgilab olishga yordam beradi. Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda o'quvchilarning tarixiy faktlarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilardan ajrata bilish, guruhlariga bo'la olishni, tarixiy voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni chuqur anglab tushunib olish ko'zda tutilgandi. Ana shu taxlitda shakllangan mukammal tarixiy tushunchalar ilmiy bilimlar sistemasining vujudga kelishida bamisoli zanjir vazifasini o'taydi. O'quvchilarning tarixiy tushunchalari shakllanib borishi ustidan rahbarligini samarali bo'lishi uchun tushunchalarni tasniflashni yaxshi bilish kerak. Darsda o'rgatiladigan materialning mazmuniga qarab tushunchalar bir-biridan farq qiladi va ular quyidagi turlarga bo'linadi: **Iqtisodiy tushunchalar:** turli davrlardagi mehnat qurollari va xo'jalik hayoti, iqtisodiy jarayonlar.

Ijtimoiy-siyosiy tushunchalar: davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va siyosiy tuzumi (imperiya respublika, burjua davlati va uning sinfiy xarakteri burjua demokratiyasi va boshqalarga doir). Jamiyatdagi sinfiy kurashning ahvoli va uning rivojlanib borishini ifodalovchi tushunchalar (dehqonlar urushlar xalq harakatlari, qo'z-g'olonlari, ish tashlashlari va h.k.) Tarixiy-madaniy tushunchalar uyg'onish davrining insonparvar madaniyati, moddiy va ma'naviy madaniyati va boshqalar. G'oyaviy (din, utopik sotsializm, fashizm burjua g'oyasi) tushunchalari. Metodik adabiyotlar umumlashganlik darajasiga qarab quyidagi uch guruhga: xususiy, tarixiy, umumtarixiy va sotsiologik tushunchalarga ham bo'linadi. Tarix o'qitish jarayonida tarixiy tasavvurlar bilan tushunchalarni shakllantirish uzviy bog'langan bo'lib bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tarixiy tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini rag'batlantirish va unga

rahbarlik qilish muhim o‘rin tutadi. Tarix bu nafaqat o‘tmish, balki bugungi kun hamdir. O‘tmishni yaxshi bilganimizdagina, biz hozirni yaxshi tushunamiz, anglaymiz, kelajakni yaxshi tasavvur etamiz. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan har qanday voqea maktab tarix xonasini o‘quvchilarni chetlab o‘tolmaydi: tarixchilar anjuman yirik davlat arboblarning uchrashuvlari, yangi arxeologik qazilmalar va hokazolar. Shu tariqa o‘quvchilar muammodan chetda qolmaydilar, bunday tarixiy hayotiy muloqot bolalarda dunyodagi barcha yangiliklardan ogoh bo‘lish istagini yuzaga chiqaradi. Zamonaviy hayot kattalar va bolalarda ko‘plab murakkab savollarni keltirib chiqarmoqda. Odatda o‘qituvchi hamma narsani biladi. O‘quvchi esa yo‘q deb hisoblanadi. Bu axir to‘g‘ri emas. Agar bola o‘qituvchining safdoshi bo‘lmasa tarbiyasining butun urinishlari behuda ketadi. Mana shuning uchun ta‘limni o‘quvchilarga savol berishga o‘rgatishdan boshlagan ma‘qul. Savollar haqiqatdan ham murakkab bo‘lishi mumkin, lekin ularning zamirida haqiqatni bilish yotadi. Bunga esa bahssiz, munozarasiz erishib bo‘lmaydi. Munozarasiz hayot harakatsiz jismdir. Haqiqiy bahs – pedagogik jarayonning oliy ko‘rsatgichi, ammo bahslashishni bilish lozim. Bahs madaniyatini egallash lozim, buni davr taqozo etmoqda. Albatta buni tushuntirish uchun o‘quvchilarga nasihat qilib turishga to‘g‘ri keladi. Mana ulardan ayrimlari. Bahsda sizning fikringiz olqishlar bilan emas, balki qarama-qarshi fikrlar bilan kutib olinishiga tayyor bo‘ling. Bunday munosabatni ahmoqlik, sizga bo‘lgan dushmanlik – kayfiyati deb tushunmang. Fikringizni isbotlash uchun dalillar tayyorlang.

Bahslashish nima?

Agar sizni bahsda yengishgan bo‘lsa, ammo siz uning fikri haqida o‘ylashni davom ettiraversangiz bu mag‘lubiyatdan so‘ng tantana qilishingizdan dalolatdir. O‘zingizda nutq so‘zlash madaniyatini targ‘ib toptiring. Yumshoq uslubda gapirgan, tutganini kesmaydigan, tajovuzkorlikdan uzoqda yuruvchi kishi g‘alaba

qozonadi. Yuzaki qaraganda o'qituvchi hamma narsaga chidashi kerakka o'xshaydi. Lekin bu chidam befarqlikdan uzoq bo'lishi lozim. O'qituvchi bahsni yuritar ekan o'quvchidan to'g'ri javob olishga ko'maklashadi. Uning vazifasi o'quvchilar bahsiga mo'tadillik baxsh etish, turli fikrdagi o'quvchilarni birlashtirishdan iborat. O'qituvchi rahbarligida o'quvchilar hodisani fikran bir necha qismga bo'lib, uning muhim belgilarini ajratib olib muhim bo'lgan belgilardan ayiradilar hamda bir turdagi hodisalarning eng muhim belgilarini umumlashtiradilar. O'quvchilarda tarixiy tushunchalar hosil bo'lishiga olib keladigan bu mantiqiy faoliyat, ko'pincha tarixni o'qitish davomida tarixiy tasavvurlar hosil qilish uchun xizmat qiladigan yangi materialni idrok etish bilan qo'shib ketadi.

O'qituvchi rasmni yoki darslikdagi suratlarni tahlil etib, ularning mazmunini tahlil qilganda o'quvchilarda o'rganiladigan hodisalarning muhim belgilarini aks ettiruvchi yorqinlik tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan ish olib borish bilan birga, hodisalarning o'sha belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalar hosil qilishga qaratilgan, ish ham olib boradi. Lekin tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ish o'quvchilar tomonidan, hatto ilgariroq o'zlashtirilib olingan material asosida olib borilayotgan taqdirda ham bu ish o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarni oydinlashtirish va boyitishga imkon beradi, o'sha tasavvurlarni dolzarblashtirib hodisalar bilan birinchi bor tanishgan paytda ularning payqamay qolgan yoki ajratib olinmagan belgilarini ko'ra bilishga va ajratib olishga yordam beradi. Hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlar qanchalik ko'proq har tomonlama ochib berilib ularning ma'nosi qanchalik chuqurroq tushunib yetilgan sari, umuman tarix bilimlari shunchalik yuqoriroq darajada sistemalashib, har bir hodisaning tarixiy jarayondagi o'rnini va roli shunchalik aniqroq anglab olinib boradi. Tarix o'qitishda tushunchalarning usul va vositalari xilma-xil bo'lib, avvalo u tushunchalarning mazmuni murakkabligiga bog'liq, Masalan, moddiy buyumlar (omoch, kema)

to'g'risidagi tushunchalar hosil qilish uchun bir yoki bir necha soat dars kifoya qilsa, ijtimoiy tushunchalar (ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari, sinfiy kurash va ideologiya va boshqalar) o'quvchilarning yoshlik xususiyatlarini hisobga olgan holda barcha tarix kurslarini o'rganish davomida o'zlashtirilgan. O'quvchilardagi tushunchalarning chuqur va mustahkam bo'lishi, asosan o'qituvchining o'quvchilar fikrlash qobiliyatini, qanchalik uyg'ota olishi va unga qay darajada rahbarlik qila olishiga bog'liq.

Tarixiy tushunchalar hosil qilishda o'quvchilarning voqea va hodisalarni, analiz, sintez qila olish qobiliyatini o'z ichiga olgan fikrlash faoliyatida ta'limning faol metodlari muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish, o'quvchilarning ko'rgazmali qurollari, ta'limning texnika vositalari, tarixiy hujjatlar bilan ishlashlarini uyushtirish, ularga tarixni chuqur o'rganish bilan bog'liq bo'lgan turli amaliy xarakterdagi ishlarni tanishtirish alohida ahamiyatga ega. Bir turdagi voqea va hodisalar, tarixiy jarayonlar hamda sabab, oqibat bog'lanishlar mazmunini taqqoslab o'rganish, jamiyat taraqqiyotining ayrim ba'zi, bir umumiy qonuniyatlarini tushunib olish imkonini beradi. O'qituvchi voqea va hodisalarning sabab va oqibatlari o'rtasidagi aloqa hamda bog'lanishlarni, ko'pincha dastlab bir mamlakat tarixini o'rganish vaqtida ochib beradi. Boshqa mamlakat tarixini o'rganish paytida ilgari o'rganilgan hodisalarga duch kelgan paytda o'qituvchi o'quvchilarga bir-biri bilan o'xshash sabab natijali bog'lanishlar to'g'risidagi bilim va malakalarni o'rganilayotgan hodisalarni izohlab berishga, deduktiv suratda, tatbiq etishlarga umumiyliklarni anglab olishlariga yordam beradi. Turli mamlakatlar tarixiy taraqqiyotidagi bir xil sabab va natijalarni muntazam suratda taqqoslab berish o'quvchilarni hodisalar o'rtasidagi ushbu bog'lanishlar tasodifiy bo'lmay barqaror va zaruriy qonuniyat ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keladi. Tarixiy rivojlanishning qonuniyatlarini chuqur o'rganishda taqqoslashning ahamiyati kattadir.

Masalan, o‘qituvchi Qadimgi dunyo tarixining oxirlarida “Qadimgi Hindiston” yoki “Qadimgi Xitoy” mavzularini o‘tayotganda, o‘quvchilarga Qadimgi Hindiston yoki Qadimgi Xitoy davlatining paydo bo‘lishining xuddi shu haqidagi bilimlar bilan taqqoslab o‘rganishni tavsiya qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy rivojlanish qonunlarini o‘rganish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, u o‘quvchilarda umumiy va zaruriy bilimlar hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ishlarining muhim tarkibiy qismidir.

Savol va topshiriqlar

1. O‘quvchilarga tarixiy tasavvurni hosil qilishning asosiy usullari haqida ma’lumot bering.
2. Tarix o‘qitishda tarixiy tushunchalarning o‘rni va roli haqida o‘z fikringizni bayon qiling.
3. Tarixiy tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari haqida qanday bilimlarga egasiz?

12-MAVZU: TARIX O‘QITISHNING METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

REJA:

1. Tarix o‘qitish metodlari va usullari.
2. Tarix o‘qitish metodlari klassifikatsiyasi.
3. Ko‘rgazmalilik metodining asosiy komponentlari.

Tayanch tushunchalar: o‘qitish metodlari, usul, og‘zaki bayon metodi, ko‘rgazmali metod, amaliy metod, ma’ruza, suhbat, hikoya.

Tarix o‘qitish metodlari va usullari. Metod yunoncha – metodos so‘zidan olingan bo‘lib, izlanish, bilish yo‘li, nazariya, ta’limot, biror narsaga yo‘l ma’nosini anglatadi. Aniq vazifani yechishga bo‘ysundirilgan, borliqni amaliy nazariy o‘zlashtirish yo‘llarining yig‘indisidir. Shuningdek, maqsadga erishishning aniq, qisqa va maqbul yo‘li hisoblanadi. Metod tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi usullar va jarayonlar yig‘indisidan iborat. O‘qitish metodi esa ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning ma’lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari eski ta’limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo‘llari, usullari tushuniladi. O‘qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. Usul – metodning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo‘llaniladigan va alohida qadam hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya’ni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o‘quvchilar tomonidan o‘sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatida qo‘llaniladigan usullarni o‘z ichiga oladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda o‘qitish metodlariga katta ahamiyat beriladi. Didaktika bilan shug‘ullanuvchilar metodni o‘quv jarayonining o‘zagi, ko‘zlangan maqsad va pirovard natijani bog‘lovchi vosita deb izohlaydilar. O‘qitish metodi “o‘qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari” tizimida muhim o‘rin egallaydi.

O‘qitish metodi – murakkab, ko‘p qirrali, ko‘p sifatlarga ega bo‘lgan ta’limdir. O‘qitish metodida o‘qitishning obyektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari o‘z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog‘liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya’ni o‘qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim metodlari o‘quv tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, ularsiz ta’lim maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o‘quv materiallari mazmunini o‘zlashtirish mumkin emas. Ta’lim metodi vositasida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati o‘zaro muvofiqlashadi. Ta’lim metodi – o‘qituvchi va o‘quvchilarning ma’lumot mazmuniga yo‘naltirilgan faoliyatni tartibga solish yo‘li. Ayrim adabiyotlarda pedagoglar tomonidan “metod” bilan “usul” tushunchalarini chalkash ishlatish holatlari mavjud. O‘qitish metodlarini muvaffaqiyatli amalga oshishi albatta uning usullarining mahorat bilan qo‘llanilishiga bog‘liq. Aksariyat pedagoglar metod tushunchasini usul deb tarjima qilib o‘zlarini va tadqiqotchilarni ham chalg‘itadilar. Bizningcha metod tushunchasini tarjima qilish kerak emas (O.R.). Ta’limda metodlar tizimidan keng foydalanilgan taqdiridagina ta’lim-tarbiya ishlari sohasida natijaga erishish mumkin. G.Fuzailovning “Tarix o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida an’anaviy metodlar umumlashtirilib to‘rtga ajratilib, metodlar va ularning usullari aniq ko‘rsatilgan

1. Ta’lim metodlari tizimi deb, eng muhim umumiy belgilari bilan o‘zaro bog‘langan, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan metodlar guruhiga aytiladi. Bu metodlarning umumiy muhim belgilari – o‘qitish va o‘rganish usullari hamda o‘qituvchi va o‘quvchilarning tafakkur faoliyatidan iborat. O‘qitish metodlari usullari va o‘quvchilar tafakkur faoliyatining turli shakllari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va ularning bir-biriga ko‘rsatadigan ta’siri asosida bir tizimdagi metodlarning o‘zaro bog‘liqligi yuzaga keladi. Ta’lim tizimi tajribasida ko‘rgazmali o‘qitish deyarli hech qachon o‘qituvchining bayonisiz qo‘llanilmaydi, o‘qituvchining bayoni ham doim ko‘rgazmali vositalarga suyanadi. O‘quvchilarning texnika vositalari, matnlar va boshqalar ustidagi amaliy

faoliyati ta'limning ko'rgazmali va og'zaki usullari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

2. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi. O'qitish metodlari va usullari orqali o'qituvchining o'qitishi va o'quvchilarning o'rganishi eski bilish faoliyati tashkil etiladi. O'qitish metodlari – o'qituvchining faol fikrlashi asosida o'quvchilarni o'qitishga, o'quvchilarning ilmiy bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llay bilishlariga, dunyoqarash va e'tiqod hosil qilishlariga, aqliy va jismoniy mehnat, ko'nikma va malakalarini egallashlariga, bilish va ijodiy qobiliyatlari o'sishiga yordam berishni ta'minlovchi usullardan iborat.

Metodlar quyidagi ikki katta yo'nalishda tasniflanadi:

1) bilish (anglash) manbayiga ko'ra: og'zaki, bosma matnlar bilan ishlash, ko'rgazmali, amaliy metodlar;

2) bilish (anglash) faoliyatining bosqichlariga ko'ra: ilustrativ tushuntirish, reproduktiv (tayyor bilim berish), muammoli, qisman izlanish, ilmiy-tadqiqotchilik. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi haqida pedagoglar turli fikrlarni bildirganlar.

Bir-biri bilan bog'langan o'qitish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1) og'zaki o'qitish metodi (hikoya, monolog, dialog, suhbat, sujetli hikoya, tahlil qilib tushuntirish, tarixiy manbalar bilan ishlash; tarixiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlarni izohlash). Og'zaki bayon metodi – o'qituvchining xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi, tuzilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o'qituvchi tushuntiradi, o'quvchilar tinglaydilar. Hikoya-bayon shaklidagi hikoyada o'qituvchi o'quv materialini mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi. Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazmali qurol, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ko'rinib turibdiki, boshqa metodlar, xususan, ko'rgazmali va amaliy metodlar ham jalb etilmoqda. O'quv materialiga oid iboralarga izoh berish, ayrim o'rinlarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining samarasini oshiradi. Suhbat o'qituvchi

o‘quvchining o‘zaro ta’siri dialog shaklidagi ta’lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o‘ylangan, bir-biriga bog‘liq savollarni qo‘yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo‘llari bilan o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati o‘zaro muvofiqlashadi. Suhbat evristik ham bo‘ladi. Ya’ni, bunda o‘quvchilarning tafakkuriga mo‘ljallangan usul bo‘lib, unda o‘zaro ta’sir o‘qituvchi savollari o‘quvchilarning javoblari shaklida amalga oshiriladi. Evristik suhbat uzoq tarixga ega bo‘lib, undan qadimgi Yunonistonda Suqrot mohirona foydalangan. U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda – izlanish suhbat deb ham yuritiladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari bo‘lib, ijodiy yo‘l bilan o‘quv materialini o‘rganish, o‘zlashtirishning individual xarakter kasb etishi;

2) ko‘rgazmali ta’lim metodi (jadvallar, shartli-grafik illustratsiyativ ko‘rgazmalilik, surat tahlili, rasm, tarixiy xaritalar bilan ishlash). “Ming marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan yaxshi” – degan naqlga amal qilgan holda faqat og‘zaki bayon metodli darsda materiallarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 10%, bo‘lgan sharoitda dars o‘tish samarasiz bo‘ladi. Mashg‘ulotlarda o‘quv materialni ko‘rgazmali shaklda taqdim etish lozim. Ayniqsa tarix fanida an’anaviy didaktik materiallardan tashqari zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda namoyishli (kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari) ko‘rgazmalilik bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Ko‘rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo‘lib, uning yordamida ko‘ruv o‘quvi va tafakkur o‘zaro uyg‘unlashadi. Ko‘rgazmali metodlar eshitish va ko‘rishni o‘zaro uyg‘unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli undan bilimlarni og‘zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanish tarix ta’limining samaradorligini oshiradi. Ko‘rgazmali metodning quyidagi turlari mavjud: Illustratsiya metodi – (matndan boshqa barcha komponentlar) xaritalar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, sxemalar, diagrammalar, doskadagi yozuvlarga diqqatni tortish. Namoyish (demonstratsiya) metodi – kinoapparat, AKT va boshqa videotasvirlardan foydalanib turli tasvirlarni namoyish qilish. Tabiiy ko‘rgazmali qurollar – narsalarning o‘zi, predmetlar, odamlar tomonidan tay-

yorlangan ish qurollari, maket, mulyaj va boshqalarni ko'rsatish. Ko'rgazmalilik deganda, avvalo o'qitish va tarixiy bilimlarni o'rganishning ko'rgazmali usuli, o'qituvchi bayonining manbayi va uni ko'rgazmali bo'lishi, uning o'quvchilardagi aniq, tayyor obrazlarga suyana bilishi, o'quv vositasi materialini bayon qilish vaqtida ko'rgazmali qurollardan foydalanish va ko'rgazmali qurollar vositasida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning o'rganilayotgan tarixiy faktlarni, voqea va hodisalarni aynan o'zini yoki ularning tasvirlarini ko'rish yordamida o'rganishlari tushuniladi. Tarixiy hujjatlar va badiiy adabiyotlardan foydalanish o'qituvchi bayonini obrazli qilib aniqlashtirsa, ko'rgazmali qurollar vositasida o'quvchilarda o'tmish to'g'risida yorqin va aniq tasavvur hosil bo'ladi, o'quvchilarning eshitish faoliyatiga ko'rish va sezish organlarining faoliyati ham qo'shiladi. Shu bilan ularning bilimi yanada chuqurlashadi, mustahkamlanadi. Tarix o'qitishning ko'rgazmali bo'lishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Avvalo ko'rgazmali qurol o'quvchilarning bilim olishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining bayoni har qancha to'liq bo'lganda ham o'quvchilarning voqealar to'g'risidagi tasavvurlari to'la bo'lmaydi. Shuningdek, bezaklardan foydalanmay turib, o'rganilayotgan davrning manzarasini ham to'la, aniq va chuqur tasavvur qilib bo'lmaydi. Ko'rgazmali qurollar o'quvchilarning tarixiy tasavvurlariga aniqlik kiritish va bu tasavvurlarni aniqlashtirishga yordam beradi. Ko'rgazmali tasvirlar tarixiy fakt va hodisalarning tashqi ko'rinishinigina emas, balki ularning ichki mohiyatini ham ochib beradi. Ko'rgazmali qurollar o'quvchilarning murakkab tarixiy hodisalarni, tarixiy tushunchalarning ma'nosini osonroq tushunib olishlariga yordam beradi. Ko'rgazmali qurollar o'quvchilarda tarixiy tushunchalarni shakllantirishga, ularni nazariy xulosalash va umumlashtirishga, yakunlarini, ijtimoiy rivojlanishning obyektiv qonuniyatlarini, o'zaro aloqalarni yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shu tariqa, ko'rsatmalilikning ahamiyati tarixiy faktlarni, hodisalarni ko'rish

organlari ishtirokida mushohada etish va ular haqida aniq tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi, murakkab tarixiy hodisalarni, tushunchalarni tushunib olishni ham yengillashtiradi, tarixni haqqoniy tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, ko'rgazmalilik metodi:

1) tarixiy bilimlarning asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi;

2) o'quv materialining ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi;

3) o'qituvchi bayonining aniq, obrazli va ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi;

4) o'quvchilarning o'quv materialini o'rganishga qiziqishini oshiradi va ularning bilish faoliyatini faollashtiradi;

5) o'qituvchining bayonini va uning darsda qo'llangan boshqa o'quv usullarini o'quvchilarning tushunib olishini yengillashtiradi;

6) o'quvchilarning fikrlash faoliyatini va ijodiy qobiliyatini o'stiradi;

7) o'quvchilar bilimining aniq, chuqur va mustahkam bo'lishiga yordam beradi. Tarixiy xarita bilan ishlash geografik muhitga xarakteristika berishning asosiy metodini tashkil etadi. Tarixiy xaritalarda mavzu va voqea-hodisalar, jarayonlarning mazmuni, davlatning chegaralari va boshqalar beriladi. Tarixiy kartalarning bir necha turlari bor: tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-etnografik, arxeologik, tarixiy-siyosiy, harbiy-tarixiy, tarixiy-madaniy. O'quv tarixiy kartalari esa ta'limda foydalaniladi. Xaritalar hech qachon eskirmaydi. Eskirganlari ham o'z qadrini yo'qotmaydi. Ammo o'sha davr tarixiga arxeologik izlanishlar yoki boshqa yozma manbalarning topilishi bilan yangi o'zgarishlar kiritilishi mumkin bo'lsa-da, baribir o'tgan davr tarixshunosligi haqida ham ma'lumot berish vazifasini o'taydi. Ularga qarab tanqidiy fikrni rivojlantirish ham mumkin. Xaritalar orqali xalqlarning tarixiy rivojlanishiga geografik muhitning ta'sirini ko'rsatish uchun katta imkoniyat bor. Xarita yordamida biror mamlakatning tarixiy taraqqiyotida bosib o'tgan turli bosqichlardagi ahvolini aniq tasvirlab berish, birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi haqida aniq tasavvur yaratishga,

ikkinchidan, inson ajdodlari mehnatining bunyodkorlik kuchini puxta tushunib, anglab olishlariga yordam beradi. Binobarin, xarita bilan ishlash juda katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Xaritadan foydalanib tarixiy voqea sodir bo'lgan joyni ko'rsatish, geografik muhitning roli haqida tasavvur yaratish uchungina emas, balki tarixiy voqealarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini, o'zaro aloqalari va sabab-natijalarni ochib berishda ham muhim rol o'ynaydi. Xaritadan tarixiy voqeani tushuntirib berishdagina emas, balki uni tahlil qilishda va umumlashtirishda ham foydalaniladi. Xarita yordamida tarixiy voqealarning sabab-alloqalari ochib beriladi. Masalan, Amir Temur davlati va saltanatining kengayishi va yuksalishi siyosiy-ma'muriy holati ochib beriladi. Xarita darsning boshida o'rganilgan materialni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy taraqqiyot rivojlanishining qonuniyatlarini ochib berishga yordam ko'rsatadi. Tarixiy xarita o'quv materialini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi voqea bo'lib o'tgan joyini devorga osilgan xaritadan ko'rsatgan vaqtda o'sha joyni o'z xaritasi yoki atlasidan izlab topishi, o'qituvchi rahbarligida xaritaning tahlil qilinishi, xaritalar ustida mustaqil ishlash, savollarga xaritadan foydalanib javob berishi o'quv materialining puxta o'zlashtirilishiga va uzoq vaqt esda saqlanishiga yordam beradi. Tarix o'qitish tajribasida tarixiy xaritalarning uch turidan foydalaniladi:

1. Umumiy xaritalar. Ular bir mamlakat yoki bir guruh mamlakatlardagi tarixiy voqealarni, ularning mavqeyini, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichidagi ahvolni aks ettiradi.

2. Obzor xaritalar. O'rganiladigan voqealar rivojlanishining izchilligini uzoq davr mobaynida hududning o'zgarganligini aks ettiradi.

3. Mavzuga doir xaritalar. Ma'lum tarixiy voqealarga yoki tarixiy jarayonning ayrim tomonlariga bag'ishlanadi. Masalan, "Muqanna qo'zg'oloni". Mavzuga doir xaritalarda ijtimoiy hayotga doir masalalar, chunonchi iqtisodiy masalaga, harakatlarga, mustaqillik uchun milliy ozodlik kurashlari yoki harbiy o'tmishga doir masalalar to'laroq yoritiladi. Darslik va atlaslardagi xaritalarning ko'pchiligi tematik xaritalardir. O'qituvchi bosma yoki qo'lda tayyorlangan osma tematik

xaritalardan ham foydalanadi. Sxematik xaritalar yoki xarita-sxemalar ham tematik xaritalarning bir turidir. Tarix darslarida mamlakatimizning tabiiy sharoiti va iqtisodiyotining rivojlanish tarixi bilan chuqurroq tanishtirish maqsadida tabiiy va iqtisodiy geografik xaritalardan ham foydalaniladi. Birorta ham tarixdan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni xaritasiz tasavvur etish qiyin. Xarita tarix darsining eng zaruriy qo'llanmasi bo'lib hisoblanadi. Xarita avvalo o'rganiladigan mavzuga mos bo'lishi lozim. O'qituvchi voqealar rivoji davomini bayoni jarayonida xaritadan ko'rsatib borishi, ayni vaqtda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatadigan joyni qo'llaridagi xarita yoki atlasdagi xaritadan izlab topishlari lozim. Har bir yangi xarita o'rgana boshlanganda unga qisqacha obzor berish, uni o'rganilgan eski xarita bilan solishtirib, o'quvchilarni yangi xaritadagi o'zgarishlar bilan tanishtirish, ularning tarixiy taraqqiyotning izchilligi va har bir bosqichning o'ziga xos muhim xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. O'quvchilar ikki xaritani solishtirib mamlakat hududi toraygan yoki kengayganini, shaharlarning o'zgarganligi va boshqa o'zgarishlar yuz berganligini aniq tushunib oladilar. Tarix darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Ta'limning texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga, o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Ko'rgazmalilik metodining asosiy komponentlari

Amaliy metod (kontur xarita to'ldirish, mashq bajarish, o'quv topshiriqlarini yozma tayyorlash). Ta'limning amaliy metodida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi. Amaliy metodning quyidagi turlari mavjud:

1. Laboratoriya tajribasida turli o'quv topshiriqlarni amalda bajarish. O'quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, chizg'ich, sirkul va boshqalardan foydalanib, chizish, qirqish, yelimlash, o'lchash kabi ishlarni bajaradilar.

2. Mashq o‘rganilgan bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish yo‘lidir. Mashq vositasida turli malakalar–intellektual va aqliy malakalar tarkib toptiriladi. Bilish (anglash) faoliyatining bosqichlariga ko‘ra metodlar quyidagi turlarga ajrtiladi: (ularni rivojlantiruvchi ta’limning asosiy yo‘nalishlariga ham kiritadilar) tushuntirish, namoyish etish, illustrativ tushuntirish;

- ko‘rgazmali qurollar;
- nomoddiy, Moddiy;
- dars jarayonida so‘z orqali yodga tushiriladigan;
- tasvirlangan ko‘rgazmali qurollar;
- eshitiladigan;
- audio-vizual.

Texnika vositalaridan foydalanish uchun slayd plyonkaga chizilgan chizma, sxema, model grafik va boshqalar. Oddiy yoki magnitli doskaga chizilgan jadval, sxema, grafik, qiyin so‘zlar va boshqalar. Avvaldan chizib, tayyorlab qo‘yilgan plakatlar, sxema, jadval, diagramma va boshqalar. Magnitofon, plastinka, kompakt disk va boshqalar. O‘quv filmi, kompakt diskka yozilgan ma’ruza matnlari, testlar, masala, mashqlar va hokazo. Reproduktiv (tayyor bilim berish); muammoli ta’lim; qisman izlanish (evristik); ilmiy-tadqiqotchilik metodlari. Tushuntirish, namoyish etish metodi – uning asosiy vazifasi o‘quvchilarning axborotni o‘zlashtirishini tashkil etishdir. Bu faoliyat shundan iboratki, o‘qituvchi tayyor axborotni turli vositalar bilan beradi, o‘quvchilar esa ana shu faoliyatni idrok etadilar va eslab qoladilar. O‘qituvchi axborot berishni og‘zaki, darslik va qo‘shimcha qo‘llanmalardagi iboralar, ko‘rgazmali qurollar va boshqa amallarni amalga oshiradi. O‘quvchilar berilgan bilimlarni o‘zlashtirish uchun yangi axborotni tinglaydilar, ko‘radilar, o‘qiydilar, kuzatadilar va xotirada saqlaydilar. Reproduktiv metod namunaga qarab o‘quv materialini o‘zlashtirish metodidir. Har qanday materialni bayon qilishda yoki bu materialni tezroq tushunish uchun (darsliklarda beriladi) tayyor izohlab ko‘rsatilgan metodik nuqtayi nazardan qulay mashqlar berilishi hozir odatga aylangan. Bunday mashqlar o‘rganilgandan so‘ng boshqa

namunaga o'xshamagan, lekin namunaga qarab yechilishi mumkin bo'lgan mashqlar tushuniladi. Mashqlar (savollar) namunadagi, ya'ni reproduktiv usuldagi o'zlashtirishga mo'ljallangan o'quv materiali bo'lsa, ularni namuna bilan bir xil turdagi o'quv materiali deyiladi. Bu metod bilan har qanday materialni o'rganish qulay va materialni o'zlashtirishdagi dastlabki qadamlar bo'ladi. Lekin bu usulda olingan bilim o'quvchining esida turmaydi, ya'ni olingan bilimni mustahkamlab bo'lmaydi. Reproductive metodda bilimlarni o'zlashtirish darajalari bir xil bo'ladi.

Reproductive metod o'quvchilar ko'nikma va malakalarni egallashi, shu bilan birgalikda bilimlarni o'zlashtirishning ikkinchi darajasiga erishishi uchun o'qituvchi topshiriqlar tizimi orqali ularning o'zlariga berilgan bilimlarni bir necha marta eslatadi. O'qituvchi topshiriqlar beradi, o'quvchilar esa topshiriqlarni namuna asosida bajaradilar. Muammoli ta'lim metodlari o'quvchilar fanning turli sohalaridan kengroq ma'lumot o'rganishi, o'zlashtirishi bilan birga hayotga ijodiy munosabat malakalarini tarkib toptirish kerak. Ana shu maqsadda o'qitishni o'quvchilarning u yoki bu shakldagi ta'limiy faoliyati tadqiqodni eslatadigan, o'quvchilar uchun "kashfiyotlar" bilan tugaydigan, ya'ni mustaqil holda xulosa chiqaradigan va qandaydir amaliy vazifani hal qiladigan metodlarga asoslanish zarur. Muammoli ta'lim masalalari bo'yicha juda ko'p pedagog olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Masalan, Y.K.Babanskiy, Lerner, Matyushkin, Maxmudov va boshqa olimlar.

Izlanishli metod (evristika) – o'quvchilarni asta-sekin muammolarni hal etishga yaqinlashtirish uchun avvalo tadqiqotning ayrim bosqichlarini bajarishga o'rgatish, ularda asta-sekin ko'nikma hosil qilish zarur. Ushbu metodning muhim tomoni shuki, unda o'qituvchi muammoli masalani kichik muammolarga ajratadi, o'quvchilar esa ana shu muammoni birgalashib bajaradi. Ilmiy tadqiqotchilik metodida ma'ruzalar, ma'lumot yoki hisobotlar, referatlar, mustaqil ishlar, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlashda qo'l keladi. Bu metod, birinchidan, bilimlarni ijodiy qo'llanishini ta'min-

lashga, ikkinchidan, ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida mazkur metodlarni va ularning qo‘llanishini o‘zlashtirishga qaratiladi. Uchinchidan, ijodkorlik faoliyati hislatlarni shakllantiradi, to‘rtinchidan, ana shunday faoliyatga qiziqish hamda ehtiyojini tarkib toptirishning sharti hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotchilik metodi – o‘z navbatida quyidagi muayyan o‘quv topshiriqlarini bajarishda qo‘llaniladi:

1. Hujjatlar, tarixiy yozma manbalar bilan ishlashda;
2. Surat, ilustrasiyalar bilan ishlashda;
3. Atlas, xaritalar bilan ishlashda;
4. Jadval, chizma, diagrammalar bilan ishlashda;
5. Moddiy (arxeologik) manbalar bilan ishlashda. Ta’lim metodlari va usullari.

Keyingi yillarda, ta’lim tizimi amaliyotida o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, tarixiy tushunchalarni, jumladan, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydigan o‘qitish va o‘rganishning samarali usullari ishlab chiqildi. Hikoya, monolog, dialog, suhbat, sujetli hikoya, tahliliy, sujetli rasmlar, ifodalab berish bosma-matn, (matn+so‘z) hujjatlarni tahlil qilish, asosiy tushunchalarni yozib, ular ichidan murakkab tushunchalarni ajratib olish.

Savol va topshiriqlar

1. Ta’lim metodlari va usullarini ayting. Ularning bir-biridan farqi qanday?
2. Ta’lim metodlarini tanlash nimaga bog‘liq?
3. Tarix o‘qitish metodlar klassifikatsiyasini ayting.
4. Ta’lim metodlarining bir-biriga bog‘liqligini izohlang.
5. Bilish (anglash) bosqichiga ko‘ra ta’lim metodlarini izohlang.

XULOSA

Bugungi kunda ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Bizga ma'lumki, pedagogik texnologiyalarning asosini interfaol metodlarga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Ta'lim tizimida, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usul. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari fakultativ mashg'ulotlar sanaladi. Ular o'quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi: to'garaklar, klublar, olimpiadalar, viktorinalar, ko'rgazmalar, ekspeditsiyalar va hokazolar. Dars o'quvchilarning doimiy tarkibi, mashg'ulotlarning aniq belgilangan ramkaga egaligi (har bir dars maktabda 45 daqiqa, akademik litsey va OTMlarida 80 daqiqa davom etadi); jadval oldindan tuziladigan va o'quv ishlari biror aniq mavzuda tashkil etilishi kabi o'ziga xosliklarga ega bo'lgan ta'limning jamoa shakli hisoblanadi.

Dars, hatto eng muvaffaqiyatli bo'lsa ham, bitta muhim kamchilikka ega: u vaqt bilan cheklangan va hatto sinf biron-bir masalaga jiddiy qiziqish bildirsa ham, chalg'itishga yo'l qo'ymaydi. Ta'lim faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan sinfdan tashqari ishlar, undan farqli o'laroq, ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanadi va uning mazmuni o'quvchining shaxsiy manfaatlariga javob berishi kerak. Ushbu yondashuv maktab o'quvchilarining rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda ularning ehtiyojlarini har tomonlama hisobga olish imkonini beradi.

Sinfdan tashqari ishlarning vazifalarini belgilab, A.F. Rodin haqli ravishda u dars bilan bir xil maqsadlarga erishishga qaratilgan, ammo boshqa materialda va boshqa vositalar bilan ya'ni o'qitishning boshqa texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni o'tkazish ham maqsadga muvofiqligni ta'kidlab o'tadi. Sinf

o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lib, ma’lum sinf uchun minimal bilim miqdorini belgilaydigan davlat dasturi asosida quriladi. Maktab o‘quvchilari darsdan tashqari mashg‘ulotlarga faoliyat turini erkin tanlash asosida jalb qilinadi. Ixtiyoriy boshlash sinfdan tashqari ishning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, asosan uning mazmuni va usullarini belgilaydi. Tarixiy xarakterdagi sinfdan tashqari ishlar o‘qitish, tarbiya va ta’limning hayot bilan chambarchas bog‘lanishiga asoslanadi.

Bugungi kun ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham aynan ana shu maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgandir. Bugungi kun pedagoglari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri ta’limda nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, olingan bilimlarni hayotda amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishdir. O‘quvchi maktabdami, o‘rta maxsus ta’lim tizimidami yoki oliy ta’limdami olayotgan bilimlari hayotiy ekanligini va ularni amalda qo‘llash hayotiy vaziyatlarda, muammolar yechimida qo‘l kelishiga, o‘rganilayotgan fanlar faqat nazariy bilim emas, balki, hayotning, kasbiy faoliyatning ajralmas qismi ekanligini his qilishi zarur. Ta’limning ana shunday tashkil etilishi zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama komil avlodni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Ushbu talablarni amalga oshirishda esa ta’lim tizimida tadqiqotlar texnologiyasidan foydalanish qo‘l keladi. O‘quvchi darsda va darsdan tashqari hollarda ijodiy izlanishi, axborotlar, manbalar bilan turli qiziqarli mavzular ustida ijodiy ish olib borishiga e’tibor berilmayapti. Tarix darslarida ko‘rgazmali qurollarning ko‘pchiligi o‘qituvchi tomonidan qo‘lbola yasalgan chizma, jadval, plakatlardan iborat bo‘lib qolmoqda. O‘qituvchilarning darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanishi talab dajarasida emas. Darslarda deyarli videolavhalar, filmlardan parchalar ishlatilmaydi. Tarix darslarida Internet global tarmog‘idan foydalanish ham qoniqarli emas.

Tarix darslarida pedagogik texnologiyasidan foydalanish esa yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Tadqiqotlar texnologiyasi bo'yicha o'quvchi va o'qituvchi turli loyihalar ustida ishlar ekan, ular o'z-o'zidan maqsadli harakat Rejasini ishlab chiqib, turli manbalar bilan ishlashga, axborot texnologiyalaridan foydalanishga va bilimni harakat, izlanish orqali o'z lashtirishga majbur bo'ladilar. Tadqiqotlar yoki tadqiqotlar texnologiyasidan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi uchun ulkan imkoniyatlarni beradi. Bu texnologiyadan foydalanish jarayoni o'z ichiga boshqa ko'plab innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni ham qamrab oladi.

Tarix o'qitish metodikasini o'qitish, o'rganish va uni qo'llash jarayonida quyidagi xulosalarga keldik: darslar yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish va o'quv jarayonini hayot bilan, amaliyot bilan bog'lashning juda qulay jihatlari aytib o'tilgan. O'qituvchi darsni yuqorida ta'kidlab o'tilgan usullardan foydalanib darslarni tashkil qilsa, u jarayonlar o'quvchilarda mustaqil ishlash, izlanuvchanlik, o'z oldiga maqsad qo'yish va maqsadli harakat qilish, muammolarni yechish, hamkorlikda faoliyat olib borish va boshqa foydali ko'nikmalarni shakllantiradi.

GLOSSARIY

Adaptatsiya – ta’lim jarayonini o‘quvchi shaxsiga, turar joyi sharoiti, moliyaviy sharoiti, psixologik va fiziologik xususiyatlariga moslashtirish.

Agreyement – talaba bilan ikkala oliy ta’lim muassasasining DTS koordinatalari orasida tayyorlash mazmuni, o‘qish tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o‘quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o‘zaro kelishuvlarini anglatadi.

Bakalavriat – o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’lim.

Baholash – o‘rganilgan materialni konkret maqsad uchun baholash ko‘nikmasini anglatadi.

Bilim – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog‘liqlik. Bilim kishidan kishiga ma’lumot (axborot) orqali o‘tadi.

Bilish – o‘rganilgan materialni konkret faktordan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.

Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o‘qitish maqsadlariga erishish dasturini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Davlat ta’lim standartlari – me’yoriy hujjat bo‘lib, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Dastur – o‘quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi me’yoriy hujjat.

Didaktika – grekcha didaskiyen so‘zidan olingan bo‘lib, o‘qitaman, o‘qishni o‘rgataman ma’nolarini anglatadi. Didaktika – bu o‘qitish nazariyasidir. Didaktika o‘qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Identifikatsiyalangan o‘quv maqsad – talabalar xatti-harakatlari orqali ifodalangan rejalashtirilgan o‘quv natijalarini to‘la tashxislash va o‘qitishni qayta takrorlanish imkoniyat yaratish uchun, o‘quv maqsadlari shunday aniq qo‘yilishi kerakki, unga erishilganligini ikkilanmasdan aniqlash mumkin bo‘lsin.

Ijodiy izlanish – pedagog boshchiligida qo‘yilgan muammolar, masalalarni yechishning yo‘llarini faol izlashni tashkil etish usuli, fikrlash jarayoni produktiv (unumli) xarakterga ega bo‘ladi.

Imitatsion o‘yinlar – bo‘lim, sex, korxonalar, tashkilotning faoliyati-imitatsiya qilinadi. Imitatsion o‘yinlar ssenariyasi, hodisa sujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va obyektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tavsilotlarni o‘z ichiga oladi.

Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individual o‘qitish – bu o‘quv jarayonini tashkil etishning shakli bo‘lib, bunda pedagog va talaba yakkama-yakka o‘zaro ta’sir ko‘rsatadilar, talaba o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta’lim oladi.

Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi – bunda o‘quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o‘qitishning individual shaqli ustuvor hisoblanadi.

Individuallashtirilgan o‘qitish – bunday o‘quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o‘qitish yo‘llari, usullari, sur’ati tanlanadi va turli o‘quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta’minlanadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti – kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o‘qitishning so‘nggi oylarida o‘tkaziladi.

Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitish.

Kredit – (European Credit Transfer System (ECTS) sinovdan o‘tdi (zachyot), ma’lum bir kursni o‘quv yurtida o‘tganligi haqida guvohnoma ma’nosini anglatadi.

Qo‘llash – o‘rganilgan materialni konkret sharoitlarda va yangi vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini anglatadi.

Ko‘nikma – biror shaxsning muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo‘lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi.

Malaka – ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda bajariladigan ko‘nikmalar.

Masofaviy o‘qitish – bu masofadan turib o‘qitish, qaysiki o‘quv mashg‘ulotlarining barchasi yoki ko‘p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi.

Metodologiya – metod va logiya iboralarining birligida bilim faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta’limot ma’nosini anglatadi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini taqdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni bo‘limi, muayyan katta mavzusi, o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhi.

Modulli o‘qitish – xalqaro tushuncha – modul bilan bog‘liq bo‘lib (“modul ta’lim”, lotincha modulus), uning bitta ma’nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi.

Operatsion o‘yinlar – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradi. Ular ma’lum bir o‘ziga xos operatsiyalarni: masalalar yechish, ma’lum bir usulni o‘zlashtirishga yordam beradilar.

Pedagogik o‘yin – bu faoliyat turi vaziyatlar sharoitida, o‘qitishni aniq maqsad qilib qo‘ygan jamoatchilik tajribasini qayta tiklash va o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘z-o‘zini boshqarishni takomillash-tiradi va pedagogik natijalarni ro‘yobga chiqaradi.

Pedagogik taksonomiya (grekcha so‘z bo‘lib, “taxis” – tartib bilan joylashtirish va “nomos” – qonundan kelib chiqqan) – o‘quv

maqsadlarining toifalarga va ketma-ketlik darajalarga tasniflab, o‘quv fani bo‘yicha maqsadlarining aniq tizimini tuzish.

Pedagogika – yunoncha so‘z bo‘lib, “bolani yetaklash” ma’nosini bildiradi.

Pedagogik-texnologik xarita – pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanadigan o‘qitish siklini tashkil etuvchi hujjatlaridan biri.

Produktiv o‘zlashtirish darajasi – bunda o‘quvchi olgan bilimning noan’anaviy masalalarni yechishda mustaqil fikr yuritishi talab qilinadi.

Psixodrama va sotsiodrama – bu rolli o‘yinga, ishbilarmonlik teatriga o‘xshagan bo‘lib, faqat bu yerda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishining ruhiy holatini to‘g‘ri baholash va uni o‘zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

Reproduktiv – ushbu test topshiriqlarida sinaluvchidan oldin o‘rganilgan tartib asosida mustaqil ish bajarish talab etiladi. Ulardan oldingi yodlangan algoritmlar, qoidalarni eslash talab etiladi.

Rolli o‘yinlar – ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari xatti-harakati ishlanadi, rollarning majburiy mazmuni.

Sintez – elementlardan, bo‘limlardan yangilikka ega bo‘lgan yaxlitlikni yaratish ko‘nikmasini anglatadi.

Credits-host – universitetda (qabul qilgan universitet) muvaffaqiyatli o‘tilgan barcha fanlar Post-universitetda (talabani boshqa OTMga jo‘natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

Tabaqalashtirilgan o‘qitish – o‘quv jarayonini tashkil etishning bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo‘lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o‘quv jarayonini maxsuslashtirishni ta’minlaydi.

Tahlil – bu toifa o‘rganilgan material tarkibini bo‘laklarga bo‘lib, uning tuzilmasini yaqqol ko‘rsatish ko‘nikmalarini anglatadi.

Ta’lim axboroti – muayyan faoliyat turi, ixtisosini amalga oshirishda qo‘llashi uchun, ta’lim oluvchiga berish kerak bo‘lgan bilim.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga tayyorlashning asosiy vositasi.

Ta'lim texnologiyasi – bu ta'limiy axborotlarni manbadan iste'molchiga o'zgartirishda qo'llaniladigan didaktik uslublar majmuasi.

Texnologiya – yunoncha “texno” – san'at va “logos” – o'rganish. Materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berishi va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fan.

Tushunish – uning ko'rsatkichi, materialni bir shakldan boshqa shaklga o'tkazilishi bo'lishi mumkin materialni intepretatsiyasi yoki hodisa va voqealarning kelajagini bashorat qilish.

Tushuntirish-ko'rgazmali yondashuv – o'qituvchilar mashg'ulot davomida o'quv uslubiy adabiyotlardagi ko'rgazmali vositalar orqali “tayyor” holda bilim oladilar.

Transferancy–bu ECTS (EUROPEAN CREDIT TRANSFER SYSTEM) tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to'siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish.

O'qitish metodlari – o'qitish maqsadga erishish uchun, ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

O'rgatuvchi modul – o'qitishning muayyan modul birligi bo'yicha mazmuni, o'quvchining o'quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo'yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toshpo‘latov T., G‘afforov Ya.X. Tarix o‘qitish metodikasi. (Darslik). – T.. Turon-iqbol nashriyoti, 2010.
2. A.K.Nafasov. Tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. – T.. Olam nashriyoti. 2011.
3. B.Ziyomhammadov. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: TIB-KITOB. 2009 y.
4. Toligiyuv O‘.Q.Usmonboyev M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan 2006.
5. G‘afforov Ya.X. Maxsus fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. – T.: Universitet, 2008.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar. №11.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU. 2017. -486.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O‘zbekiston, 2008.

6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston. 2009.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Xalq so‘zi. 2010-yil 30-yanvar. 21-son.
8. Karimov I.A. BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so‘zi. 2010-yil 21-sentabr.
9. G‘afforov Y. X., G‘afforova M. G. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitish usullari. – T.: Universitet, 1996.
10. Babanskiy Y. K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktablarida o‘qitish metodlari. – T.: O‘zbekiston, 1990.
11. Toshpo‘latov T., G‘afforov Y. Tarix o‘qitish metodikasi. – T.: Universitet nashriyoti, 2002.
12. B.Farberman. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000 yil
13. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T. O‘zbekiston. 1992.
14. Safo Ochil. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. – T.. O‘qituvchi, 1997.
15. Qodirov B. Ta’lim tizimidagi islohotlarning maqsad va yo‘nalishlari. – T.: O‘zbekiston. 1999.
16. Tarix o‘qitish usullari. O‘quv-uslubiy majmua. Universitet, 2015.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Joyce Appleby, Lynn Hunt, Margaret Jacob. TELLING THE TRUTH ABOUT HISTORY. W.W. Norton & Company. New York – London. 1994.
2. Bhuvan Garg. Teaching of history (Tarixni o‘qitish). India. New Delhi. Rajat publications, 2007.

3. Pathak R.P. Methodology of Educational Research. Atlantic. USA. 2008.
4. Daniel J. Tew. Pedagogy of Teaching History: Comparing the Chronologic and Thematic Approaches. USA. Western Oregon University, 2014.
5. Короткова М. В., Студеникин М.Т. Методика обучения истории в схемах таблицах описаниях. Практическое пособие для учителей. – М., 1997.
6. Sagdiyev A., Fuzilova G., Hasanova M. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2008.
7. Вагин А.А. Методика преподавания истории в средней школе. – М.: Просвещение, 1968.
8. Бернадский В.Н. Методы преподавания истории в старших классах – М.
9. Карсев В.Г. Очерки методики обучения истории СССР в УСХ-Х классах – М., 1955
10. Toshpulatov T., Gafforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. – T.: Universitet, 1999.
11. Tolipov U.K. Usmonboyev M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: "Fan", 2006.
12. Вагин А.А. Методика преподавания истории в средней школе. – М.: Просвещение, 1968

MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu. Fanining maqsad va vazifalari.....	5
2-mavzu. Tarix o‘qitish metodikasi fani to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar.....	17
3-mavzu. Tarix o‘qitishda bosma matnlar bilan ishlash usuli	27
4-mavzu. Tarix ta’limining amaliy usullari	41
5-mavzu. Tarix darslari, uning turlari va tuzilishi	52
6-mavzu. Tarix o‘qitishda ekologik ta’lim-tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari	63
7-mavzu. Ta’lim-tarbiya tizimida tarix o‘rganishga integratsion yondashish	69
8-mavzu. Dars tahlilining maqsad va vazifalari.....	76
9-mavzu. Milliy qadriyatlarni anglamoq Vatanni anglamoqdir	90
10-mavzu. Tarix o‘qitishda pedagogik va ta’lim texnologiyalari	98
11-mavzu. Tarix darslarida tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish metodlari	118
12-mavzu. Tarix o‘qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi.....	126
Xulosa.....	137
Glossariy	140
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	146

**XASANOVA NODIRA IBRAGIMOVNA
NORMAMATOVA PARDAXOL OCHILDIYEVNA**

TARIX O‘QITISH METODIKASI

Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2024

Muharrir:

Texnik muharrir: M.Tursunov

Musavvir: Sh.Zoxidova

Musahhih: L.Ibragimov

Kompyuterda

sahifalovchi: O.Qalandarov

E-mail: nashr2019@inbox.ru. Tel.: +99899920-90-35

№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi . .2024.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: . Nashriyot bosma tabog‘i .

Adadi: 50. Buyurtma №

**«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh. Olmazor tumani,
Ziyo MFY, Talabalar ko‘chasi, 96-1-uy.**